

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 891.709

**XOLMAXMEDOVA NODIRA DILSHODJONOVNA
ZULFIYA QUROLBOY QIZI NASRI POETIKASI**

5A120101 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

**Magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

prof. H. Umurov

Rasmiy taqrizchilar:

prof. Z. Pardayeva

dots. S.Xo'jaqulov

**Magistrlik dissertatsiyasi hozirgi zamon o'zbek adabiyoti
kafedrasining 26-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga
himoya uchun tavsiya etilgan (12-son bayonnoma).**

Kafedra mudiri:

dots. A.Nosirov

**Magistrlik dissertatsiyasi YaDAKning 2015-yil 27-iyundagi majlisida
himoya qilingan va ____ball bilan baholangan (____-son bayonnoma).**

YaDAK raisi:

prof. N.Turniyozov

A'zolari:

SAMARQAND–2015

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. ADIBA HAYOTI, IJODI VA ADABIY TANQID.....	9
II BOB. ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYACHILIGIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALAR VA RUHIYAT TASVIRI...	36
III BOB. YOZUVCHI ROMANLARIDA XARAKTER VA KONFLIKT BIRLIGI.....	56
XULOSA.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	84

MAVZU: ZULFIYAQUROLBOYQIZINASRIPOETIKASI

REJA:

KIRISH

I BOB. ADIBAHAYOTI, IJODI VA ADABIY TANQID

1.1. Poetika tarixi.

1.2. Adiba ijodi va adabiy tanqid.

II BOB. ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYACHILIGIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALAR VA RUHIYAT TASVIRI

III BOB. YOZUVCHI ROMANLARIDA XARAKTER VA KONFLIKT BIRLIGI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'naviy pok, mustahkam iymon-e'tiqodi barkamol insonni tarbiyalash milliy mafkuramiz va istiqlol g'oyasining asosiy masalalaridan hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyotshunosligi asrlar davomida ma'naviy dunyoqarashimiz asosi bo'lib kelgan diniy-irfoniylar, tasavvufiy adabiyotni o'rganish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Endilikda butun jahon ma'naviyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan tasavvuf dunyosi yulduzlari bo'lgan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi shoirlargina emas, balki o'zbek adabiyotining Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo va boshqa yirik ijodkorlari asarlarining ham mag'zini diniy-tasavvufiy g'oyalar tashkil etishi endilikda yanada yorqinroq tasavvur etilmoqda.

“Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichlarga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Motrudiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi”¹.

Diniy-ma'rifiy adabiyot asrlar davomida xalqimizni ruhiy barkamollik va ma'naviy poklikka da'vat etdi. Albatta, buyo'nalishdagi adabiyotning tarbiyaviy kuchi shu ruhdagi asarlarni o'qish vositasida amalga oshirilgan. Bugungi kun adabiyotida ijod qilinayotgan asarlarga nazar tashlansa xuddi shu kabi buloqlardan suv ichganligi ko'zga tashlanadi. Nafaqat diniy-tasavvufiy adabiyot balki jahon adabiyoti va modern adabiyoti kabilardan ta'sirlanganligi va yozuvchilar o'z asarlarida bu kabi an'analarni davom ettirishga harakat qilayotganligi ko'zga tashlanadi.

Mustaqillik tufayli ilg'or jahon estetik tajribalarini o'zlashtirish va ilmiy baholash mezonlarini shakllantirish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga munosabatni qayta tiklash hamda tafakkur madaniyatini

¹Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., 2000. 11-бет.

yuksaltirish bugungi adabiyotshunoslik oldiga ham kechiktirib bo'lmaz vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Bu esa nafaqat ijodkorlarni, balki adabiyotshunoslarni ham asarlarga yangicha ruhda yondoshishga zamin yaratmoqda.

Istiqlol tufayli o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar tabiiy ravishda adabiy jarayonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Adabiyotning tasvir ob'ekti, ifoda usullari, ijtimoiy-estetik funksiyasida jiddiy yangilanishlar sodir bo'ldi. Bugungi o'zbek nasri mavzu va janrni tanlash, qahramon va uning ruhiyatini ifoda etish borasida xilma-xillikka erishdi. Hozirgi nasriy asarlar qiziqarli voqealar tasviridan ko'ra, ko'proq inson ruhiyatining badiiy ifodasini ko'rsatishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Odamda fikrlash erkinligi paydo bo'lgach, har bir inson olamni o'ziga xos tarzda idrok etadi va undan o'z dunyoqarashi, e'tiqodiga yarasha xulosa chiqara boshlaydiki, bugungi o'zbek nasrida ana shu xususiyat yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, sho'ro davri adabiyotida odamning o'zidan ko'ra uning mehnatiga e'tibor kattaroq edi. Hozirgi adabiyotda esa asosiy diqqat odamning o'ziga qaratilib, inson ishchi kuchi emas, betakror ruhiyat, nozik ko'ngil egasi sanalmoqda. Binobarin, unda odamning his-tuyg'ularini tadqiq etishga e'tibor kuchaymoqda. Tubdan o'zgargan ijtimoiy davr millat ahli ruhiyati va o'zaro munosabatlar tarziga bir dunyo o'zgarishlar kiritdi. Milliy ruhiyatdagi shu evrilishlar, umuman, badiiy adabiyotda, xususan, milliy nasrda o'ziga xos tarzda badiiy ifodasini topmoqda.

Bu holat o'zbek hikoyachiligi hamda romanchiligida ham namoyon bo'layotir. Jumladan, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa qator yozuvchilarning hozirgi hikoyalari va romanlarida davr odami ruhiyatining turli jihatlari oldingiga o'xshamagan yo'sinda yangicha badiiy ifodasini topmoqda. Mazkur asarlarni inson ruhiyatining badiiy ifodasi oldida turgan muammolar nuqtai nazaridan

o'rganish, qahramonlarning psixologik tavsifini amalga oshirishda tayanilgan adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash, bugungi milliy hikoyachilik hamda romanchilik qiyofasidagi asosiy chizgilarni belgilash va uning taraqqiyotidagi yetakchi tendensiyalarni tayinlash hamda Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida badiiy-tasviriy vositalar va ruhiyat tasviri, yozuvchi romanlarida xarakter va konflikt birligi, obraz yaratish mahoratini poetik jihatdan tadqiq etish g'oyat dolzarb ilmiy masaladir. Aynan shu jihatlar mavzumizning dolzarbligini ham belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining **asosiy maqsadi** Zulfiya Qurolboy qizining “Yovuzlik farishtasi”², “Qadimiy qo'shiq”³ hikoyalar to'plami hamda “Mashaqqatlar girdobi”⁴, “Armon asirasi”⁵ singari asarlarida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilangan jamiyatda yashayotgan qahramon ruhiyatini tasvirlash borasidagi mahoratini aniqlash, ruhiyat tasviriga ahamiyat qaratish, badiiy-tasviriy vositalarning asarlardagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat. Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari hamda romanlarida qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi yetakchi yo'nalishlar, inson ruhiyatini muayyan davr bilan bog'liqligini ochishdir. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar hamda uning ichki dunyosi va hissiyot olamiga ko'rsatgan ta'siri kabi masalalar tadrijini kuzatish maqsadiga yetish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish ko'zda tutiladi:

- Poetika masalasiga e'tibor qaratish;
- Tadqiqot mavzusida ko'rsatilgan asarlarni o'rganish;
- Yangi davr va adabiy qahramon munosabatlari muammosiga to'xtalish;
- Adabiy qahramon dunyoqarashi va ruhiyati shakllanishida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirini, tasvir yo'sinini aniqlash;

²Куролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 260 бет.

³ Куролбой қизи З. Қадимий қўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 358 бет.

⁴www.ziyouz.com. Mashaqqatlar girdobi. – 150 бет.

⁵Куролбой қизи З. Армон асираси. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2009. – 301 бет.

- Hikoyalarda inson ruhiyati, qahramonlarni tasvirlashning asosiy tendensiyalarini belgilash;
- Hikoyalardagi obrazlarning o'ziga xosligi haqida fikr yuritish;
- Asarlarida badiiy-tasviriy vositalardan foydalanganligini tadqiq etish;
- Bu boradagi yozuvchi mahoratini aniqlash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida hikoya janri va roman janriga doir muammolar turli ilmiy aspektlarda o'rganilgan. Milliy hikoyachilik taraqqiyoti tamoyillari haqida bir qancha doktorlik⁶ va nomzodlik⁷ dissertasiyalari yozilgan.

Shuningdek, o'zbek nasrida qahramon ruhiyati tasviri tamoyillarini belgilash masalasi yuzasidan ham anchagina ilmiy tadqiqotlar qilingan⁸.

A.Alimuhamedovning “Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir”, O.Avazovning “Psixologik tahlil qirralari”, I.Rahimovning “Ruhiy tahlil va ijod”, Omon Muxtorning “Ko'zgu – ruh pokligi”, Jabbor Eshonqulning “Ruhiy tahlil metodi xususida”, Z.Mahmudovanning “Ijod psixologiyasi haqida”, M.Rustamovanning “Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini”, S.Matyobovning “Badiiy psixologizm qirralari” singari maqolalarda⁹ badiiy asarlarda ruhiyat tasvirining ijod amaliyotiga bog'liq joriy masalalari tekshirilgan bo'lsa, N.Vladimirovning “O'zbek hikoyalarining g'oya va obrazlari”,

⁶Қўшжонов М. Санъаткор ва ҳаёт. (Абдулла Қаҳҳор ижодини қиёсий ўрганиш). филол.фан.д-ри ...дисс. –Т., 1970. -477 б.; Владимирова Н. Развитие жанра рассказа в узбекской литературе. Дисс... д-ра наук. –Т., 1980. -340

⁷Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий услубий ўзига хослиги: филол.фан.номз... дисс. –Т.,2000. – 120 б.; Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида бадий идрок этиш принциплари: филол.фан.номз... дисс. –Т., 2001. -158 б.; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: филол.фан.номз... дисс. –Т., 2002. – 136 б.; Сопиева Ш. Хайридин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати. филол.фан.номз... дисс. –Т., 2006. -147 б.

⁸Холмуродов А. Одил Ёкубов романларида психологизм: филол.фан.номз... дисс. –Т., 1991. – 153 б.; Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80 йиллар): филол.фан.д-ри... дисс. –Т., 1994. – 320 б.; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик (М.М.Дўст, Ғ.Ҳотамов, О.Отахон асарлари асосида): филол.фан.номз... дисс. –Т., 1994. – 162 б.

⁹Алимуҳаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир// Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1947. - № 2-3. –Б. 115-137; Авазова О. Психологик таҳлил қирралари// Ўзбек тили ва адабиёти. – тошкент, 1981. -№ 1. –Б. 61-62.; Раҳимов И. Руҳий таҳлил ва ижод // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1993. 16 июль; Омон Мухтор. Кўзгу руҳ поклиги (Аҳмад Отабой билан суҳбат) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1995. 10 февраль; Жаббор Эшонқул. Руҳий таҳлил методи хусусида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. -№2. –Б. 42-47.; Дониёрова Ш. Давр ва қаҳрамон муаммосига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. – тошкент, 1999. -№3. –Б. 46-48.; Маҳмудова З. Ижод психологияси ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2004. -№3. –Б. 61-63; Матёкубов С. Бадий психологизм қирралари// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2006. -№4. –Б.72-74.

P.Shermuhammedovning “Ruhiy dunyo ko’zgusi”, H.Umurovning “Badiiy psixologizm va hozirgi o’zbek romanchiligi”, H.Karimovning “Davr qahramon taqdirida”, G.Imomovning “Ruhiy iztirobalar” kabi tadqiqotlarida¹⁰ ruhiyat hodisasiga xos xususiyatlar va uning badiiy adabiyotdagi ifodasi monografik planda tekshirilgan.

Ammo adabiyotshunoslik ilmida tubdan o’zgargan milliy ruhiyatning har jihatdan yangilangan milliy hikoyachilikdagi ifodasi, uning yetakchi tamoyillari malakaviy bitiruv ishi sifatida alohida tadqiq qilingan emas.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosini muqaddas Qur’oni karimdagi inson va uning ruhiyatiga doir qarashlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkura, milliy g’oya va milliy ruh masalalariga to’xtalgan asarlari tashkil etadi. Malakaviy bitiruv ishi oldiga qo’yilgan muammolarni hal qilishda jahon va o’zbek adabiyotshunosligidagi davr va adabiy qahramon, milliy ruh va ruhiyat, obraz yaratish bilan bog’liq ilmiy nazariy qarashlarga tayanib ish yuritamiz. Xususan, S.Antonov, L.Ginzburg, B.Moran hamda o’zbek adabiyotshunoslaridan A.Alimuhammedov, M.Qo’shjonov, N.Karimov, U.Normatov, N.Rahimjonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Karimov, S.Meliyev, D.Quronov, U.Jo’raqulovlarning hikoya janri nazariyasi, adabiy qahramon ruhiyati va badiiy asar tahlillariga oid ilmiy-nazariy qarashlari ishning nazariy asosini ta’minlaydi. Qahramon obrazining ruhiyatini ochishdagi yozuvchi mahoratini ko’rsatib berish maqsadida tadqiqotda adabiy-estetik, psixologik, muammoli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Bu kabi tadqiqot metodlaridan ijodiy foydalangan holda, biz o’z tadqiqotimizda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanamiz.

¹⁰Владиминова Н. Ўзбек ҳикояларининг ғоя ва образлари. –Т.: Фан, 1969. –Б. 136; Шермухаммедов П. Руҳий дунё кўзгуси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1971. – 167 б.; Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983. – 148 б.; Каримов Ҳ. Давр қаҳрамон тақдирида. –Т.: Фан, 1987. – 64 б.; Имомова Г. Руҳий изтироблар. –Т.: Ёзувчи, 1992. – 22 б.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mavzuni yoritishda Zulfiya Qurolboy qizining “Yovuzlik farishtasi”, “Qadimiy qo’shiq” hikoyalar to’plami, “Mashaqqatlar girdobi”, “Armon asirasi” romanlari asosiy manba qilib olindi va tahlilga tortildi. Adabiyotshunos olimlarning yozuvchi ijodi haqidagi fikrlari, maqolalari ham Zulfiya Qurolboy qizining badiiy izlanishlarini o’rganishda tadqiqot obyekti sifatida xizmat qildi. Dissertatsiyaga obyekt qilib olingan asarlarning yozuvchi mahoratiga nisbat beradigan elementlari tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Mustaqillik davri o’zbek adabiyotida o’z o’rniga ega bo’lib borayotgan iste’dodli ijodkorlardan biri Zulfiya Qurolboy qizining ijodi misolida o’zbek hikoyachiligi hamda romanchiligida poetik, badiiy-tasviriy vositalar va obraz yaratish muammosi ilk bor monografik yo’nalishda tahlilga tortildi. Shu bilan bir qatorda, estetik ideal va poetik talqin muammolarining o’ziga xos tadrijiy taraqqiyoti haqida ham so’z yuritiladi. Obraz yaratish jarayonida mumtoz va jahon adabiyotidan ta’sirlanish omillarining mavjudligini inobatga olib, qahramon va ruhiyat tasviri xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ish kirish, uchasosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan bo’lib, hajmi ...sahifadan iborat.

I BOB

ADIBA HAYOTI, IJODI VA ADABIY TANQID

1.1. Poetika tarixi.

Poetika bugungi kunda adabiyotshunoslik haqidagi fan tushunchasiga (to'liq anglatmasa-da) to'g'ri keladi. Poetika istilohi Aristotel nomi bilan bog'lanadi. Uning "Poetika" asari bu istilohni anglashga yordam beradi. G'arbda adabiyot haqidagi ilmiy ma'lumotlar falsafa fani doirasi maydonida yuzaga kelgani sir emas. Eramizdan oldingi IV asrda yashagan Aristotel "Poetika" va "Ritorika" nomli asarlarida Homer, Sofokl, Evripid, Aristofan kabi san'atkorlarning asarlarini tahlil etadi. Uning "Poetika" asari adabiyotshunoslikka oid dastlabki manba sanaladi. Unda poeziya san'ati xususiyatlari – tasvirlash predmetining xilma-xilligi, aks ettirishning turli usullari, tragediya, komediya, dramaning mohiyati, ularning eposdan farqi, badiiy xarakter, til va fikr, turlar kabi nazariy muammolar izchil tekshiriladi. Ko'pgina masalalar haqqoniy tarzda tahlil qilinadi. "Tarixchi va shoir shu bilan tafovutlanadiki, ularning biri haqiqatan bo'lgan, ikkinchisi esa bo'lishi mumkin bo'lgan voqea haqida so'zlaydi. Shuning uchun poeziya tarixga qaraganda falsafiyroq va jiddiyroqdir: poeziya ko'proq umumiy, tarix esa alohida voqealarni tasvirlaydi"¹¹.

Uning adabiyot haqida ishlab chiqilgan dastlabki qoidalari yetuk ta'limot sifatida XVIII asrning oxirigacha estetik tushunchaga nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Sharqda esa poetika tushunchasi sinkretik tarzda yuzaga keldi. "... o'tmishda adabiy qarashlar, she'r va shoirlik haqidagi mulohazalar tarixiy yodnomalarda, esdalik tipidagi asarlarda, devonlarga yozilgan debochalarda, manoqib holatlarda, kichik lirik janrlardagi asarlarda, dostonlarning maxsus boblarida, tazkiralarda, aruz, qofiya, badoe' va sanoe'ga doir risolalarda, ba'zan

¹¹Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида) – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 22-бет.

esa umuman ilmi adab deb atalmish ilmlar turkumiga bag'ishlangan kitob va lug'atlarda bayon etilgan"¹².

X asrdayoq she'r san'ati – so'z, rassom san'ati – bo'yoq ekanligi, ikkalasi ham odamlar qalbini obrazli ifoda qilishi haqidagi bu mulohaza adabiyot ilmining ancha chuqur o'rganilganligini isbotlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida she'riyat (adabiyot) qonun-qoidalar haqida maxsus ilmiy-nazariy risolalar ham yaratilgan. Ularda "ilmi qofiya", "ilmi aruz", "ilmi muammo" va so'z san'atlari ilmi kabi maxsus sohalar tekshirilgan va poetika masalalari o'rganilgan. Jumladan, Abulhasan Saraxsiyning "Kanz ul-qofiya", Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar", Rashidi Vatvotning "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" asarlarini ko'rsatish mumkin.

Adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi, shoirlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi maxsus tazkiralari ham ko'plab yaratilgan. Aruziy Samarqandiyning "Chahor maqola", Muhammad Avfiy Buxoriyning "Lubob ul-albob", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Masiho Samarqandiyning "Muzakkir ul-ashob"i kabilardir.

G'arbda Uyg'onish adabiyotshunosligiga italiyalik insonparvarlar Franchesko Petrarka, Jovanni Bokachcholar asos soldilar. Ular qatorida Aligre Dante, Erazm Rotterdamskiy kabi ijodkorlar badiiy adabiyotni real hayotni o'rganish bilan bog'liqlikda olib borishga intildilar.

XVII asrga kelib klassitsizm qoidalar ishlangan boshlandi. Fransuz adibi Nikola Bualo "Poeziya san'ati" nomli asarida klassitsizmning makon, zamon va harakat birligi nazariyasiga asos soldi; tabiat go'zalligidan ilhomlanib, aqlu idrok va yuksak axloqqa mos keluvchi asarlar yaratish tamoyillarini ilgari surdi.

XIX asrning boshlarida nemis faylasufi G.F.Gegel "Estetikadan leksiylar"ida adabiyot nazariyasining muhim masalalarini chuqur yoritdi. "Adabiyot obrazlar orqali fikrlash" san'ati ekanligini ishonchli asosladi.

XIX asr rus adabiyotshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan adiblar V.G.Belinskiy, AG.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubovlar adabiyotning

¹²Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 9-бет.

yuksak g'oyaviyligi, xalqchilligi, obrazliligi, estetik xarakteri, yaxlitligi, badiiyligi, badiiy asar pafosi kabi ta'limotlarni asosladilar"¹³.

Bugungi kunda "poetika" atamasi to'liq adabiyot nazariyasini ifodalaydi deya qat'iy xulosaga kela olmaymiz. Chunki poetika istilohi haqidagi qarashlar bir-birini takrorlamaydi. Shu sabab, avvalo, poetika atamasini ilg'ab olish lozim ko'rinadi. "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi"da poetika atamasi quyidagicha ta'riflangan: "Poetika – (yunoncha poietike – so'z san'ati) eng qadimgi atamalardan bo'lib, u avvallari umuman adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqida fan ma'nosida tushunilgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib, she'rshunoslik hamda badiiy nutqni bezash vositalari va usullarini o'rganuvchi sohani anglatuvchi istilohga aylangan.

Hozirgi kunda poetika ikki ma'noda istifoda qilinadi:

1. She'riy sistemalar va ularning o'ziga xos jihatlari, ritm va uni yuzaga keltiruvchi omillar (bo'g'in, turoq(ruk), misra, band, bahr, vazn). She'riy matnning leksik-sintaktik-stilistik-fonetik xosiyatlari, she'riy san'atlar, tasvir vositalari kabi ma'noviy va shakliy tushunchalarni o'rganuvchi sohaga nisbatan poetika atamasi qo'llaniladi.
2. Har qanday badiiy asarning ichki va tashqi (mazmun va shakliga xos) komponentlari, obrazlari, syujeti va kompozitsiyasi, ularning o'zaro aloqadorligi, tili, yozuvchi individual uslubining namoyon bo'lishi, badiiy-estetik tamoyillari, bir so'z bilan aytganda, asar badiiyatini ta'minovchi omillarni o'rganuvchi adabiyotshunoslik fani sohasi ma'nosida ham poetika termini ishlatiladi. Poetika bu ma'noda bevosita adabiyot nazariyasiga yaqinlashib qoladi.

Adabiyotshunoslikda poetika atamasini keng ma'noda qo'llash ko'proq kuzatilmoqda"¹⁴.

"Poetika" atamasi bir-biri bilan o'zaro tutashadigan nazariy tushunchalarga ham chambarchas bog'liqdir. Unda ijodiy uyushganlik darajasi

¹³Умуров Х. Адабиёт қоидалари. –Т.: Ўқитувчи, 2002.14-бет.

¹⁴Саллаев Ф, Қурбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 186-бет.

adabiy mohiyat intizomi vazifadoshligini belgilaydi. Aniqrog'i, asosiy estetik kategoriya badiiy mushohadaning tug'ilishi va ma'no uzviyligini yaxlitlashtiradi. Murakkab ijodiy ma'rifat "materiya mavjudligidan semantik miqyos hamda g'oyaviy-emotsional tanlov"¹⁵ uyg'unligini kashf etadi".

Borliqnibadiiy idrok etishdaestetik munosabat muhim o'rin tutadi. Poetik tizimning xususiy manzarasi timsoliy tafakkur mohiyatini ifodalaydi. Unda ilmiy mezon va metodologik asos o'zaro birlashadi. Ayni paytda, ham ilmiy, ham metodologik markazga tayanadigan tushuncha atamashunosligi ham to'liq barqarorlashmagan. To'g'ri, badiiy mushohadaning mantiqiy taraqqiyoti poetik tushuncha mohiyati va adabiy talqin uzluksizligi, asarning estetik mohiyati hamda zamon va makon tushunchalari yaxlitligi, ifoda tasviri, ma'no maydoni janriy-uslubiy vazifadoshligi kabi yetakchi poetologik mezonlar turfa nazariy aspektlarda muayyan darajada o'rganilgan. Biroq ilmiy qarashlar tafovuti masalani ma'lum darajada murakkablashtiradi.

Aslida "poetika" tushunchasi ijodkor dunyoqarashi va estetik qadriyat hosilasi – matn uzviy munosabatini tanlov, uyushma hamda vazifa nuqtai nazaridan tekshiradi. Aynan "yozuvchi ijodida ong miqyosi adabiy konsepsiyalar qolipi va joriy davr poetikasi"¹⁶ ni tasdiqlaydi. Biroq, poetik faoliyatning xususiy mohiyati muntazam ravishda umume'tirofdagi nazariy mezonlarni buzishga intiladi. Zotan, materiya va ifoda uyg'unligi ham ziddiyat tushuncha tadqiqot markaziga ko'tariladi. Unda "til materiali tanlovi va qayta idrok tadriji" (V.V.Vinogradov) muallif dunyoqarashi hamda umummohiyat ixtilofini tashkil etadi.

G.M.Fridlender o'z qarashlarida poetika tushunchasini quyigacha ta'riflaydi: "Har qanday adabiy (shu jumladan, poetik) asar, san'atkor ijodiy faoliyatining ruhiy olami, insoniyat tarixi va kelajagi bilan keng tizimaro aloqalantirilgan tutashuvchi asosida yuzaga keladi, ayni paytda, hamkorlik hamda o'zaro munosabatning aniq murakkab yaxlitligini

¹⁵Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. М.: Наука, 1970. С. 122.

¹⁶Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. М.: Советский писатель, 1986. С. 130.

shakllantiradi”¹⁷.Darhaqiqat, g`oyaviy-estetik o`ziga xoslik va betakrorlik ijod falsafasi mag`zini tashkil etish bilan birga san`atkor badiiy izlanishlari tabiatini ham asoslaydi. Unda mafkura, axloq va nafosat yaxlit namoyon bo`ladi.

Taniqli munaqqid B.I. Sarimsoqov ham badiiylilik xususida so`z yuritib, unda: “Badiiylilik – san`atning, jumladan, so`z san`atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko`plab olimlar badiiylilikni xilma-xil talqinlar, ta`rif-u tavsiflar etib kelishadi. Ammo biror bir olim badiiylilik haqidagi mening talqinim to`g`ri, deb da`vo qila olmaydi. Chunki san`atning qoni va joni bo`lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadam bo`lib, u har bir davr adabiyotida, uning turlicha yo`nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayri-ayri olingan namoyandasida o`ziga xos tarzda, o`ziga xos miqyos va darajada namoyon bo`ladi”¹⁸ kabi fikrlarini bayon etadi. Poetika tushunchasining qamrovi juda keng. Unda hatto davr ruhiyati tadqiqi yaxlitligi qahramon faoliyatiga singdirilgan ijodiy konsepsiya mundarijasida tugal mohiyat kasb etadi. “Poetika tizimli falsafiy estetika asoslariga tayanmas ekan, yaralishidan egiluvchan va tasodifiy bo`la boradi. Tizim asosida tahlilga jalb etish mumkin bo`lgan poetika so`z san`ati estetikasi bo`lmog`i lozim”¹⁹,– deya e`tirof etadi rus olimi M.M.Baxtin.O`ziga xos tamoyillar negizida hosil bo`ladigan tizimni ijodkor dunyoqarashi nazorat qiladi hamda muvofiqlashtirib turadi. Chunki adabiy talqinda “dolzarb mavzu ham, turmush materiali ham, romandagi tabiat tasviri ham, ijobiy qahramonlardagi o`z kasb-koriga doir chuqur bilim bayoni ham – agar yetuk xarakterlar, davrning badiiy tiplari darajasiga ko`tarilmas ekan, asarning umrboqiyiligini ta`minlay olmaydi. Davrga hamnafaslik yozuvchidan o`z zamonasining ijtimoiy hayotdagi yetakchi tarixiy voqealarini va yangi ijtimoiy-axloqiy ehtiyojlarini yetuk xarakterlarda umumlashtirib, tipiklashtirib, individuallashtirib berishni talab qiladi”<sup>20</sup>.Ko`rinadiki, poetik ijod mohiyati muayyan ma`noda, matn g`oyaviy-

¹⁷Фридлендер Г.М. Литература в движении времени. М.: Современник, 1983. С. 256.

¹⁸Саримсоков Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т.: Фан, 2004. 3-бет.

¹⁹Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная литература, 1975. С. 10.

²⁰Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Т.: Университет, 2001. 28-бет.

estetik yaxlitligiga borib taqaladi. Janr, shakl va ma`no uyg'unligi xarakter adabiy takomilida sintaktik tanlov – muayyan estetik qadriyat maqomiga erishadi.

“Badiiy asar go`yo bir jonli organizmdir: organizm jonsiz yashay olmaganidek, “jon” ham tanasiz o`zini namoyon qilolmaydi. Jonli organizmning eng kichik hujayrasi ham unda aylanib turgan iliq qon tufayli yashagani kabi, badiiy asarning har bir katta va kichik qismi ham unga hayot baxsh etib turgan mazmun tufayli yashaydi va shu mazmunning nishonasi, tashqi ifodasi bo`lib xizmat etadi”<sup>21</sup> – deya e`tirof etadi adabiyotshunos olim Izzat Sulton. Nazariy qarashda bir necha jihat e`tiborni tortadi. Birinchidan, badiiy asar o`z ichki qonuniyatlari vositasida shakllanadigan poetik tizim, ikkinchidan matn ittifoqi shakl, mazmun va uslub nisbiy daxlsizligini ta`minlaydigan estetik qadriyat, uchinchidan, ijodiy aloqalantirilgan munosabatlar jamuljami ifoda intizomida o`z mantig`ini namoyon qiladi.

“Bugungi kunda muammo tadqiqoti intensiv xarakter kasb etishiga qaramay, asosiy tushuncha va qatlamlar aniq tafovutini amaliy jihatdan belgilash jarayoni qiyin kechmoqda. Hatto “poetika nima?” savoliga ham yakdil va haqqoniy javob yo`q. Binobarin, masalani uch nazariy o`lchamda: ham material nuqtai nazaridan, ham usqurtma nuqtai nazaridan ham vazifadoshlik nuqtai nazaridan maxsus o`rganish maqsadga muvofiq”<sup>22</sup>, - deb yozadi rus munaqqidi M.Polyakov. Darhaqiqat, istiloh nazariy tasavvurlar shakllanish tajribasi muntazam bosqichlarini to`laqonli qamraydi va bir-biriga mantiqan bog`lanadigan ijodiy a`zolar yaxlit tizimini anglatadi.

Uzluksiz yangilanib boradigan adabiy mohiyatda ijodiy mayl o`ziga xosligini hayotiy tajriba, aqliy manfaat va idrok tanholigi tashkil etadi. Jumladan, hissiy ong silsilasidan iborat badiiy g`oya alohidaligi tahlil predmetiga individual yondashuvni taqozo etadi. “Zamonaviy adabiy jarayon va adabiyot tarixida har bir janrning o`z mohiyati, o`rni mavjud. Biroq

²¹Султон И. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 1986. 163-бет.

²²Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. М.: Советский писатель, 1986. С. 5

realistik hikoya, qissa, roman hamda roman-epopeyada badiiy shakl rivojlanib boradigan bosqichga aylandi. Bu nazariy aqida!.. Faqat janriy vazifadoshlik ko'lamdorligi hamda mohiyati, uni falsafiy, psixologik va badiiy miqyoslarda hal qilish vazifasi o'zgarmay qoladi"²³, - deb yozadi rus olimi A.V.Chicherin. Darhaqiqat, roman adabiy janri tinimsiz o'z shamoyilini yangilab boradi. Shunga qaramay, badiiy shakl tadrijida ijodkor dunyoqarashiga xos umumiy ijod qonuniyatlarini kuzatish mumkin. "Roman o'z taraqqiyoti mobaynida voqelik butun qatlamlarini, jumladan, turfa miqyos va mavzularni qamrash hamda uni badiiy tadqiqot predmeti teranligiga aylantirishga harakat qiladi"²⁴.

To'g'ri, ruhiyat tasviri va ifoda davomiyligi yaxlitligi adabiy janr umumiy manzarasini ifodalaydi. Biroq, badiiy shakl ijodiy imkoniyatlari cheklanganligi hamda barqarorligi adibning janr taqozosini o'zgartirishga intilishi jarayoni bilan to'qnashadi. Tugallik va adabiy intizom har bir badiiy shakl uchun xos xususiyat. Shu ma'noda, janr tabiati xilma-xil poetik uyushmalarni jipslashtiradi. Shakl, mazmun va uslub o'rtasidagi badiiy munosabatni qayta tiklash uning poetologik vazifasi sanaladi. Chuqur tahliliy muhokama matn butunligini ta'min etadi. Hayotni "badiiy tadqiqot teranligiga yo'naltirish" tizimi moddiy va ma'naviy qadriyat mezonlari xilma-xilligidan o'sib chiqadi. Unda hayot haqiqati badiiy talqin vositasida to'ldiriladi, boyitiladi va tartibga solinadi.

Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasidagi aloqa badiiy yaxlitlikni kafolati, unda subyekt va obyekt ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi. Aslida "har bir san'at asari dunyoning yaxlitligini tasdiqlovchi manifest"²⁵ hisoblanadi. Adabiy hamjihatlik real voqelik hamda ijodiy g'oya o'rtasida shakllanadigan munosabat tizimi tajribasini markazlashtiradi. Adabiyot falsafasi hissiy idrok vositasida o'zaro bog'liqlikni asoslashdan iborat. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mohiyat hamisha mavhumlik qadar harakatlanadi.

²³Чичерин А.В. Возникновение романа-эпопеи. М.: Советский писатель, 1975. С.5

²⁴Фридендер Г.М. Поэтика русского реализма. Л.: Наука, 1971. С.63

²⁵Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Т.: Маънавият, 2010. 127-бет.

Tasvirdan ifodaga, ifodadan g`oyaga muttasil o`tib turish aloqalantirilgan mushohadani tahlilga yuzlantiradi. Tahlil va talqin insoniyat fikrlash madaniyati ikki bosqichi, imkoniyat hamda mantiq mushtarakligi poetik butunlikni tashkil etadi.

Umuman, poetik tushuncha tadriji hayotiy vaziyatni taqqoslash, hodisotning xarakterli qirralarini mantiqan urg`ulash hamda estetik baholash yo`sinida tutashadi. Aynan badiiy o`lcham rang-barangligi tahlil tamoyillarini teranlashuviga shaoit hozirlaydi. Unda inson madaniyati yaxlitligi nafis va ongli ijodiy munosabat ziddiyatini tavsiflaydi. Unda ezgu a`mol va axloqiy taqdimot sezim hamda hayot maromini tasdiqlaydi. So`z vositasida jonlantirilgan ifoda tasvir hamda tasavvur aloqadorligini muayyan nuqtaga yig`adi. Binobarin, har bir adabiy talqinda o`ziga xoslik yetakchilik qilishini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. To`g`rirog`i, lug`aviy birlikda kuzatiladigan doimiy o`zgarmas belgi-xususiyat ifodasi ijodiy muhokamada nisbiy erkinlik darajasiga bog`lanadi. Shu ma`noda, adabiy talqin o`ziga xosligi materiya mohiyatini to`ldiradigan, boyitadigan hamda tartibga solib turadigan yetakchi estetik tushunchalar sirasiga kiradi.

1.2.Adiba ijodi va adabiy tanqid.

XX asr oxiri va XXI asr boshida o`ziga xos qalam tebratayotgan adibalardan biri Zulfiya Qurolboy qizi sanaladi. Zulfiya Qurolboy qizi – 1966 yili Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug`ilgan. 1989-yili Jizzax pedagogika institutining o`zbek filologiyasi fakultetini bitirgan. “Turmush”, “Yovuzlik farishtasi”, “O`lim hech narsa emas” hikoyalar to`plamlari hamda “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” romanlari muallifidir. Ayni kunlarda “O`zbekfilm” kinostudiyasida ishlaydi. Hikoyasiasosida “Chaqmoq chaqqan tunda” badiiy film suratga olingan. “Yozsiz yil” badiiy filmining, “Fidoiylar” serialining senariy muallifidir. Hikoyalari asosida O`zbek davlat drama teatrida “Ayol” spektakli sahnalashtirilgan. Biroq adiba ijodi bugungi adabiy jarayonda to`laqonli o`rganilgan, deya olmaymiz. To`g`ri, adiba hikoyalari va romanlari haqida bir qancha fikr-mulohazalar yuritilgan. Biroq bu fikr-mulohazalar, qarashlar adiba yaratgan asarlarga to`liq baho bera olmaydi.

Taniqli munaqqid Umarali Normatov “Qalbdagi benazir ziyo” maqolasida adibaning roman va hikoyalarini tahlil qiladi. Unda adabiyotshunosning quyidagi fikr-mulohazalari qimmatli: “Kunday ravshan: bir tizimdan ikkinchi bir tizimga – bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish osonlikcha kechayotgani yo`q. Ko`z oldimizda qisqa fursatda bizda ham taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi asl mulkdor, tadbirkor va biznesmenlar toifasi shakllandi, ular o`zlari uchun ham, el-yurt farovonligi uchun ham ko`p xayrli ishlarni amalga oshirayapti. Ayni paytda, uzoq yillar moddiy-ma`naviy tizginda, siquvda kun kechirib kelgan olomon endilikda erkinlik sharoitida boriga qanoat qilmaydigan, farovon hayot yo`lida hech narsadan tap tortmaydigan bo`lib borayotir; nafs ilinjida o`zini har yoqqa uradiganlar, o`z yurtini qo`yib o`zga yurtlarda jannat qidiradiganlar ko`paydi. O`zga yurtlarda esa bu xil soddadil Bandai ojizlarni tuzoqqa ilintirib, qulga aylantirib, ular kuchidan, halol mehnatidan, hatto tanidan katta daromad topadigan ustomon firibgarlar paydo bo`ldi. XXI asrda “odam savdosi” deb atalgan bu xil sharmandali illat qurbonlari haqida gapirish, yozish

oson emas, biroq indamay turish ham insofdan emas. Chin ijodkor vijdoni bunga yo`l qo`ymaydi.

Adibaning “Yozsiz yil”, “Quyosh nega chiqaveradi?”, “Baxtsizlik malikasi” hikoyalarida personajlar tushib qolgan chigal vaziyat, o`sha kezlari ular qismati, tabiati, ruhiyatida yuz bergan evrilishlar, qabohat va ezgu tuyg`ular mahorabasi ifodasi “Mashaqqatlar girdobi”, “Armon asirasi” romanlaridagidan butunlay o`zgacha. Romanlarda inson qismati, tabiati, ruhiyatidagi jarayonlar hayotdagi ijtimoiy silsilalar bilan aloqadorlikda sodir bo`lsa, hikoyalardagi bu holat tushunish va tushuntirish mushkul bo`lgan, qisman, “ilmi g`oyib”ga daxldor qismat jumbog`i, taqdiri azalning “sheva”lari, qolaversa, shaxs tafakkuri, “ong oqimi” nag`malari, inson tabiatidagi tug`ma fazilat va illat, ulug`vorlik va tubanlik, daholik va ojizlik, nafosat va dag`allik orasidagi azaliy ziddiyatlarning hosilasi tarzida talqin etiladi.

Zulfiya oldinroq yaratgan ayrim asarlaridagi kabi “Quyosh nega chiqaveradi?”, “Baxtsizlik malikasi” hikoyalarida milliy adabiyotimizda nisbatan kam ishlangan reallik bilan xayolot-tasavvur oralig`ida sodir bo`lgan qismat va ruhiyat jumboqlari badiiy talqini, ijtimoiyotdan xoli “ko`ngil lirikasi”ga yaqin turadigan adabiy-ijodiy tajribalarni dadil davom ettirgan.

“Quyosh nega chiqaveradi?” hikoyasi o`quvchini alamli o`ylar girdobiga tortadi. Taqdiri azalning shafqatsizliklari, adolatsizliklari tufayli ko`ksida yashashga, odamlarga mehr hissi so`ngan insonning fojiasi, ruhiy holatlari alam-iztirob bilan qalamga olinadi. Hikoyadagi vaziyat, javobsiz savollar Siz-u bizni ham o`yga toldiradi. Asardagi Tursunoy har jihatdan bekam-u ko`st, barkamol qiz. Unda chiroy, aql-zakovat, iqtidor – barchasi mujassam. Asar personajlaridan biri aytganday, u istasa, baxtli bo`lishi mumkin, buning uchun barcha imkoniyatlari muhayyo. Qizig`i, u buni xohlamaydi. Yozuvchi “nega”, “nima uchun” degan savollarni o`rtaga qo`yadi. Savolga har xil yo`llar bilan javob axtaradi. Bu qiz mavjud hayot odami emas, u o`y-xayollar bandasi. “Men ko`p, juda ko`p o`ylayman, - deydi Tursunoy. – Nega shunday? Nega bu dunyoda to`kis baxt yo`q? Hammasi Uning, yolg`iz Uning ixtiyorida bo`lsa,

nega dunyoni becam-u ko`st yaratmadi? Atigi bir marta, bir martagina dunyoga keladigan insonni azob-uqubatlarga giriftor qilmaslikning iloji yo`qmidi?” Shu tarzda isyonkorona savollarni qo`yish uchun unda muayyan asoslar bor.

Ota-onasining dunyoga kelgan to`rtta farzandi turmagan, Tursunoy tug`ilgach, ketma-ket yuz bergan o`limlar to`xtaydi, ammo undan keyin yana yo`qotish... Tursunoy bunga toqat qilolmaydi. Axir to`qson olti yoshga kirgan amma hammaning joniga tegib hayotning etagiga yopishib olib yashab yuribdi-yu, mushtday ukaginasini olamga sig`madi...” Nega?... Nima uchun?... U ham yashab yuraversa bo`lardi-ku!.. Anavi g`o`ng`illayotgan asalariga qara. Shuning ham hayotda o`z o`rni bor. Shugina jonzo`tning-a. Mening ukaginam... axir u inson edi-ku! Yashashga haqqi bor edi-ku!..” – deya o`rtanadi qiz.

Personaj ana shunday mushkul tig`iz ruhiy iztiroblar og`ushida qolgan kezlari yaqin tengdoshi uni anglashga, dardiga malham bo`lishga chog`lanadi. Dugonasining bunday holatga tushuvida “jin”larning xurujidan, allaqanday telbalik alomatidan xoli boshqa bir narsa mavjudligini sezadi, Tursunoyning ongi va shuurida yuz berayotgan “chaqin”lar o`z-o`zini hamda dunyoni anglashning favqulodda kuchaygan holati, degan xulosaga keladi. “Nega? Nima uchun?” – joniga yopirilib hujum qilayotgan ushbu savollarga javob izlashdan bezor bo`lib ketganidan, u hayotdan alamli, achchiq bir lazzat ichida o`ch olayotir, degan taxminlarga boradi. Tursunoy alamli savol va o`ylarining avj pardaga ko`tarilgan chog`lari necha bor o`z joniga qasd qiladi. Qiziq, har gal ajal sirtmog`idan omon qoladi. Bu hol taqdir-u azalning bir karomati! Afsus, u buni hozircha anglash darajasiga yetgani yo`q. atrofdagilar, hatto yaqin dugonasi buni anglashga qobil emas. Tursunoy o`sha mushkul damlarda bir donishmand, najotkor rahnamoga muhtoj. Hikoyada shu tarzda mushkul jumboq ochiqqligicha qoladi.

Bu chigal jumboqqa javobni o`quvchi galdagi hikoya – “Baxtsizlik malikasi”dan topganday bo`ladi. Bu hikoyada ham personajlar qismati, ruhiyatidagi evrilish, dramalar ijtimoiy omillarga aloqador bo`lmagan hayot tasodiflari, taqdiri azalning g`aroyibotlaridan iborat. Malikaning otasi, onasi,

tugʻishgan inisi, opasi birin-ketin tasodiflar changalida olamdan oʻtadilar, birgina Malikaga esa jin ham urmaydi. Mudhish koʻrgilikni qarangki, vaqti soati kelib, unashtirilgan yigiti ham toʻy kuni avtohalokatga uchrab, dunyodan koʻz yumadi. Soʻqqabosh alamdiya qiz bu koʻrguliklar olovida qanchalar qovrilib yonmasin, ota-ona xonadoni chirogʻini yoqib, opalaridan qolgan toʻrtta farzandga “ona” boʻlib, roʻzgʻor tebratishda davom etadi. El orasida bunday ayol zotini “shumqadam” deya kamsitishdek gʻayriinsoniy udum bor. “Dard ustiga chipqon” deganlariday bu hol ham qizni alamli oʻylarga toldiradi... Taqdiri azal karomati, himmatini qarangki, tanidagi mislsiz iroda – bardosh uchun Malika yaratganning cheksiz marhamatiga – Abror ismli alomat yigitning sevgisiga musharraf boʻladi. Kecha ketidan kunduz, yovuzlik ortidan ezgulik kelganiday, ayni oʻsha yaratganning Benazir tuhfasi, ezgulik farishtasi Abror tufayli Malika uchun baxtsizliklar vaqt shamolining qanotida uzoqlarga gʻoyib boʻladi...

Yuqorida tilga olingan ikki asardan koʻnglimiz toʻlmagan jihatlarni “Yozsiz yil” hikoyasidan topamiz. Bu asarda muallif oʻta chigal vaziyatga tushib qolgan odamlar qismati ifodasida ruhiy-psixologik tahlil yoʻlidan borib oʻzining zamonaviy-badiiy tasvir va talqin mahoratini namoyon eta olgan.

Jahon adabiyotida hamisha ona-Vatan kabi bosh harf bilanyozilishga loyiq tabarruk Ona zotining mushkul damlarda tuqqan farzandiga beqiyos mehr-muruvvati xususida koʻp va xoʻb yozilgan. Milliy nasrimizda ham oʻshalar qatorida turishga loyiq asarlar bor. Ustoz Said Ahmad qalamiga mansub “Ufq” romanidagi Onaxonning gunohkor – qochoq oʻgʻliga nisbatan armon, alam-oʻkinch bilan yoʻgʻrilgan parvonligi ifodasi adabiyotimizda jiddiy hodisa boʻlgan edi. Zulfiya esa shu yoʻnalishda butunlay oʻzgacha Ona timsolini yaratishga erishgan.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, hikoyaning syujet qurilishi puxta ishlangan, voqealar tadriji personajlar ruhiy evrilishlari tahlili bilan uygʻunlikda mohirona ifodalangan. Goh quvonch-taskin, tengsiz umid, goh dard xuruji, azob-uqubat, tahqir-u nadomat, goh yilt etgan surur, xayoldagialdamchi farogʻat,

aslida esa adog`i yo`q musibatlar bilan o`tgan ikki bandayi ojiz – ona va o`g`lon ko`rgiliklari – butun boshli bir romanga tatigulik beorom daqiqalar, kunlar, oylar, yillar silsilasi birgina hikoya bag`ridan munosib joy olgan. Hikoyada tig`iz vaziyatlar bot-bot takrorlanadi va har gal muallif Benazir zot – Ona tanida mujassam beqiyos mehriyoning yangi-yangi qirralarini kashf etishga erishadi.

Asar bilan tanish o`quvchi biladi: Sobir avtohalokat tufayli nogiron bo`lib qolgan, eng yomoni, u erkakligidan mahrum bo`lgan. Bu mudhish falokatning azob, iztirobi o`g`lidan ko`ra ham onaxon – Buvgul xola tani jonini qovuradi. Hikoya davomida xola vujudini yondirgan otash, xasta o`g`il ko`ngli, oromi deb chekkan zahmatlari alangasi taftini o`quvchi har doim sezib, his etib turadi. Hayotning turfa nag`masini qarangki, Sobir shu holda qishloqning tengi yo`q suluv qizi Marvaridga ko`ngil bergan, qiz ham, o`z navbatida, yigitga oshiq-u shaydo. Ularning Layli-yu Majnun sevgi dostonini eslatadigan ishqiy muloqotlari har qanday tama, hirs va nafs mayllaridan xoli, ikki farishta oshiq-u ma`shuqaning sof qalb talpinishlaridan iborat. Ayni shu jihati bilan asar bugungi zamonaviy adabiyotda urf bo`lgan ishqiy kechinmalar talqinidan butunlay farq qiladi. Ikki yosh orasida yashiradigan hech qanaqa sir yo`q. Har ikki tomon ham oradagi mudhish ko`rgilikdan voqif. Ammo bu hol ularning ko`ngil mayllariga also to`siq bo`lolmaydi. Ular bir umrga birga bo`lishga qat`iy ahd qilganlar. Visol damlarida Sobir dardini butunlay unutadi, yayrab-yashnab ketadi. Qiz ra`yi, istagiga ko`ra, Onasini qiznikiga sovchilikka borishga undaydi...

Halokat, xastalik, nogironlik asoratlaridan ham ko`ra mushkulroq dramalar ana shu daqiqalardan boshlanadi. Yigit tomonda johil, qalban so`qir aka, qiz tomonda esa bag`ritosh ota ikki oshiq – yoshlar mayliga tish- tirnog`i bilan qarshi turadilar. Faqat Onaizorgina o`g`lon bilan qiz qalbining, qiyosi yo`q chin muhabbatining yagona himoyachisiga aylanadi. Bilasiz, qishloq muhitida gap yotmaydi. Shaxsiy-oilaviy intim sir darhol oshkor bo`ladi, har xil g`iybat, past-baland gap-so`zlar o`rmaydi. Bu hol katta o`g`il bilan qiz otasi xurujini alanga oldiradi. Ana shunday tig`iz damlarda katta o`g`il dag`dag`alariga, qiz otasi yog`dirgan malomat toshlari, odamlarning ta`na-dashnomlariga, tahqir-u

nadomatlariga, qo`yingki, jamiki balo-qazolarga shu mushtipar Onaxongina mardona qarshi turib beradi. Xasta, ammo chin oshiq o`g`lon ko`ngil mayli uchun har daqiqa jonini, jahonini berishga tayyor.

Nachora, johillar qo`li baland keladi, Marvaridni yaqin qarindoshi o`g`liga zo`rlab uzatadilar, u qaytib keladi, so`ng uni oyoq yetmas tog` qishlog`i odamiga unashtiradilar. Oshiq yigit jim turolmaydi, xastaligiga qaramay qish chillasida uning izidan boradi, ma`shuqasining albatta qaytib kelish va`dasini olib, bir dunyo quvonch, yorqin umid bilan qaytadi... Endi ham o`g`lon, ham Ona ko`ksida umidsizlik bir dam chekinib, yashash ishtiyoqi jo`sh uradi.

Afsus, bu quvonchli daqiqalar uzoqqa bormaydi, va`da ushalmay qoladi.

Biz yuqorida o`quvchini tanishtirish uchun keltirgan voqealar tafsiloti shunchaki quruq hikoya qilinmaydi, balki ruhiy-psixologik holatlar tahlili jo`rligida kitobxonni larzaga soladigan tarzda beriladi, hikoyani o`qiy turib, ruhiy iztiroblar og`ushida xayolga tolasan kishi: hayotda mo`jizalar ham ro`y berishi mumkin-ku! Ehtimol, bedavo darddan ham xafliroq odamlar – johil, qahri qattiq kimsalar qarshilik qilmaganida, bu ikki yosh qovushganida Sobir butunlay sog`ayib, to`kis turmushga qaytishi ham mumkin edi-ku! Axir hayotda shu holda ham totuv yashab o`tgan juftliklar bo`lgan. Bundan keying hijron ifodasi, kundan-kun tanni yemirib borayotgan xastalik azoblarini o`g`il va Ona bab-baravar tortadi, ikki vujud bir jon – bir tan bo`lib yonadi. Hijron alamlari xuddi mumtoz g`azaliyotimizdagi poyonsiz fig`onlar kabi avj pardalarda aks-sado beradi.

Galdagi lavha bundan-da hayajonli Marvarid yangi yil arafasida kelishga va`da qilgan edi. Xasta Sobir ma`shuqasini intizorlik bilan kutayotir, ammo undan darak yo`q. O`sha topdagi Ona bilan bolaning mohir rassom gavdalantirgandek unsiz dramatik holatlari tasviri ko`ngillarni zir titratadi. Aniq ko`rib, his etib turasiz: derazadan ko`chaga intizor tikilib turgan Sobirning bir mahal yelkalari silkina boshlaydi, Buvgul xola, ko`ngli vayron holda, o`g`liga tomon talpinadi. Shu payt birdan Sobir Ona tomon o`giriladi. Dunyoning butun dard-alami ko`zlarida jam... Uning qonsiz yuzida yirik-yirik tomchilar

dumalaydi. Endi Sobirga hammasi ayon, o`zining uzoq yashamasligini ham, marvaridning kelmasligini, keltirmasligini ham biladi, biladi-yu, onasidan yashiradi, xuddi onasi undan yashirganday... Mashhur “Asror bobo”dagi chol bilan kampirning mudhish sirdan voqif holda, bir-birini asrash niyatida bir-biridan sir saqlash holatini – ko`ngillarni zir titratadigan vaziyatni eslatadigan, ammo taqliddan butunlay xoli noyob badiiy lavha!

O`sha mudhish damlarda Ona vujudini kemirayotgan iztirobni bildirmaslikka harchand urinmasin, o`zini tutolmaydi, bari bir onaligiga borib, o`g`li boshini ko`ksiga bosadi. “Qaynoq ko`z yoshlar endi uning ko`ksini kuydirib, yuragiga tomchilar va undan qon bo`lib, tomirlariga sizib oqardi” deb yozadi hikoyanavis. Bu jummalarni qalamga tushirish chog`i muallifning qo`li titrab turganligini baralla his etasiz.

Bunday tig`iz san`atkorona chizilgan lavhalarni sharhlash qiyin, har qanday sharh uning asl jozibasini, sehrli ruhini tushirib yuborishi mumkin. Eng muhimi, hikoyanavis personajlarni ana shunday mushkul vaziyatlardan eson-omon olib o`ta biladi. Bu endi chin san`at mo`jizasi.

Qarangki, oshiq yigitning hayot shami o`chay deb turganida ham, hayotga ishtiyoqi, visolga umidi butunlay so`nmaydi. Ajab, endi mavjud hayotda amalga oshmagan visol hayot-mamot yuzma-yuz kelgan damlarda, kechinmalar jazavasi avjida xayolda, tasavvurda sodir bo`ladi. Mashrab qismatini yodga tushiruvchi oshiq yigit taqdirida mo`jiza ro`y beradi, go`yo Mashrab yanglig` arshning kungurasida yor visoliga erishadi. O`sha visol chog`i Marvarid Sobirga qarata asl muddaosini oshkor etadi; faqat uning yuraginigina sevishini, boshqasi also qiziqirtirmasligini dangal aytadi. “Boshqa hech bir ayol bunday demagan bo`lardi. Shuning uchun ham uni telbalarcha sevib qoldim-da” deya onajoniga so`nggi dil rozini izhor etadi. Visol bazmi chog`i Onaizor “Baxtli bo`linglar, iloyim... Qo`sha qarib yuringlar... iloyim” deya duo qiladi. Shu so`zlarni aytayotganida “Buvgul xola o`kirib yuborishdan bazo`r o`zini tiydi” deb yozadi muallif. Shu lavhani o`qiyotib, o`quvchi ham ayni Ona holiga tushadi.

Tasvir yana zaminga, mavjud hayotga qaytadi. Katta o`g`il, hissiz nodon kimsalar go`yo Onaizorni avaylash maqsadida uni kuni bitgan o`g`ildan ajratishga urinadilar, bu niyat o`tmagach, o`jar kampirni “iymonsiz”ga chiqaradilar. Shunda u “Mening iymonim – bolam!” deya hayqiradi. Nihoyat, o`g`il jon taslim qiladi, onaizorning ustunga suyanganicha “Men yomon qoldim, sen yaxshi bor, bolam” degan so`zlarni duoday ojizona takrorlab turganini ko`rib, yurak-bag`ringiz ezilib ketadi. So`ng bundan-da zalvorliroq holatga duch kelamiz. Pirovardida, onaizor birdan osmonga tikilib: “Odamni ermak uchun yaratib, uni eplay olmay qolganingdan keyin o`limni o`ylab topdingmi?” deya savdoyilarcha shivirlaydi.

Bunday isyonkorona shivirlash also taqdiri azal hukmiga nisbatan shakkoklik emas, balki Ona qalbidagi farzandiga bo`lgan ilohiy mehrning so`nggi – yakuniy tasdig`i kabi yangraydi.

Milliy adabiyotimizda paydo bo`lgan bu noyob yangilik – muazzam, mungli mehr-muhabbat qo`shig`i shu tarzda intihosiga yetadi, oxir-oqibat hikoya Ona sha`niga bitilgan qasida kabi yangraydi.

Ma`lum bo`lyaptiki, Zulfiyaning bir vaqtlar tanqidchilikda mensimay qaraladigan, uncha xush ko`rilmaydigan ijtimoiylikdan xoli sof “ko`ngil mayllari nag`malari” talqini adabiy tajribalari yo`lidan borib yaratgan qator hikoyalari, ayniqsa, “Yozsiz yil” o`zining badiiy-ma`naviy ta`sir kuchi jihatidan sof ijtimoiy yo`nalishdagi yetuk asarlardan aslo qolishmaydi”²⁶.

Darhaqiqat, adabiyotshunos to`g`ri ta`kidlaganidek, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida har bir personaj ma`lum bir yukni ko`tarib, ma`lum bir vazifa bajaradi. U ortiqcha detal yoki ortiqcha personajlarga yo`l qo`ymaydi. Har bir obraz o`zining estetik qiymatiga ham ega. Hikoyalarini o`qir ekansiz, Zulfiya Qurolboy qizining mohir ruhshunos ekanligini ham tan olmaslikning iloji yo`q. U voqealarni shunday tasvirlaydiki, ortiqcha so`z, ortiqcha harakatga yo`l qoldirmaydi. Shu jihatlari bilan ham u yaratgan hikoyalar bugungi kunda o`z o`quvchilarini topmoqda.

²⁶www.ziyouz.com

Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining "Kichik janrdagi katta yutuqlar" maqolasida Zulfiya Qurolboy qizi asarlari xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: "2001-yil yaratilgan hikoyalarga xos asosiy xususiyat shundaki, kichik janrda uloqni Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Mehriniso Qurbonova, Nargiza G'ulomova singari qizlar olib ketishdi. 2001-yilning eng esda qoladigan hikoyalari Salomat Vafoning "Unutilgan ayol", Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol", "O, hayot" hikoyalari bo'ldi. "O, hayot"da odam yangi holatlarda aks ettirilgan. Shu paytgacha qadar o'zbek adabiyotida bunday rakursda ko'rsatilmagandi. Yoshi yuzdan ancha oshib ketgan, nechaga kirganligi o'zining ham esidan chiqib ketgan, qulog'i eshitishdan, ko'zi ko'rishdan, oyog'i yurishdan, qo'li qimirlashdan qolgan, barcha farzandlari, nabiralari, ayrim evaralari ham o'lib ketgan keksa odam yashamoqda va yashayotganidan xursand. Uning yana ozgina yashashga intilishi, o'limdan qo'rqishini bunday ishonarli, miqyosli berish har qanday yozuvchining ham qo'lidan kelavermaydi. Zulfiya o'ziga xos tabiatli odamning o'ziga xos azobli hayotini aks ettira turib, tiriklikning boshqalarga tushunarsiz bo'lgan totli tuyuluvchi jihatlarini mahorat bilan tasvirlagan. Ayni vaqtda, chekka hujrada bir burda bo'lib yotgan cholning o'zlariga kim ekanini bilmaydigan avlod va atrofida g'imirlab yurganlarning birontasini tanimaydigan qariya munosabatlaridagi dahshatli fojia tasviri adibaning inson tuyg'ularini nozik idrok etish salohiyatidan dalolat. Bu odamni hayotga nima bunchalik bog'lab turganligi noma'lum. Ana shu noma'lum kuchni tasvirlash, noma'lum bog'liqlik jarayonini kechirayotgan odamni ma'lum chizgilarda ifodalay bilish yozuvchi mahoratini ko'rsatadi. Hikoyada hayotga hayvoniy ilinj, jismi yashashdan charchagan bo'lsa-da, ruhi mutlaqo toliqmagan kishining izohlash mushkul holati juda ta'sirli aks ettirilgan"²⁷.

Zulfiya Qurolboy qizining "O, hayot" hikoyasi Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" asarini yodga soladi. To'g'ri, bu asarda bir betob ayolning hayotga bo'lgan chanqoqligi, hayotning har bir lahzasidan bahramand bo'lishga harakat qilishi tasvir etiladi. Shu sabab ayol qanchalik og'ir betob bo'lmasin, u

²⁷Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. -Т.: Янги аср авлоди. 2006. 130-131 бетлар.

hayotga tashnaligi uchun ham o'z dardidan voqif bo'ladi. Biroq, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyasida tasvirlangan qariya bu kabi og'ir dardga chalinmagan va u o'z yaqinlari bilan vidolashish asnosida hayotga bo'lgan chirmashishi orta boradi.

Taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad esa Zulfiya Qurolboy qizi asarlariga e'tibor qaratar ekan quyidagi xulosaga keladi: "O'zbek adibalari orasida keyingi paytlarda eng ko'p tilga olinadiganlar, asosan, Salomat Vafo va Zulfiya Qurolboy qizi bo'lib qolishdi. Agar Zulfiya Qurolboy qizi eng yaxshi ayol adibalardan biri sifatida tilga olinayotgan bo'lsa, Salomat Vafo ijodi borasida aytilayotgan gaplarning biri biridan osmon bilan yercha farqi bor".

Zamonaviy o'zbek hikoyalarini tadqiq etib kelayotgan adabiyotshunos olim va mohir tarjimon Saodat Komilova fikricha ayolga xos tafakkur olinadigan bo'lsa, bu borada Shahodat Isaxonova, Dilbar Saidova, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi ijodi ajralib turadi.

Olima zamonaviy ayol nasrining eng yorqin vakillari sifatida Salomat Vafo va Zulfiya Qurolboy qizining nomini tilga oladi. Saodat Komilova bu ikki ijodkorni o'zbek hikoyachiligi rivojida yangi bosqichni o'z asarlari bilan boyitishganini ta'kidlaydi.

Saodat Komilovanning "Ko'ngil mayllari nag'malari" maqolasida "Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol", "Ko'lanka" hikoyalarida hayotiy ashyoni kuchli did, sezgi bilan tanlab oladi. U ataylab biron-bir muallif bahosi berish, joiz bo'lsa, hukm chiqarishdan o'zini tiyadi. Adiba o'quvchini hayot oqimiga tashlab qo'yadi. Lekin bu oqim muallifning estetik g'oyasi, matlabi bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Natijada o'quvchi hayotni "muallif aralashuvi"siz, boricha qabul qiladi. Adibaning mahorati bois o'quvchi uning qahramonlari kulfatlari, fojialaridan, azoblaridan qiynaladi, birga mashaqqat chekadi" kabi fikrlar e'tiborlidir.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodini tadqiq etgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov esa adiba ijodi haqida fikr yuritir ekan, jumladan, shunday yozadi:

"Men shoirlarimizning adabiyotimizdagi o'rni qanday mavqe'da ekanini juda yaxshi bilaman. Qolaversa, bu haqda oldin ham o'z fikrimni

yozganman. Xususan, Zebo Mirzoning “Ishq” kitobiga yozgan soʻzboshimda shunday jumla bitgan edim: “Bugungi oʻzbek sheʼriyatida shoirlarning alohida oʻrni yanada ochiqroq aytadigan boʻlsam, “erkaklar” sheʼriyati bilan tenglashgan darajadagi mavqeʼi bor”. Bu fikringa bitta jumla qoʻshaman: Nafaqat sheʼriyatda. Adabiyotimizdagi bu mavqeʼ aynan Halima Ahmedova, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa nomlari adabiyot ahliga va ixlosmandlariga yaxshi tanish shoira-yu adibalarimiz ijodi bilan bogʻliq. Ularning bu mavqeʼni men tugul, ming bir boshli tanqidchi mavjud boʻlgandayam, rad etishdan ojiz”.

Adabiyotshunos A.Eshqobilovning Zulfiya Qurolboy qiziga bitilgan “Hikoyangizni oʻqib” nomli ochiq xati ham eʼtiborga molik. Unda munaqqid quyidagicha fikr-mulohaza yuritadi: “Sizning “Ayol” hikoyangiz neoromantizm usulida yaratilgan. Ehtimol, kimdir bu fikrga qoʻshilmas, biroq asardachindan realizmdan koʻra koʻproq romantizm ruhi ustunlik qiladi. Zero, bosh qahramonning hayotda shunday boʻlishi mumkinligi ehtimoldan koʻra, muallif uni shu taxlit harakat qilishini koʻproq xohlaydi. Bu esa romantizmning birinchi alomatidir. Aynan muallifning tasvirlanayotgan voqelikka boʻlgan munosabati uning badiiy metodini aniqlashda asosiy kalitdir... Ogʻir xasta, umrining soʻnggi kunlari, soatlarini yashayotgan Nazokat bu hayotni AYOL sifatida tark etishni istaydi, yaʼni u umriningsoʻnggi damlarida, oʻta “xunuklashgan” onlarda, dastlab, hamshiradan eriShavkatni oldiga kirgizmaslikni soʻraydi, keyin soʻnggi pullarini unga tutqazib bunga erishadi ham, oxirida esa, vrachdan oyoqlari va butun aʼzoi badanini shishirib kelayotgan suyuqlikni olib tashlashni iltimos qiladi. Yoshi ulugʻ, hayotda koʻp narsa koʻrgan va anglab ulgurgan vrach bemorning holatini yaxshi bilib, koʻrib turadi va shu sababli unga “bu muolajalar qilinganligini, endigisi faqat juda qattiq ogʻriq berishi” mumkinligini aytadi. Bu bilan vrach oʻlim ostonasida turgan inson joniga ortiqcha ozor berishini istamaydi. Lekin Ayol umrining soʻnggi soatlarini oʻz hayotiy falsafasiga monand yashaydi, qanday boʻlmasin oxirgi nafasigacha oʻz qiyofasi, tashqi surati goʻzalligini saqlab qolishni xohlaydi va bunga erishadi. Tanlangan

mavzuga bunday qiziqarli tus berilishi asarningbadiiy-estetik qiymatini belgilaydi. Ayol-Nazokat qanday yo`l bilan maqsadga erishadi!? Aynan shu badiiy “yo`l” – syujetdinamikasi, diqqatimizni tortdi va muallifning katta talant sohibi ekanligiga e`tiborimizni qaratdi”. Zero, asar mavzusi yangiligi va unda mahorat bilan qo`llangan detallar, motivlar bir talay, o`zgacha; ifoda uslubidan yuksak nozikta`b did va badiiy-estetik layoqat ufurib turadi.

Hikoya mavzusi bir qarashda ayol yoki ayollik latofati deb talqin etilishi mumkin, biroq matnni bir necha marta e`tibor bilan mutolaa qilinsa mavzusi anchayin kengroq ekanligi, u shunchaki o`lim genderligining badiiy talqini bo`libgina qolmay, balki keng ma`noda hayot va o`lim mavzusidagi asar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa asarning poetik qamrovi kengligidan, matn semantik maydonini hosil qiliuvchi, quvvatlantiruvchi unsurlari anchagina va asosli ekanligidan dalolat beradi.

“Ayol” hikoyasining kompozitsiyasida ikki motiv muhim badiiy-estetik va funksional-kompozitsion vazifa bajaradi; bular, birinchisi, quyosh motivi bo`lsa, ikkinchisi uzuk motividir. Hikoya ekspozitsiyasi “Derazalari oppoq xona. Deraza oynasidan to`kilayotgan nur ayolning yuzida jilva qiladi, va... barmoqlaridagi uzukning olmos ko`zchalarida aks etdi kabi jumalardan boshlanib, uning hayotida hali intiho emasligini, hali ayol ko`zlarini yumib, quyosh nurlarini simirishi” va “Seni qanchalik yaxshi ko`raman, quyosh!..” deya olishi kabi holatlarni kuzatamiz. Quyosh esa go`yo bunga javoban “nurlarini mo`l-ko`l to`kdi. Ayol oftob nurlariga butkul g`arq bo`ldi...”

Bu yerda muallif so`zni asar mavzusi va badiiy mantig`iga mos ravishda mahorat bilan ishlatadi. Zero, ayolning hokisorligi, beminnatligi-yu betamaligini quyoshdan o`zga nimaga ham mengzash mumkin. Quyosh nuri poklik, yorug`lik timsolidir. Zulfiya Qurolboy qizi esa shu timsol va uning in`ikosi o`rtasidagi uzviylikni tasvirlashni maqsad qilgan nazarimizda.“deraza oynasidan to`kilayotgan oppoq nur uzukning olmos ko`zchalarida aks etdi. Ayol ko`zlarini ochdi. Sho`la endi uning qorachiqalarida akslandi.” Aytilgandek, ushbu tasvirdan boshlangan asar tezisi aynan final-yechimda uning antitezasi bilan yakun topadi.

Biroq yechim to'g'risida fikr yuritishdan oldin asar matnining energetik maydonini kengaytirib yuborgan syujet dinamikasidagi quyosh motivining qo'llanilishida mahoratini kuzatish mumkin. Chunki ekspozitsiyada keltirilgan oftob badiiy qahramonning Ayolligida, ya'ni uning mohiyatan ulug'vorligidan darak beruvchi qiyos, timsol sifatida tasvirlansa, adabiyotning mumtoz nazariyasiga muvofiq matnning keying tadrijida qiyosh-tabiat qahramonning holatiga, tabiatiga uyg'un holatda tus oladi, o'zgarib turadi va oxir oqibatda xarakter ochilishiga va g'oya ifodasiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, ayol hikoyasining kompozitsiyasida rang-koloristikasi alohida o'rin egallaydi. Koloristikaning badiiy-funksional roli badiiy matn poetikasida bo'rtib turibdi. Ranglar, asosan, oq, oqning turli darajadagi ko'rinishlari va qora ranglardan iborat²⁸.

Shunday qarashlardan yana biri "Haqiqiy yozuvchida yaratish ishtiyoqi so'nmaydi" maqolasi bo'lib, unda yozuvchi Sobir O'nar hamda adabiyotshunos olimi Gulnoz Sattorovanning suhbat berilgan. Ushbu suhbatda quyidagi fikrlar bayon etiladi: "XX asrning boshlarida yuzaga kelgan o'zbek hikoyachiligining rivojlanishida ijtimoiy voqelik, jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar muhim ahamiyatga egaligi shubhasiz. Adabiyotning bosh maqsadi insonni tahlil etish ekan, bu o'zgarishlar uning hayotiga, ong-u shuuriga qanday ta'sir etayotganini o'zida aks ettiradi.

Asrning dastlabki yillarida yuzaga kelgan hikoyachilik janrida+ hayot haqiqatlari ro'y-rost aks ettirilib, realistik tasvir ustuvorlik qilgan bo'lsa, jamiyat taraqqiy etgani sayin adabiyotda ham voqea-hodisalarni o'zgacha shakl, usullarda tasvirlash yuzaga kela boshladi.

Endi sodda va ravon tilda ifoda etilgan badiiy voqelik o'z ta'sirini biroz yo'qotdi. Ana shu o'zgachalikni adabiyotshunoslarimiz turlicha talqin qila boshladilar. Kimdir bu holatni ijoddagi yangilanish desa, yana kimdir G'arb adabiyotiga taqlid deb baholadi.

²⁸Eshqobilov A. Hikoyangizni o'qib// "Yoshlik" jurnali, 2014-yil, 11-son.

— Sobir aka, keyingi paytda adabiyotshunosligimizda yangicha istiloh — “modernizm” anchagina kuchaydi. Siz bu jarayonga qanday baho berasiz?

— Qodiriy o‘zbek romanchiligiga asos solganida dunyoda atigi beshta romanchilik maktabi mavjud edi. Jahon adabiyotining oltinchi maktabini yarataman deb yeng shimargan adibning jasoratini ko‘z oldimizga keltirish mumkin.

Shuni ham unutmaslik kerakki, Qodiriyga qadar romanchiliklar Volter Skott davrlarini ham qo‘shib hisoblaganda besh yuz yildan ortiq tarixga ega, Yevropa nasri tamom ilg‘orlashib ketgan edi. Servantes, J.Svift nasri hozirgacha diqqat bilan o‘qiladi, mumtoz adabiyot namunalari sifatida e’tirof etiladi. XX asrga kelib esa ingliz, fransuz, asosan, nemis adabiyotida shakliy tajribalar qo‘llash, an’anaviylik, reallikdan chekinish holatlari ro‘y bera boshlagan, fransuzlar, ayniqsa, naturalizmdan butunlay bezor bo‘lgan edi.

Sirasini aytganda, modern adabiyot ham katta ehtiyoj mahsulidir. Bolaga chaqaloqligida alla, so‘ngroq ertak, dostonlar ta’sir qilgani kabi aqli to‘lishganda o‘ta jiddiy asarlar o‘qish zarurati tug‘iladi. Shuning uchun ham Abdulla Qodiriy G‘arb, Sharq adabiyotlarining barcha “yozish yo‘sin”larini o‘zlashtirishni o‘ziga burch deb biladi. Ayni zamonda tarixning “o‘ta chirkin” zamonidan so‘z ochib, bugunning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Chor darvesh”lari yanglig‘ asar bitmoqqa o‘zida ulkan jasorat topadi.

Demak, adabiyot, shu jumladan, nasr paydo bo‘lgandan buyon uning shaklini o‘zgartirishga ishtiyoq kuchli bo‘lgan. Og‘zaki adabiyot o‘zgarmay qolishi mumkindir, sababi u og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuradi. Shuning uchun tushunarlik talab etiladi. Ammo yozma adabiyotni shaxslar yaratadi. O‘z-o‘zidan xoh u nasriy, xoh she’riy bo‘lsin, muallifning ko‘ngli, fikri yoxud voqea-hodisalarning shoir yoki nosirga moslashib qolishi tabiiydir. Shu ma’noda “sodda va ravon tilda ifoda etilgan badiiy voqelik” muqim bir tamoyil kasb etmasligi tayin edi. Avvalo men bu holatni zarurat deb tushunaman. Yangilanish oson emas, XX asr boshlarida Mayakovskiy kabi yirik shoir ham zinapoya

usulidagi she'rlari bilan novatorlik ko'rsatgani uchun qattiq tanqidga uchragan, adabiyotshunoslarning qizg'in bahs-munozaralariga sabab bo'lgan edi.

XX asrning 80-yillariga kelib adabiyotimizda an'anaviylikdan biroz chetlanish, boshqacha ohang, shakl va ifoda usullari paydo bo'ldi. Tabiiyki, buni an'anaviylikka moslashgan adabiy jamoatchilik tezda hazm qilolmadi. Bu jarayon she'riyatga taalluqli edi. Ammo "modern" degan so'z ishlatilmasdi, chunki u o'sha she'rning o'zi kabi iste'molga kirib ulgurmagan edi. Biroq, yosh ijodkorlar bu shaklni tezda qabul qilib, shijoat bilan yoqlay boshladilar. Negadir asli G'arb adabiyoti ta'sirida kirib kelgan bu she'rlarning asl manbaiga emas, o'zbekcha ko'rinishlariga taqlid qiluvchilar ko'payib ketdi. Matbuotda mutlaqo fikrsiz, so'zlarning ayqash-uyqash shamoyillaridan iborat tizmalar ham paydo bo'ldi. Ularga qancha ko'p e'tiroz bildirilsa, shunaqa she'rlar aksiga olib ko'payaverar edi. Biroq, o'sha shoirlar asli qalbi buyurmagan shaklga ruju qo'yayotganlarini keyinroq o'zlari ham anglab qolishdi. Ko'p o'tmay boyagi modernchi shoirlar modernchi bo'lmay qoldilar...

Nasrda esa bu jarayon kechikib namoyon bo'ldi. Omon Muxtorning keyingi romanlari, Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman", Nazar Eshonqulning bir necha hikoyalari, xususan, "Bahouddinning iti" hikoyasi boshqa unsurlar borligi bilan farq qiladi. Holbuki, Frans Kafkaning asarida "odam o'rgimchakka aylangani"ga qariyb sakson yil bo'ldi. Bizning ertaklarimizda malika qurbaqaga, toshga, kiyikka aylanib qolsa hayron bo'lmaymiz biroq, jiddiy prozada bunga duch kelsak, rosa ensamiz qotadi.

— Bugun dunyoda yuz berayotgan globallashuv kitobxon badiiy tafakkurida ham o'zgarishlar yasamoqda. Xuddi ana shu jarayon sababli o'zbek hikoyanavislari G'arb adabiyotidan ta'sirlanib, unga xos bo'lgan tasvir va ifoda usullarini turli ko'rinishlar bilan adabiyotga olib kirdilar. Sizningcha, bu adabiy ta'sir adabiyotimizning milliy xususiyatlariga putur yetkazmaydimi yoki...

— Adabiyotchilar "ong oqimi", "ong osti oqimi" ("podsoznanie"), ong tahlili haqida ko'p gapirishadi. Men bu gaplarga uncha tushunmayman. Ammo

Markes, Folkner, Kafka asarlarini o'qiganda uncha hayron qolmayman. Yozuvchining ruhiyatiga tushib olsam hech narsa g'ayritabiiy tuyulmaydi...

“Veshi nazivat svoimi imenami” degan kitobda Markesning uchta suhbatini o'qigan edim. Bir suhbatida yozuvchi “Tanholikning yuz yili” romanining birinchi satrini 19 yoshida yozib qo'ygani, vaqt-soati kelib roman miyasida obdon pishib yetilgach, uni bor-yo'g'i ikki kunda o'tirib yozib tashlaganini bayon etgan. Men bu asar tez yozilganiga shubha qilmayman, lekin asar hajmidan kelib chiqqanda hatto uni ikki kunda o'qib chiqish ham oson ish emas.

Boz ustiga romanning shakli, ruhi, qorishiq voqealar, tirik yoki o'zi yo'q bo'lsa-da, muallifning tafakkuriga bo'ysunib harakatlanuvchi o'nlab obrazlar, kutilgan va kutilmagan fojialar uning ikki kundan ko'proq muddatda yozilganini bildiradi. Sirasini aytganda, men Markesdek yozuvchining ruhiyatiga qoyil qolaman. Uning ruhi shu qadar kuchliki, yozuvchini xuddi buldozerda surgandek oppa-oson o'z maromiga solib yetaklab ketaveradi. E, shoshma, og'ayni, undoq emas, bundoq-ku, deyishga botinolmaysiz ham. Boshqa romanlari ham xuddi shunday, hatto odamni nafas rostlashga qo'ymaydi.

Markes o'zini ispan adabiyoti vakili hisoblagani holda bizning birinchi asarimiz Servantesning “Don Kixot” romanidir deb hisoblaydi. Bizning ham boy og'zaki adabiyot namunalарimiz mavjud.

Qaysidir ma'noda kimningdir yozgani aynan Kafkaning, Markes, Borxes yoki biz o'qimagan birovning asariga o'xshashi mumkin. Navoiy manzumalarida ham taqlidchilik kalaka qilingan. Ammo bizda hozir buning xavotirlanadigan joyi bormikan — gap shunda. Umuman, o'zbek adabiyotida men bu xavfni sezayotganim yo'q... Men adabiyotda, xususan, nasrda xilma-xillik tarafdoriman. Bir xillik adabiyotning jilovini orqaga tortib turaveradi.

— Bugun biror davrada adabiyot haqida gap ochilsa, kitobxonlar yaxshi asar yo'qligidan nolishadi. Ammo keyingi paytda taniqli adibu shoirlarimizning qator kitoblari chop etilmoqda. Bunday ahvolni kitobxon saviyasining o'ta balandligi deb tushunish mumkinmi yoki...

— Hech bir xalqning adabiyoti to‘xtab qolishi mumkin emas. Lekin gap o‘sha asarning saviyasida. Chingiz Aytmatov bir vaqtlar “shunday bir hikoya o‘qisangki, kechasi bilan yig‘lab chiqsang” deb yozgandi. Shunday hikoya sog‘inchi menda ham bor. Xususiy gazetalarda kunaro o‘nlab hikoyalar bosiladi. Turgan-bitgani o‘lim, fojia, ayriliq, musibat. Lekin bir musibatni Chexovning “Vanka”siday ta’sirchan badiiy asarga aylantirish naqadar mushkul ish. Ehtimol yozuvchiman degan odam 80-90 yoshgacha ham shuni yozolmay dunyodan o‘tib ketishi mumkin. Biroq Chexov (vrach, ishi boshidan oshib yotibdi, fe’li shunaqaki, hammaga yaxshilik qilgisi keladi, barchani uyiga mehmonga taklif qiladi, maktab, kutubxona, kasalxona quradi, goh-gohidagina yozishga o‘tiradi) aksariyat hollarda bir o‘tirishda yozgan, qayta ishlab o‘tirmagan, bunga vaqti ham bo‘lmagan. Demak, ijodkorda mehnatdan tashqari Xudo yuqtirgan yuksak iste’dod ham kerak.

Bir vaqtlar matbuotning turi sanoqli edi. Adabiy nashrda asari yoki ikkita she’ri chiqqan odam tanilib ketishi mumkin edi. Ta’sirchanroq bir hikoya yozsang, nomingga o‘nlab xatlar kelardi. O‘zing yozgan narsa haqida uzoq o‘ylashga, demak, mas’uliyatli bo‘lishga majbur eding. Hozir ahvol umuman boshqacha. Buning uchun o‘quvchini ayblab o‘tirish shart emas. Avval ham asl o‘quvchi asarning -sarasini topib o‘qirdi, hozir ham shunday. Masalan, bozordan gazeta sotib olib o‘qiyotganlar esa o‘sha gazetaning bir oy avvalgi sonidagi hikoyaning nomini ham eslayolmaydi. U vaqt o‘tkazish, biroz bo‘lsa-da ovunish uchungina o‘qiydi. Lekin unga nega bunday qilayapsan, deb bo‘lmaydi. U erkin va saviyasi ham o‘sha gazetaga juda mos. Shunday “gigant” yozuvchilar borki, bir yilda besh-olti “roman” yozib tashlayapti. Kitoblari qo‘lma-qo‘l o‘qilayapti. Biroq adabiy jamoatchilik uning nomini ham eslamaydi. Jiddiy yozuvchi to‘g‘rirog‘i, so‘z qadrini yuqori biladigan, yozgan asarlari haqiqiy adabiyot desak bo‘ladiganlar esa hamon jiddiy asarlar yozish bilan mashg‘ul. Masalan, Erkin A’zam, Xayriddin Sultonov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo‘taev, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldosh, Ulug‘bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi, Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton va boshqa yozuvchilar ijod

qilishayapti. Ularning asarlari manaman degan chet ellik yozuvchilikidan kam emas. Odamzotning qismati, ertasi, kelajagi nima bo'lishini o'ylab qayg'urayotgan, qalbi o'rtanib, azob chekib yozayotgan adib bilan bugun kichkinagina bir fojiaiy hangomani yozib ertasi kuni gazetada chiqarib, chapak chalib yurgan qalamkashning farqi bor-da, albatta.

— Katta adabiyot kuchli tanqidchilikning shakllanishiga ta'sir o'tkazadimi yoki kuchli tanqidchilik katta adabiyotning yuzaga kelishiga asos bo'ladimi?

— Adabiyotning ravnaqida adabiyotshunoslik, ayniqsa, tanqidchilikning rolini inkor etib bo'lmaydi. Qizig'i shundaki, bular ko'pincha baravar, deyarli bir xil sur'atda harakat qiladi. XIX asr rus adabiyotida daho shoiru yozuvchilar qatori Dobrolyubov, Belinskiy, Gertsen, Chernishevskiy kabi adabiy tanqidchilar yetishib chiqqan. XX asrda ham adabiyotga qarab tanqidchilik kuchaygan.

Hozirgi kunda chindan ham, bahstlab, munozaratalab asarlar dunyoga kelmayotgan bo'lishi mumkin. Ehtimol adabiy tanqid ham shunga yarasha, tanqidiy chiqishlar esa bor-yo'g'i maqto'v yoki e'tiroflardan iboratdir. Nazarimda adabiyot gullab-yashnasagina uning atrofida adabiy tanqidchilar o'ralasha boshlaydilar, adabiyotshunoslik o'z-o'zidan kuchayib, adabiyot undan orqada qolib ketishi mumkin emas.

— Adib uchun iste'dod muhimmi yoki mehnat?

— Men iste'dod va mahorat, mehnatni bo'laklarga ajratolmayman. Sababi, iste'dodli yozuvchidagina mahorat bo'lishi mumkin. Masalan, Lotin Amerikasining 70-yillardagi adabiyotini o'qisangiz, diktatorlik tizimining naqadar ayanchli fojialari ko'z o'ngingizga keladi. Ta'sirlanasiz. Sababi, ularning tuzumi biznikiga o'xshar edi... Mana, gap qaerda. Bugun mustaqil mamlakatning fuqarosi — siz Karpenter, Borxes, Kortasar, Fuentes, Markesning katta-katta asarlarini maroq bilan o'qiyolmaysiz. Chunki endi siz boshqa tuzumda yashayapsiz. Yozuvchining mahoratiga, iste'dodiga tan berasiz, xolos.

— Unda qanday asar adabiyotda mangu yashab qolishi mumkin deb hisoblaysiz?

— Bu borada ham biron narsa deyishga odamning jur'ati yetmaydi. Avvalambor, yozuvchi o'z qudrati va mahoratini mukammal namoyon eta bilishi lozim. Ikkinchidan xo'sh, uni ertaga kimlar o'qiydi deb o'ylaymiz. Har bir ijodkor mana shu ikki o't orasida qovriladi, xavotirda yashaydi. Nima bo'lganda ham haqiqiy yozuvchida yaratish ishtiyoqi hech qachon so'nmasligi kerak. Eng yomoni — chekinish, tan berish. Baribir o'tli so'z, hayajon, ibratli fikr va uning yuksak badiiy ifodasini topgan asar ko'proq yashashga haqli deb o'ylayman"²⁹.

Suhbatni to'liq keltirishimiz bejiz emas, albatta. Agar e'tibor qaratilsa, suhbatda bugungi adabiy jarayon haqida gap ketmoqda. Bugungi adabiy jarayon boshqa adabiy jarayonlardan tubdan farq qilib turadi. Bugungi adabiy jarayon nafaqat mumtoz adabiyotni qayta o'rganishni balki g'arb adabiyoti an'analarini o'rganishni ham talab etmoqda. Bu, albatta, bir kun va bir soatda amalga oshadigan jarayon emas. Yozuvchi va adiblarimiz qayta o'rganish natijasida o'zlariga yangi-yangi yo'nalishni, yangi-yangi uslublarni kashf etishmoqdalar. Sobir O'nar esa bu jarayonni to'liq anglagan yozuvchi sifatida bugungi adabiyot xususida fikr yuritadi va boshqa yozuvchilar singari Zulfiya Qurolboy qizining ijodini ham jiddiy yozuvchi sifatida tan oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi maqola hamda suhbatlar ham adiba ijodini to'liq qamrab ololmagan. Uning bir yoki bir necha hikoyalari xususida so'z yuritilgan, xolos. Bu esa adiba ijodi to'laqonli o'rganilishi lozimligini ko'rsatib turibdi.

²⁹www.ziyouz.com

II BOB

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYACHILIGIDA BADIY- TASVIRIY VOSITALAR VA RUHIYAT TASVIRI

Ijod – soʻz qidirish, tanlash, saralash, soʻzni tejash va oʻrinli ishlatish mashaqqatlaridan iborat murakkab jarayon. Badiiy asar yaxlit bir qoʻshiq. Uning sevib xirgoyi qilinishiga faqat semantika talablariga muvofiq sinonimlar tanlash orqali emas, balki tovushlarning ohangi, ritmning jarangdorligi va talaffuzning taʼsirchanligi aro garmoniyani topish bilan erishiladi. Ijodkor, avvalo, oʻzini oʻrab turgan narsa-buyum dunyosi orqali asar dunyosini koʻradi. Asarda tasvirlangan dunyo alohida badiiy detallardan tashkil topadi. Badiiy detallar esa oʻz navbatida insonning ruhiy olamini yoritishda qoʻl keladi. “Badiiy detal deganda biz tabiat yoki portret elementlari, qahramonning u yoki bu sifati, qusuri yoki fazilatini ochadigan alohida belgisi, ruhiy harakati kabilarni tushunamiz”³⁰. Detal yaxlit asarning elementlaridan biri sifatida mitti obraz, “mikroobraz” (A.B.Esin) sanaladi. Ayni paytda, detal oʻzidan yirikroq obrazning qismi boʻlib keladi. Aniqrogʻi, yirik obraz oʻziga xos belgilar yigʻindisidan iborat detallarni tashkil etadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy tavsifning uch xil koʻrinishi mavjud: portret, peyzaj va interyer. Ammo taʼkidlab oʻtish joizki, tavsifning uchala koʻrinishi ham yagona maqsad – insonni tavsiflash vazifasini bajaradi.

Tahlil oʻngʻayligi uchun badiiy detallarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi navbatda tashqi va psixologik detallar alohida ajralib turadi. Tashqi detallar, nomlanishidan anglashilganidek, bizga odamlarning zohiridan – tashqi koʻrinishi, yashash tarzidan guvohlik beradi. Oʻz navbatida, tashqi detallar portret, peyzaj va tarixiy sharoit detallariga boʻlinadi. Psixologik detallar inson ichki dunyosini gavdalantiradi. Qalb tebranishlari – fikrni toʻliq aytolmasdan, faqat ishora bilan cheklanish usuli yoki “ogʻzaki boʻlmagan dialog”ga mansub unsurlar: kinesik holatlar – xatti-harakat, mimika va

³⁰Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. – Т.: Баёз нашриёти, 2014. 118-бет.

pantomima elementlari hamda kulgu, yig'i, nutq tempi kabi paralingvistik elementlar psixologik detal shaklini ifodalaydi (I.V.Straxov) yoki personaj dinamik portretining detallari (mimika, plastika, ma'noli harakatlar, tinglovchiga qaratilgan nutq, fiziologik o'zgarishlar) deya nomlanadi. Ruhiy tavsifning umumlashma-belgili shakliga nisbat beradigan bunday detalni adabiyotshunoslar "hislarning verbal (og'zaki) belgilanishi"³¹ deb ham ataydilar.

Badiiy adabiyotda har bir ijodkorning o'z uslubi, o'z yo'nalishi bo'ladi. Kimningdir asarini tushunish uchun kitobxon o'zini anchagina zo'riqtirishga majbur bo'ladi, kimningdir bitigini osongina ilg'ab zavqlanadi. Badiiy niyatni xarakterlar talqinida kitobxonga qanday yetkazib berish adib uslubi, mahorati bilan belgilanadi. Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub hikoyalarni o'qir ekanmiz, ijodkorning o'zigagina xos bo'lgan tasvir uslubini, soddalik va ravonlikni, fikr va tuyg'ular samimiyligini kuzatamiz. Adiba o'z hikoyalarida hayot ma'nosi, umr mazmuni, insonlarning o'y-kechinmalari xususida mulohaza yuritadi. Ijodkor inson obrazini yaratar ekan, tasavvur va badiiy tavsif uchun unga turli tomondan razm soladi. Xususan, yozuvchini insondagi hamma narsa – uning tashqi va ichki dunyosi, odat va fikrlari, yashash va xizmat joyi, atrofidagi odamlar va taboat olami bilan o'zaro munosabatlari – barcha-barchasi qiziqtiradi. Adiba ijodida, ayniqsa, ayol obrazini tasvirlashda ayricha munosabat ko'zga tashlanadi. Uning "Ayol", "Kelin", "Rashk", "Latofat xonim" kabi hikoyalarida ayollarning kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari tasvirlangan.

Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub "Kelin" va "Rashk" hikoyalari mavzu jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa ham, undagi ayol obrazlarining har biri o'ziga xos individual xususiyatlarga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi va biri ikkinchisini takrorlamaydi. "Kelin" hikoyasidagi Xoldor kelinning eri Fayzimurod ham, "Rashk" hikoyasidagi Xosiyat kelinning eri Sherali ham oilasiga xiyonat qiladi va turmush o'rtog'ini tashlab ketadi. Lekin bu xiyonatni

³¹Скафтымов А.П. Нравственные искания русских писателей. – М. 1972. – С. 437

ikki kelin ikki xil qabul qiladi, erlariga nisbatan munosabatlari ham turlicha bo'ladi.

“Kelin” hikoyasidagi Xoldor eri kechalari uyiga kelmasa ham “miq” etmay, ishlarini qilib yuraveradi. Hatto erining cho'ntagidan begona manzil yozilgan qog'oz topib olsa ham hech kimga indamaydi, eridan so'rab-surishtirmaydi ham. U tabiatan *“soddagina, to'porigina, kamgap, kamsuqum, mehnatkash juvon. Ertadan kechgacha chol-kampirning xizmati va ro'zg'or tashvishlari bilan yelib-yugurib, charchamaydi”*³². Xoldor erta tongdan turib to kech qorong'usigacha ro'zg'or tashvishlari, qaynona- qaynotasining xizmatini qilib yuradi. To'rt bolasi bilan bo'lib o'ziga qarash xayoliga ham kelmaydi. Qaynonasi Muslim momo o'g'lining cho'ntagidan chiqqan begona manzilni qidirib borib, o'g'lining ikkinchi xotini – Oygulni ko'rganda ikki ayolni birbiriga solishtiradi. Shunda Xoldorning hissiz ko'zlari-yu mehnatdan qop-qora bo'lgan qo'llari, tirnoqlari ko'z oldiga keladi. “U sho'rlikda huzur-halovat yo'q, go'r bo'larmidi?”, deydi ichida.

Xoldor hatto erini durustroq tergashni ham eplolmaydi. Qaynonasi qattiq tayinlaganidan keyin bir kuni eri ishdan qaytgach bir haftadan beri qayerda yurganini so'rab surishtirmoqchi bo'ladi. Ammo eri *“menminan ishing bo'lmasin. Molning tagini tozalab, tappi yopib yuraber. Shundan boshqasini eplamaysan”*³³, - deydi.

“Rashk” hikoyasidagi Xosiyat kelin esa Xoldordan farqli o'laroq, yoshligidan juda chiroyli bo'ladi. Yangi kelinlik davrida hamqishloqlari kelinchakning husn-u jamolini ko'rishga kelaverib, bezor qilishadi. Eri Sherhali ham doimo xotinining atrofida parvona bo'ladi. Lekin ketma-ket uch bolani tug'ib, Xosiyat o'zgarib ketadi. Avvalgi nazokatidan asar ham qolmaydi. U ham Xoldor kelin kabi erta tongdan kechgacha ro'zg'or tashvishlari bilan ovora bo'ladi: sigir sog'ish, hovli supurish, non yopish, uy tozalash, tushlik ovqat,

³²Куролбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. 301-бет.

³³Куролбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. 306-бет.

kechki ovqat, mollarning tagini tozalash, tezaginiyig'ib tappi qilish va boshqalar.

Xotinining butkul o'zgarib ketganligini sezgan eri Sherali har zamonda uni tanqid qiladi. Birinchi marta “Sal o'zingga qarab yursang bo'lmaydimi?”, deganida Xosiyat e'tibor bermaydi. Yana bir safar : “Tuzukroq ko'ylaging yo'qmi? Egningdagining rang-ro'yi qolmabdi-ku”, deya aytgan e'tiroziga Xosiyat ham keskin javob beradi: “Atlas ko'ylak kiyib, mol tagini tozalaymanmi?”.

Uchinchi bor Sherali xotiniga “Qo'lingdan tappining hidi kelayapti, bor, yaxshilab yuvib kel”, deb yarim kechasi hovliga chiqarib yuborganidan keyin Xosiyat o'zini xo'rlangan, kamsitilgan bir bechoraday his qiladi. U kelin bo'lib tushganidan beri birinchi marta yig'laydi. Xosiyatni muallif Xoldorga nisbatan sezgirroq qilib tasvirlaydi. U erining gaplarini o'ylaydi va nima xohlayotganligini tushunadi. Sheralining tanqidlari ta'sir qilib, ertasiga Xosiyat yangi ko'ylagini kiyib, pardoz-andoz qilib hovliga chiqadi. Lekin o'zini boshqacha his qiladi, qo'li hech bir ishga kelishmaydi, uydagilar ham undagi bu o'zgarishdan hayron qolishadi. Shu kuni ovqat suzaman deb qaynonasining xitoy chinnisidan yasalgan laganini sindirib qo'yadi. Qaynonasining bir og'iz gapi Xosiyatdagi barcha o'zgarishlarni yo'q qiladi:

“- Sen, qosh-ko'zingni bo'yaguncha ishingga puxta bo'li!”³⁴.

Xosiyatda ayollarga xos noziklik, shirin orzular, his-tuyg'ular bor. Buni yozuvchi birgina holat orqali ko'rsatadi. Xosiyat kelinning birgina orzusi bor edi. U erining unga atir-upalar, taqinchoqlar sovg'a qilishini, o'zidan juda-juda yoqimli hid anqib turishini xohlardi. Buni hech kimga aytmas, faqatgina yolg'iz qolganida ichida o'ylardi, xolos. Lekin o'zi bunday narsalarga pul sarflaguncha ro'zg'orining kam-ko'stini to'ldirishni afzal bilardi. Eri esa Xosiyatning istagini tushunib yetmasdi.

“Kelin” hikoyasida Xoldor erining ikkinchi xotini borligini, erining Xoldor bilan yashashni xohlamasligi bilib ham indamay, har kungi ishlarini qilib

³⁴Қуролбой қизи З. Қадимий қўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. 347-бет.

yuraveradi. Eri bolalarini o'zi bilan olib ketmoqchi bo'lsa ham qarshilik qilmaydi, nafsoniyatiga ham tegmaydi. Ammo "Rashk" hikoyasidagi Xosiyat kelin erining begona ayolga ilakishib qolganligini sezgach ich-ichidan siqiladi, rashk qiladi. Eri Sherali o'sha ayolni uyiga olib kelganida xo'rliqi keladi, ikkalasi bog'da bir-biriga suykilib gaplashib turganini ko'rgan Xosiyat o'zini tuta olmaydi. Qalbi alam va nafratga to'lgan ayol hovlidagi itni qo'yib yuboradi. It oshiq-ma'shuqlar tomon qattiq hurib yugurib ketadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Xosiyat va Xoldor kelinlar garchi bir xil vaziyatga tushgan holda tasvirlangan bo'lsa ham ikki obraz bir-biriga o'xshamaydi va xarakterlar kesishmaydi. Xoldor haddan ziyod sodda, jahl nimaligini bilmaydi, atrofida gilarining unga nisbatan qilgan ishlari nafsoniyatiga ham tegmaydi, hech kimga qarshilik ham qilmaydi. Xosiyat esa nisbatan ziyrakroq, o'zligini anglagan, o'ziga nisbatan munosabatlarni, tanqidlarni to'g'ri qabul qiladigan va kerakli xulosalarni chiqara oladigan, g'ururining poymol etilishiga yo'l qo'ymaydigan ayoldir. Muallif bu ikki obrazni tasvirlash orqali kitobxonlarni o'ylashga, fikr yuritishga, mulohaza qilishga chorlaydi. Ularning xatti-harakatini, qaysi qahramon yaxshi, qaysisi yomon ekanligini, kim haq-u, kim nohaq ekanligini kitobxonning o'ziga havola qiladi.

Adabiy qahramonlarni aniq tasavvur qilishga yordam beradigan tasvir vositalaridan biri ularning portretidir. Portret adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o'zini tutishi va hokazolarining badiiy asarlardagi tasviri bo'lib, *"ijodkor portret yaratishda yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolari tasvirlash bilan cheklanmay, gavda, qo'l, bosh harakatlari manerasi, gapirish ohangi va sur'ati, kulishi, yig'lashi (ushbu holatlardagi mimikasi) kabi inson ruhiyati bilan bog'liq faoliyatlarga ham katta e'tibor qaratadi"*³⁵.

Badiiy obraz portretining ikki qirradi mavjud: obrazning tashqi qiyofasi va uning ichki individual-psixologik qiyofasi. Bu xil tasnif, albatta, shartli

³⁵Салаев Ф., Курбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 185-бет.

bo'lib, har ikki holatda ham yozuvchi qahramonning ruhiyati, xarakteriga kirib borishga harakat qiladi.

Portret ijodkorning inson dunyosini qanchalik chuqur bilishini namoyon etish bilan birga o'quvchining ham inson tabiati to'g'risidagi fikrlarini kengaytiradi, qahramonlarning dardini tushunishi va his qilishiga yordam beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, ijodkorning badiiy mahoratini uning adabiy qahramon portretini tasvirlashiga qarab ham belgilasa bo'ladi. Shunday mahoratni Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi obrazlar portretida kuzatishimiz mumkin. Asarda Oftob oyim, O'zbek oyim, Yusufbek Hoji, Otabek, Hasanali, Homid kabi obrazlarning o'ziga xos portreti yaratilgan. Qodiriy Kumushni tanishtirar ekan uning portretini yuzidagi "qora xoli" gacha ixlos bilan, o'zgacha bir mehr bilan tasvirlaydi. Xuddi mana shu "ixlos" Zaynabda ayaladi, tejaladi. Zaynabning go'zalligi o'zgalar tilidan aytiladi. Masalan, O'zbek oyim tomonidan "Toshkent shahrining eng go'zal qizlaridan ekan"ligi oddiy xabar sifatida aytib o'tiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bu, albatta, yozuvchining badiiy niyati bilan bog'liq.

Qodiriyning ayrim qahramonlar qiyofasini aks ettirishda folklorga xos xususiyatlardan ham unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Otabek va Kumushga dushmanlik qilgan Jannatning qiyofasi, "*yerdan bichib olg'andek pak-pakana, burni yuzi bilan baravar, deyarli tep-tekis, ko'zi qoqqan qoziq o'rnidek chup-chuqur, og'zi qulog'i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og'riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin*"³⁶ deb tasvirlanadi. Otabekni o'ldirish qasdida bo'lgan uning o'g'li Sodiqning ko'rinishi ham: "*sariq tanli, ukkining ko'zidek chaqchayib o'ynab va yonib turgan qizil ko'zli, yuziga parchinlangandek yuza (puchuq) burunli, manglayi qancha tashqariga o'sib chiqqan bo'lsa, yuzi o'shancha ichkariga ketgan, vaqtsizroq yaratilib qolgan bir maxluq*"³⁷ deb tavsiflanadi. Har ikki qahramonlarning tashqi ko'rinishi fe'l-atvoriga mutanosib holda tasvirlangan.

³⁶Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 166-бет.

³⁷Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 172-бет.

Umuman olganda, “O’tkan kunlar” romanida tasvirlangan qahramonlar portreti nihoyatda puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Qodiriyning portret yaratish an’anasi zamonaviy adabiyotimizda ijod qilayotgan yozuvchilarimiz asarlarida o’ziga xos uslubda davom ettirilmoqda. Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizi ham qator hikoyalarida bir qancha qahramonlar obrazini yaratgan. U yaratgan qahramonlarning har biri takrorlanmas qiyofasi, kechmish-kechirmishlari bilan o’quvchilar e’tiborini tortadi. Yozuvchi “Yovuzlik farishtasi” hikoyasidagi bosh qahramonlardan biri G’ulom Sayid obrazini tasvirlar ekan, bunda portretning ekspozitsion turidan foydalanadi, ya’ni qahramon asarda ilk marta ko’rinishi bilanoq uning tashqi ko’rinishini ta’riflaydi:

“G’ulom Sayid yoshi qirq-qirq besh yoshlar atrofida, qomati barvasta, butun vujudidan kuch yog’ilib turgan, sochlari jingalak, biroq negadir oq oralagan, qosh-kipriklari esa qop-qora kishi edi. Ko’zlari... uning ko’zlari juda chiroyli edi. Ha, ha, xuddi shunday: judayam chiroyli! Qiz ishga qabul qilingan kuniyoq uni ko’rib, yuragi qinidan chiqib ketay degan. Hayajonlanib, buni sezdirib qo’yishiga sal qoldi. G’ulom Sayid esa o’ta bosiq, o’ychan, hatto ancha sovuqqon edi. Boshqa xodimlar singari Kamolaga ham e’tibor bermayotgandek, o’zini juda sipo tutdi, faqat ish yuzasidan savol-javob qildi-yu, bo’ldi tamom, shu bilan bir kunlik ish vaqti tugadi, G’ulom Sayid o’z uyiga, Kamola o’z manziliga ketdi, ertasiga ertalab yana o’shanday salom-alik, savol-javob...”³⁸.

G’ulom Sayid – olim. U ilm yo’lida izlanib ko’p zahmat chekkan, qiyinchiliklarni boshidan o’tkazgan. Ana shu azoblar uning sochlarida o’z aksini topgan. Yozuvchi, ayniqsa, qahramonning ko’zlariga kitobxonning alohida e’tiborini qaratadi. Ko’zlarining juda chiroyli ekanligini qayta-qayta takrorlaydi. Insonning ko’zi – qalb oynasi, demoqchiday go’yo. Qahramon qalbi pok inson, u oilasiga xiyonat qilishni xohlamaydi. Birovning yoshgina qizi(Kamola)ni yo’ldan urib, uni yomonotliq qilishni o’ziga ep bilmaydi. Vaqt o’tib muhabbat

³⁸Қуролбой қизи З. Ёвузлик фаришти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. 208- бет.

o'z sehrini ko'rsatganda ham u o'zini tutishga, boshqalarga bildirmaslikka harakat qiladi.

Ayrim o'rinlarda yozuvchi qahramon portretini o'zi tavsiflamaydi, balki boshqa bir qahramon tilidan tasvirlaydi. Masalan, G'ulom Sayidning turmush o'rtog'i Shoiraning tashqi qiyofasi "sal qarimsiq ko'rinadi" degan gapni adiba personaj tilidan keltiradi. Keyinroq muallifning o'zi ham bu qahramonga ta'rif beradi:

*"Biroz novcha bo'lsa-da, qosh-ko'zi popukdek edi. Kamolaning yuz tuzilishi, qarashlari unga (G'ulom Sayidga – X.N.) aynan o'sha vaqtlarni, xotinining yoshligini eslatgandek ham bo'lardi. Ro'zg'orni sal tiklab olishgandan keyin butunlay ishlamay qo'ydi. Uy tutishni, bola boqishni joyiga qo'yar, erining ust-boshi har doim yuvilgan, dazmollangan, o'ziga qarashga ham ulgurardi. So'nggi vaqtlarda yoshlikda o'tgan qiyinchiliklar, ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi ortda qolib, biroz to'lishib, salobatli ayolga aylanib borayotgan edi, falokat oyoq ostida deganlaridek, birdaniga uning tishlari to'kila boshladi. Omon qolganlarini ham qurt yeb og'ritar, sovuq narsa yeya olmas, jag'i og'rib, shishib ketishidan qo'rqib, tishlarini yuvmay qo'yganidan og'zidan badbo'y hid anqiydigan bo'lib qolgandi. Shu bois, er-xotin anchadan buyon begona edilar..."*³⁹.

Portret adabiy qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash asosida uning xarakter qirralarini ochishga xizmat qiladi. Shoiraning portretida muallif er-xotinning bir-biridan yiroqlashishining sababi sifatida xotinining og'zidan badbo'y hid anqib turishini aytadi. Ayni vaqtda ushbu detal Shoiraning muomalasi qo'rsiligiga ishora qilmoqda.

Zulfiya Qurolboy qizi o'quvchini obraz mantig'iga yetkazish maqsadida hikoyaning bir necha o'rinlarida qahramonlarning psixologik portretini yaratgan. *"Psixologik portretda muallif asosiy diqqat-e'tibori qahramon xarakterini ochadigan, o'y-kechinmalarini ifodalaydigan qabariq (noyob) detalga qaratiladi. Obrazni ruhiy va axloqiy-ma'naviy mazmun bilan to'ldiradigan*

³⁹Курулбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. 212-бет.

bunday detal portretda o'ziga xoslik kasb etadi. U orqali qahramonning ruhiy belgilari aniq-ravshan ko'rinadi"⁴⁰. Masalan, Kamolaning portretiquyidagicha beriladi:

"Kamola har kuni ishga hayajon bilan kirib kelarkan, yuragi gurs-gurs urib, ko'zlari chaqnab ketar, tezroq uni ko'rishga shoshilar, ro'para kelganda o'zini yo'qotib, gapidan adashib ketar, G'ulom Sayidning hamon o'sha "sovuq" muomalasidan keyingina hushi o'ziga kelib, sipo tortib qolar, alami kelganidan yig'lab yuboray derdi. "E, Xudo, bu ahvol qachongacha davom etadi? – derdi u tepasiga "Laboratoriya" deb yozilgan xonaga kirib, eshikni qarsillatib yoparkan. - Domlam bo'lsa nima qipti? Olim bo'lsa o'ziga. Bola-chaqasi ham meni qiziqtirmaydi, - derdi u o'jarlik bilan. – Menga undan boshqa hech kim kerak emas!" Qizning ko'zlariga g'iltillab yosh kelar, ortiga qaytib, eshikni sekin, g'iyqillatmasdan ochib, yo'lakning narigi betida tepasiga "Dots. G'ulom Sayid" deb yozilgan eshikka o'shshayib qararkan, xonasi hamon ochilmaganini ko'rib, xayolida: "Qayoqqa ketib qoldiykin?" degan o'y tinimsiz charx ura boshlardi. Qiz bu ishlarning oqibatini o'ylamasdi, o'ylaydigan ahvolda emasdi"⁴¹.

Umuman olganda, yozuvchihikoyada Kamolaning tashqi qiyofasi(yuzi, labi, qoshi, ko'zi, burni, yoshi kabilar)ni emas, balki uning ruhiy kechinmalarini, voqealarning unga ta'sirini tavsiflashga ko'proq e'tibor qaratgani namoyon bo'lgan.

Xullas, epik turning roman janrida qahramon portretini batafsil chizish imkoniyati kengroq, hikoyada bu imkoniyat nisbatan chegaralangan bo'lishiga qaramay, qahramon xarakterini ochishda portret muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida o'z g'oyaviy maqsadiga muvofiq portret chizishning turli-tuman xillaridan samarali foydalangan va takrorlanmas xarakterlarni yaratgan. Mahorat bilan chizilgan portretlar esa inson obrazini yorqinlashtirish, ruhiy tadqiq etish vositasiga aylangan.

⁴⁰Бобохонов М. Рухий ҳолат тасвирида қаҳрамон портретининг ўрни// "Ўзбек тили ва адабиёти" журналі, 2010 йил, 3сон. 53-бет.

⁴¹Қуролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. 209-бет.

Ijodkorning “Ayol”, “Kelin”, “Ko’lanka”, “Qadimiy qo’shiq” kabi hikoyalari kuchli hissiyoti bilan kitobxonni o’ziga jalb etadi. Ayniqsa, “Tafakkur” hikoyasini mutolaa qilgan o’quvchi undagi voqealar rivojidan junbushga keladi. Hikoya iste’dod bilan yozilganligi bois kitobxon bosh qahramon kulfatlari, fojialari, azoblaridan qiynaladi va birga mashaqqat chekadi.

Asar dastlabki jumlaridanoq o’quvchida qiziqish uyg’otadi. Yozuvchining qishloq iqlimini tasvirlashda foydalangan ajoyib jumlarini o’qigan kitobxon beixtiyor hikoya bilan birga yashay boshlaydi hamda undagi qishloqning takrorlanmas tabiati bilan nafas oladi:

“Bu yerning yozi izzattalab bo’ladi, kechikibroq keladi-yu, vaqtliroq ketishga shoshiladi, go’yo kutguvchilarning badiga urib ketmay degandek, yoz gird atrofini tepaliklar-u, undan narisi purviqor tog’lar bilan qurshalgan dasht qishloqni bir qur ko’zdan kechiradi-da, bahor poyiga ilashib qolgan yashil etaklarini yig’ib olib, olislarga ketib qoladi”⁴².

Qishloqning ob-havo inijliklari, chuvalchang-u qurbaqasi bisyor bo’lgan suvi, aholining uy-joyi, ekini, tilining qarluq lahjasida ekanligi kabilar bilan voqealar rivoji boshlanadi.

Hikoyada tog’ orasida joylashgan “... sirtidan qaragandayoq zerikarli ekanligi ko’rinib turgan qishloqdagi hayot tarzi”⁴³da o’sib ulg’aygan, “oynai jahon”⁴⁴ deb atalmish mo’jizani ko’rib katta bo’lgan”⁴⁴, tegirmonchining o’g’li, kuchli tafakkur va iste’dod egasi bo’lgan Tangriberdining kechmishlari bayon etiladi.

Tangriberdi bolaligida raisning hovlisidagi “dilbuzar”da shaxmat o’yinini ko’rib, unga ishqiboz bo’lib qoladi. Bu ishqibozlik asta-sekin kuchayib borib, tinmay mashq qilish natijasida Tangriberdini noyob iste’dod egasiga aylantiradi. Lekin uning o’zi kabi tegirmonchi bo’lishini xohlagan otasi Dovul tegirmonchi Tangriberdining foydasiz o’yinlarga vaqt ketkazishiga qarshi. Hamma muammolar ota-bolaning bir-birini tushunmasligi hamda o’zlaricha

⁴²Курулбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.11-бет.

⁴³Курулбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.12-бет.

⁴⁴Курулбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.13-бет.

haqligi natijasida paydo bo'ladi. O'g'lining shaxmatdan boshqa narsa bilan ishi yo'qligini sezgan ota unga shaxmat o'ynashni taqiqlab qo'yadi, hatto musobaqaga borishiga ham ruxsat bermaydi. Chunki uni faqat daromad keltiradigan ishlargina qiziqtirar edi. Bunga yoshligida ocharchilikdan onasi, akasi, ikki singlisining o'lgani, Dovulbekning o'zi esa ochlikdan zo'rg'a tirik qolgani sabab bo'ladi. U o'lib qolishdan qo'rqib hamma narsani, hatto toshni ham og'ziga solib chaynaydi. Oradan yillar o'tsa ham ochlik yillaridan qolgan ana shu xotiralar uni tark etmaydi. Uningcha, yana qachonlardir ochlik bo'ladi va u bunga tayyor turish uchun yerto'lasida yog', bug'doy saqlaydi.

Dovul tegirmonchi o'z o'g'liga to'kin – sochin kelajakni barpo etib bermoqchi bo'lib, farzandining ayanchli bir qismatga yuz tutishiga sababchi bo'ldi. Hikoya boshida u qattiqqo'l, shafqatsiz kishi sifatida ko'ringan bo'lsa, asar oxiriga borib uning qanchalik mehribon, farzandi uchun hamma narsaga tayyor ota ekanligi ko'rinadi.

Inson qismati bunchalar murakkab, bunchalar sirli bir mo'jiza ekanki, o'g'lining shaxmat o'ynashi uchun tish-tirnog'i bilan qarshi turgan ota hikoya oxirida o'z qo'llari bilan o'g'li uchun shaxmat donalarining har birini yasayotganida otaning ko'nglidagi pushaymonlik va umid o'quvchini larzaga soladi.

Tangriberdi garchi bir umr to'shakka mixlanib qolgan, xotirasini yo'qotgan bo'lsa-da, lekin kuchli tafakkuridan bir uchqun qoladi. U hech narsani eslay olmasa ham shaxmat o'ynashni yodidan chiqarmaydi. Bir kuni televizorda shaxmat musobaqasiga oid ko'rsatuvda jahon chempioni bilan jahon chempionligiga da'vogar o'rtasidagi keskin jangni ko'radi. Tangriberdi jahon chempionining har bir harakatini diqqat bilan kuzatib o'tiradi. Jahon chempionining qo'li "ot"ning boshidan tutganda u shunday deydi:

“ – Yo'q! Yo'q! “Ot”ni qo'ya tur! “Rux”ni c 8dan c 4ga yur! Shunda ... Ana shunda!.. ”⁴⁵.

⁴⁵Курулбой кизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.65-бет.

Hikoya ana shu jumlar bilan nihoyasiga yetadi. So'nggi xulosani yozuvchi o'quvchining o'ziga havola etadi. U ataylab muallif bahosini berish, joiz bo'lsa, hukm chiqarishdan o'zini tiyadi. Adiba o'quvchini hayot oqimiga tashlab qo'yadi. Lekin bu oqim muallifning estetik g'oyasi, matlabi bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Natijada, o'quvchi hayotni "muallif aralashuvi"siz, boricha qabul qiladi.

Asar tili o'rinli ishlatilgan dialekt hamda jonli xalq so'zlashuv unsurlariga boy. Ayniqsa, personajlar nutqida jonli so'zlashuv tili, individual so'zlashuv unsurlari, sheva elementlarini ishlatish personajlarning saviyasi, ko'nikmalari, muhiti va nihoyat, ularning betakror individual xarakter qirralarini ochishga xizmat qilgan.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida insonning xatti-harakatlaridan ko'ra, qalb kechinmalari, ruhiyat tovlanishlariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Odamni ishchi kuchi, mehnat kishisi emas, balki chigal dunyo egasi sifatida tasvirlash hozirgi o'zbek hikoyachiligidagi bosh yo'nalishlarga aylanib bormoqda. Shu jumladan, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida qahramonlar ruhiyatidagi talotumlar, asosan, ijtimoiy turmush ta'sirida yuzaga kelganligi aks ettirilgan.

Adiba hikoyalarining qahramonlari turli-tuman bo'lib, bir-birini takrorlamaydi. Asar qahramoni xususida so'zlashdan oldin adabiy qahramon kim? degan savolga javob berish lozim. Adabiy qahramon azal-azaldan adabiyotning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Chunki adabiyotning "qiyofa"si unda Odam va Olam manzaralarining aks etishi avvalo adabiy qahramonlarda aks etadi. Adabiy qahramon obrazi har bir davrda milliy inson dunyosini anglash, tushinishda qanday darajaga erishilganini ko'rsatadi. Negaki qahramon dunyoqarashida, uning fe'l-atvori, kechinmalarida muayyan tarixiy davrning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy manzarasi, kishilarning turmush tarzi namoyon bo'ladi. Shuningdek, adabiy qahramon shu davrning astetik tafakkurini, har bir ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijodidagi o'sish-o'zgarishlar miqyosini belgilash imkoniyatini beradi. Milliy adabiyotlarning inson dunyosini badiiy aks ettirish darajasi ham, ijodkorlarning ijodiy o'ziga

xosligi ham adabiy qahramonlarda ko`rinib turadi. Har bir davr adabiyotining barcha muammolarini, ijodkorlar faoliyatini adabiy qahramonlar obrazining badiiy gavdalandirilishi asosida tahlil qilsa bo`ladi. Chunki adabiyotshunoslikka doir barcha masalalar bevosita adabiy qahramon bilan bog`lanadi. Har qanday badiiy asar mavzusi markazida ham, uning kompozitsiyasi, syujet asosida ham adabiy qahramon turadi. Asarning barcha komponentlari adabiy qahramon obrazini gavdalandirish vositasi sanaladi. Shu boisdan adabiyotshunoslikning barcha ilmiy-nazariy muammolari markazida bevosita adabiy qahramon masalasi turadi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarining adabiy qahramonlari ko`proq kuchli ruhiy g`alayonlar, cheksiz ma`naviy tanazzullar iskanjasida aks ettiriladi. Hikoyalarida hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsligi, ma`naviy olami imtihondan o`tayotgan odamlar hayotini ko`rsatish orqali adiba milliy adabiyotimizda qahramonlar silsilasini yaratadi.

Uning hikoyalarida inson ruhiy kechinmalari, ko`ngilning nozik tovlanishlari, dardi va qismati, orzu-armonlari tasviriga e`tibor kuchlidir. Yozuvchi bir dunyo orzu-havaslari bilan yashagan, o`z taqdiri uchun kurashgan, biroq qismat oldida chorasiz va betadbir qolgan, ammo qalbida kelajakka umid ruhi so`nmagan insonning ichki olamini ishonarli tasvirlagan. Adiba hikoyalarining qahramonlari o`z ichki olamiga ega. Shu ichki olamdan foydalangan yochuvchi ularga nom tanlaydi. Nazar chol (“O, hayot!”), Xoliq amaki (“Xoliq amaki”), Dovul tegirmonchi (“Tafakkur”), mulla Ashur (“Ajal chorlovi”) kabi qahramonlarning ichki dinamikasidan kelib chiqib, ularni tiniq tasvirlaydi.

Adibaning **“Quyosh men tomonda”** hikoyasining bosh qahramoni Go`zal ismli ayol. Uning butun borlig`i ikki farzandi va turmush o`rtog`i Tohir. Hikoyani o`qir ekanmiz, bosh qahramonning o`ta sodda, o`z qalb tug`yonlari bilan yashayotgan shaxs sifatida ko`ramiz. Taqdiriga ko`nikkanligi va ishonuvchanligi sabab taqdir zarbalari oldida hushini yo`qotadi va hayot bilan,

taqdir bilan yuzma-yuz qoladi. Hikoya: “Ayol xavotir bilan kunni kech qildi”⁴⁶ jumlasini bilan boshlanadi. Xavotir qilishi ham bejiz emas. Uning bir yostiqa bosh qo’ygan, ishongan tog’ sifatida qabul qilgan insoni Tohir tong otgandagina o’z xonadoniga kirib keladi. Uning nima ish qilayotgani va qayerda yurganligi haqida Go’zal tasavvur qila olmaydi. Uning uchun umr yo’ldoshi, turmush o’rtog’i eng halol odam. Uning halolligiga esa bir oz shubhaga borsada, biroq o’zini fikri va xayolini o’nglashga harakat qiladi. Uning uchun Tohir hayotini, turmushini yaxshilash uchun tun-u kun ishlaydi. Biroq asarni o’qir ekanmiz, aslida Tohir Go’zalning tasavvuridagi inson emasligiga guvoh bo’la boshlaymiz. Tohir boshqa bir ayolga ishonishi va ko’ngil qo’yishi natijasida oilasidagi parokandalik boshlanadi. Ishonchsizlik oilani barbod bo’lishiga olib keladi. Tohir boshqa ayolning gapiga ishonib Go’zaldan shubhalana boradi va oxir oqibat Go’zalning fojiali qismatiga sababchi bo’lib qoladi.

Asarda voqealar tezlikda rivojlana boradi. Tohirning xatti harakati va gap so’zlaridan xafa bo’lgan Go’zal o’z oshiyonini tark etadi. Eshik oldida esa Tohirga umid ko’zi bilan qaraydi. Biroq Tohir kech bo’lishiga qaramasdan Go’zalni to’xtatishga harakat qilmaydi. Natijada, Go’zal tongni ko’p qavatli uyning podyezdida kutib olishga majbur bo’ladi. Mana shu birgina qilgan xatosi sabab butun umrga oilasidan hamda hushidan ayriladi. Go’zalning hushidan ayrilishiga birinchi sabab Tohirning ishonchsizligi bo’lsa, ikkinchidan boshqa ayolning dag’dag’a qilishi ham edi: “*Kechga yaqin telefon jiringladi.*

Onasi o’rnidan turguncha Go’zal chaqqonlik qildi. Go’shakni olib, qulog’iga tutarkan yana o’sha mudhish titroq vujudini qamray boshladi.

- *A-allo.*
- *Erimni tinch qo’y, qanjiq,shallaqi! Bolalarim tinch yashasin desang, erimni o’z holiga qo’y!*
- *Iltilmos bolalarimga ozor bermang. Ular juda qo’rqoq...*
- *Unda haqqing yo’q, endi!*

⁴⁶Курулбой кизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 44-бет.

- *Dilshodning anginasini bor. Sovuq narsa yeb qo'ymasin. Iltimos. Isitmasi ko'tarilib ketsa sudurga tutib qoladi.*
- *Erimning ko'ngli uchun tutqanoq bolalaringni boqishga rozi bo'ldim. Jig'imga tegsang, ikkalasiniyam yo'q qilvoraman!*
- *O, yo'q, yo'-o'q... - Go'shak qo'lidan tushib ketgan Go'zal devorga suyanib qoldi-yu, onasi yordamga yetib kelguncha "shilq" etib yoniga quladi.*
- *Go'zal, senga nima bo'ldi? Go'zal... Hoy, kim bor? Yordam beringlar! – Mashhura opoqijon holatda baqirib eshik tomon yugurdi.*
*Sulayib yotgan Go'zal g'ayritabiiy jazavadan qaltirar, tishlari takillar, og'zidan ko'pik sachrar, ko'zlari dahshatli ravishda olayib ketgandi.*⁴⁷.

Adiba Go'zal obrazini aniq tasvirlaydi. U barcha xotinlar singari o'z turmush o'rtog'ining barcha xatti-harakatlarini aniq biladi va hikoyada bayon etib turadi. Shu bilan birga uning ruhiy holatidagi o'zgarishlar to'planib kelgan orzu –armonlarning portlagan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari dialogdan ham unumli foydalanadiki, bu asosan ikki ayolning obrazini yoritishda yaqindan yordam beradi. Yuqoridagi parchada Go'zalni mehribon, oqko'ngil ayol sifatida aks ettirgan bo'lsa, Marhaboni esa shafqatsiz ayol ekanligini ochib tashlaydi.

“Quyosh men tomonda” hikoyasida yana bir qancha obrazlar: Mashhura opoqi, Karomat, Kamola, Go'zalning keliyisi kabilar keltirilganki, bu obrazlar hikoyani jonlatirish bilan birga hayotdagi qiyinchiliklarni ko'rsatishda ham xizmat qilgan. Bu kabi obrazlarni ifodalash ham yozuvchining mahoratidan dalolat.

Adibaning “Quyosh men tomonda” hikoyasida birorta portret zichilmagan Biroq, shunga qaramasdan hikoyadagi voqea va Go'zalning qismati ancha jonli aks ettirilgan.

Zulfiya Qurolboy qizining aksariyat hikoyalarida cheksiz hayotiy sinovlar, kuchli ruhiy iztiroblar girdobidagi qahramonlar tasvirlanadi. Adiba

⁴⁷Куrolбой кизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 61-62-бетлар.

hikoyalarida batafsil bayon qilish yo'ldan bormaydi. "Chunki hikoya janri batafsil bayonni ko'tarmaydi"⁴⁸.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari zahirida qandaydir sir-sinoat yashiringan bo'ladi, anglash, tushunib yetish qiyin bo'lgan tasvirlar uchramaydi. Adiba hikoyalarida ixcham tasvirlar qo'llaydi, so'zlarni topib ishlatadi. Bu esa obrazlarning ruhiyatiga kirib borishiga yordam beradi hamda adibaning mahoratini ko'rsatuvchi omilga aylanadi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Hilola" hikoyasi quyidagi jumalalar bilan boshlanadi: *"Uch kunlik hilolni ko'rganmisiz? Nozikkina, rangpar, xira yog'du sohib turuvchi uch kunlik hilol... bir qarasangiz yorqin, yana bir qarasangiz zarrin nurlari borliqni yoritishga kuchi yetmayotgandek behold... Unga tikilayotganingizda kimdir yodingizga tushmaydimi? Yo'qmi?"*

Men esa...

*Men esa har doim oy yangilanganda qoramtir osmonning bir chetida iymajibgina turgan hilolni ko'rishim bilan dugonam Hilolani esaga olaman"*⁴⁹.

Demak, prologda berilganidek Hilola hikoyachining yaqin dugonalaridan biri. U har doim yangi hilolni ko'rganida mana shu qizning xayoloti qalbini egallaydi. Asarda Hilolaning o'ziga xos portretini ham berilgan: *"Hilola. Hilol misol nozik, rangpar, yupqa lablari qonsiz... Quyuq kiprikli shahlo ko'zlari goh ma'sum, goh qayg'uli, ba'zi-ba'zida, kayfiyati a'lo vaqtlarda sho'xlik-mug'ombirlik bilan boqadi. Sochini har doim silliq tarab, turmaklab yuradi. Va bu unga juda yarashardi. Kitoblarda tasvirlangan oyimqizlarga o'xshab ketardi"*⁵⁰.

Muallif Hilola portretini chizar ekan, uni ko'rimligina qiz deb tasvirlaydi. Hilola gohida ma'yus boqsa, gohida sho'x boqadi. Sho'x boqishlari kamdan-kam holatlarda. Asar o'qish jarayonida bu boqish nega kamdan-kam ekanligi ayonlasha boradi. Hikoyachi Hilola bilan maktabga ishlab yurganida tanishganligini ta'kidlaydi. U sakkiz yosh katta bo'lishiga qaramay uni muallif

⁴⁸Каримов Х. Наср бахшиси. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. 11-бет.

⁴⁹Қуролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 65-бет.

⁵⁰Қуролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 65-бет.

dugonam deya ayta boshlaydi. Nega dugona? Ko`pincha turmushga chiqmay Yoshi o`tgan qizlarga nisbatan ham dugona so`zi ishlatiladi. Shu sabab muallif Hilolani dugonam deya atay boshladi. Bu vaqtda Hilola 25-26 yoshlarga kirgan, darsi maktabda rosa ko`p, ikki smenada ham dars berar edi. Darslarni sof ko`ngil bilan o`tganligi sababli ham maktab direktori uning darslarini ko`maytirar, undan darslarni ayammasdi. Hilola bilan muallif yaqin sirdoshga aylanadi. Hatto qalbini larzaga solayotgan ruhiy qiynoqlarni ham aytadi: *“Mening o`rnimda bo`lganingda, bilarding. Agar ishonsang, uyga borgim kelmaydi. Maktabda ishlagim, umuman qishloqda bosh ko`tarib yurgim kelmaydi. Uyalaman. Odamlardan uyalaman. Hamma qo`lini bigiz qilib meni ko`rsatayotgandek. “Qariqiz, hech kim uni olmaydi”, deyayotgandek tuyuladi. Uyda bo`lsa... ukalarimning, kelinlarimning yuziga qaray olmayman. Kelinlarim bolasini erkalasa, erlari bilan hazillashishsa men yerga kirib ketay deyman. Ichimda nimadir chirt-chirt uziladi. Dam olish kunlari hovlida biror yumushning boshini tutishim bilan kelinlardan biri yugurib kelib, qo`limdan oladi. “Siz qo`yavering, o`zimiz qilamiz”, deyishadi odob bilan. Lekin bu so`zlar mening qulog`imga boshqacha eshitiladi: “Ro`zg`or bizniki, siz aralashmang”. Kichik kelinimizni maktabda o`zim o`qitganman. Kelinlikka ham men tavsiya qilganman. Hozir u bolalik bo`ldi. Men bo`lsam...*

Ularning oldida aybi bor odamdek yuzim shuvit. Hali ham qiz bola, degan nomdan qanchalik uyalishimni bilsang edi. Mana shu, o`zimizning Shomahmud muallimni bilasan-a? Suyuqoyoq. Qaysi ayol ko`ziga yaxshi ko`rinsa, o`shaning ketidan qolmaydi. Uning xotiniga hammaning rahmi keladi. Aldanib yashayapti deb. Mening esa... hatto o`sha ayolga ham havasim keladi. Har qalay yaxshimi-yomonmi, boshida eri, bola-chaqasi bor. Menchalik o`zini yolg`iz his etmaydi. O`ziga bek, o`ziga xon. Topsa yeydi, topmasa yo`q. men bo`lsam ikki smenalab ishlab ham tuzukroq kiyina olmayman. Uydagi kelinlardan istihola qilaman. Topganiga kiyim olishdan boshqa nima tashvishi bor uning, deyishlarini istamayman. Maoshimni tiyin-tiyinigacha hisoblab onamning qo`liga beraman.

Katta ro'zg'orni qanday eplashni bilmay boshi qotgan onam xursand bo'lib qoladi. Menga shuning o'zi kifoya...

*Hilolaning ko'zlaridan shashqator yosh oqar, yuzi dokadek oqarib ketgandi. Yig'layotganini Hilolaning o'zi ham sezmasdi chog'i. u behushdek, bir nuqtaga qadalgan qorachilari qotib qolgan, vujudi ham toshga aylangandek qilt etmasdi...*⁵¹.

Muallif uning dardini yozar ekan, uni qiynagan va har doim azoblab kelayotgan dardi oddiy holatda ayta olishligini sezadi. Shu sababli Hilola o'z dardini aytayotganida ko'zlaridan shashqator yoshlar oqadi. Bu qalb izhoridan so'ng Hilola ancha vaqt o'z dugonasining ko'zlariga qaray olmaydi. Uning yonidan tezda o'tib ketishga harakat qiladi. Dardlari biroz susaygach, Hilola yana oldingi hilolaga aylanadi. Biroq kunlar o'tgan sayin uning ko'z ostida sulg'inlik alomatlari, ajinlar ko'paya boshlaydi. Chunki bu dard Hilolani ichidan kemirib kelayotgan edi. Adiba Hilola portretini jonli qiyofada chizadi. Undagi o'zgarishni mohir rassom sifatida tasvirlay boshlaydi. Hilolaning nafaqat tashqi portreti va ichki g'alayonlari ham adiba nigohidan chetda qolmaydi.

Hilolaning yuzlari, ko'zlari, lablari jilmayib tursa-da, nigohlarida chek-chegarasi yo'q anduh aks etardi. Hilola nega ota-onasi bor sovchilarni qaytarishiga tushunmas, bu esa uning butun vujudini ezar va azoblar edi. Xuddi shunday azoblar bilan yana bir necha yillar o'tib ketdi. Bu vaqt oralig'ida muallif oilali bo'lib, ikki marta onalik ta'tiliga chiqib ketadi. Bu davrga kelib Hilola ham ancha o'zgargan. Endi o'z dardini aytmas, pana-panada yig'lab-siqtamasa, nola qilmas, ota-onasini yozg'irmasa, aksincha o'zini quvnoq ko'rsatishga harakat qilardi. Hilolaning ruhiyati, xarakteri asta-sekinlik bilan o'zgarib borardi. Mana endi u yosh turmush qurgan dugonalarining ustidan kular, ularni qarimsiq deb atay boshlagan edi. Dugonalar esa Hilolaga hech so'z demasa, kulib qo'ya qolishardi. Hilola shu darajaga birib yetadiki, oltmishga kirgan chol bo'lsa-da u bilan turmush qurishga tayyor. Uning dardlari oxir-oqibat dugonasining g'ashini keltira boshlaydi. Mana endi soatlab uning dardini

⁵¹Куролбой кизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 68-бет.

eshitib o`tiradigan dugona ham undan o`zini olib qocha boshlaydi. Hilola esa yolg`izlanib qoladi. Ilk ko`klam kunlarining birida Hilola ham oila qurish arafasidagi quvonchli xabarni eshitadi. Bu xabarni Hilolaning o`zi yonib-toshib aytib beradi: *“shu chog`da uni bir ko`rsangiz edi! Shahlo ko`zlari chaqnar, rangpar yonoqlari lov-lov yonar, hamisha iztirob bilan qimtilgan lablarida yuraklarni o`rtab yuborguvchi tabassum jilvanardi”*⁵².

Hilolaning to`yi bo`lib o`tdi. Bu quvonch ko`pga cho`zilmadi. O`n kunlardan so`ng Hilola olamdan o`tibdi xabari butun maktabni egalladi. Barcha uning yor-yor aytib borgan uyiga borishdi. Ana shundagina hikoyachi asl haqiqatni anglab oldi. U ayollar yoniga kelar ekan butun tafsilotni Hilolaning xolasidan eshitadi. Hilola gemofiliya bilan og`rigan, shifokorlar uni turmushga berish mumkin emasligini ta`kidlaganliklari sababli ota-onasi umuman turmush qurishiga qarshilik qilishgan. Lekin busafar Hilola ularning aldashlariga ham quloq solmagan. Natijada ota-ona unga kasalligi haqida xabar berishgan edi. Hilola bu kasallikning oqibatini bilsa-da, o`z qaroridan qaytmaydi. U hatto qon ketayotganligini birorta yaqiniga ham aytmaydi. Boz ustiga u qaynonasiga issiq non pishirib berish uchun shu ahvolda tepalikdan tuproq tashiydi. Oxir-oqibat holdan toyib yiqiladi. Uni shifoxonaga keltirishganlarida ancha og`irlashib qolib, ko`p qon yo`qotgan edi. Unga qon quyishganida ham bu qon organizmiga to`g`ri kelmaydi. Shu sababli Hilola olamdan o`tadi.

Asar prolog bilan boshlangan va unda yangi oying yorqin charaqlashi ko`ngilga biroz taskin va ko`ngilni g`alayonga keltiruvchi voqealarni yodga solinishi aytilgan edi. Xuddi shu prolog mana endi epilog sifatida ham beriladi. Shu fikrlar esa yana takrorlanadi. Asar ishonarli voqealarga boy va o`quvchi qalbini larzaga soluvchi voqeasi bilan yodda qoladi.

Zulfiya Qurolboy qizi o`zbek hikoyachiligida yosh ijodkorlardan biri bo`lsa-da, hikoyachilikda mahorat ko`rsata olgan adibadir. Ijodkor o`z hikoyalarida badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanadi. Hikoyalardagi portret, peyzaj va interyerlar asar g`oyasini ochish uchun xizmat qilgan.

⁵²Қуролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. 73-бет.

“Tafakkur” hikoyasida shaxmat, “Hilola” hikoyasida tandir, “Rashk” hikoyasida atir-upa hamda tappi va boshqa detallar asar mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adiba qahramonlar xarakterini ochishda psixologik portretdan unumli foydalangan. “Yovuzlik farishtasi” hikoyasidagi G’ulom Sayyid, “Quyosh men tomonda” hikoyasidagi Go’zal obrazining psixologik portreti bunga yaqqol misol bo’la oladi. “Rashk” va “Kelin” hikoyalaridagi Xoldor va Xosiyat obrazlarining psixologik portretlari esa o’ziga xos va takrorlanmasligi bilan e’tiborni tortadi.

Yozuvchi hikoyalarida mimika harakatlarini ham obrazlarning ruhiyatini yoritishga xizmat qildirgan. Shu maqsadda “Hilola” hikoyasida bosh qahramon Hilolaning mimik harakatlari aniq tasvirlangan.

Xullas, Zulfiya Qurolboy qizi o`z hikoyalarida obrazlarning ruhiyatini ma`lum bir vositalar yordamida yaratadi. Bu vositalar esa o`z navbatida obrazlarning ruhiyatiga chuqur kirib borishga zamin yaratgandir.

III BOB

YOZUVCHI ROMANLARIDA XARAKTER VA KONFLIKT BIRLIGI

Badiiy adabiyot o'zining rang-barang obrazlari va xarakterlari bilan o'quvchi qalbini o'ziga oshufta etadi. Bu oshuftalik tabiatning eng go'zal bo'lgan jihatlari va jarayonlari bilan bog'lanadi. Yozuvchilar obraz yaratarkan, albatta, bu obrazning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida unga jon baxshida etadi. Shu sababli o'quvchi bu obrazlar bilan tanisharkan u bilan birga yashaydi, uning dardi o'quvchi dardiga aylanadi. V.G.Belenskiy: "... Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo'q. Hamma qismlar butunga bo'ysungan, hammasi bitta maqsadga yo'naltirilgan, hammasi birlikda bitta go'zallik, yaxlitlik, individualni maydonga keltiradi"⁵³, – deydi. "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi"da obraz atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "(ruscha obrazit – paydo qilish) san'at va adabiyotda hayotni badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilgan narsa va hodisa, manzara, xarakter, so'z va iboradir"⁵⁴. "Adabiyotshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmasida: "Badiiy asarlarda mazmun va formaning, tema va g'oyaning birligini o'zida ifodalovchi asosiy vosita obrazdir"⁵⁵ – degan xulosa berilgan. Izzat Sulton esa: "Obraz – insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri"⁵⁶ – deya ta'kidlaydi. T.Boboyev: "Badiiy obraz – obrazlilik tushunchasining o'zagi"⁵⁷ – degan fikrni bildirsa, Hotam Umurov: "Obraz" atamasi "raz" ("chizmoq") so'zidan olingan bo'lib, "razit" ("chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq") va undan "obrazit" ("chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq") so'zi yasalgan. "Obrazit"dan ("umuman olingan tasvir") vujudga kelgan"⁵⁸ – deya e'tirof etadi. Adabiyotshunos D.Quronov esa: "...biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy

⁵³Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. 101-бет.

⁵⁴СаллаевФ., Г.Курбонниёзов. Адабиётшунослик атамаларининг изохли сўзлиги. –Т.: Янги асп авлоди, 2010. 170- бет.

⁵⁵Шукуров Н. ва бош. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1984. 53-бет.

⁵⁶Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O'qituvchi, 2005 yil, 103-бет.

⁵⁷Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. 41-бет.

⁵⁸Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004 yil. 32-бет.

obrazni nazarda tutamiz”⁵⁹ - deya ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, obraz nusxa ma’nosini anglatib, asarda jonli ifoda tarzi bilan yo’g’rilgandir.

“Badiiy qadriyatlar odatiy mavjudlik darajasi bilan cheklanmaydi, balki ruhiy-ijtimoiy munosabatlar tanlovining ma’no yaxlitligi tizimi aniqlovchisi sari yo’naltiradi. Hayot haqiqatidan o’sib chiqadigan adabiy ifoda obrazlar murakkab tizimi kashf etiladi. Doimiy o’sish-o’zgarishlar silsilasida tasvirlanadigan qahramon shaxsi asarning poetik to’qimalarini birlashtirib turadigan estetik markaz hisoblanadi. Aslida, ijtimoiy muhitga ongli-sog’lom munosabat badiiy xarakter yo’nalishini belgilaydi”⁶⁰— deb yozadi A.Nosirov.

Prof. H.Umurov yozishicha: “...yozuvchi o’z g’oyasini asar to’qimasiga, undagi qahramonlarning o’y-xayollari, orzu-intilishlari, quvonch va dardlari, baxt va fojialariga singdirib yuboradi. Ana shu qahramonlarning hayoti, taqdiri va ularni tug’dirgan, o’stirgan xalq hayotining haqqoniy tasviri orqaligina o’z g’oyaviy pozitsiyasini, asar g’oyasini kitobxonga “yuqtiradi”, uning hislarini uyg’otadi, fikrlarini qo’zg’atadi. Realistik san’atning talablaridan muhimi ham shu: yozuvchi hayotning haqqoniy manzarasini yaratar ekan, qahramonga bo’lgan munosabatini oshkora aytmasligi, unga nisbatan xolis va beparvo bo’lishi, uni o’zidan ajratishi va unga uzoqdan razm solish lozim”⁶¹.

Mustaqillik davri o’zbek adabiyoti janrlar borasida shakllangan tasavvurlarni buzishi, yaratilayotgan asarlarning nazariy qoliplarga tushmasligi bilan xarakterlanadi. Zero, ijod erkinligi faqat “nimani yozishga emas, balki “qanday yozishga” ham tegishlidir. Istaganiday yozish erki ijodiy tajribalar o’tkazish imkonini beradi. “Armon asirasi” shu jihatdan ajralib turadigan asardir. Unda “romantik tafakkur” yaqqol sezilmaydi. Asarda oddiy odamlarning oddiydan ham jo’n tashvishlari aks etgan. Romanda millat tarixi taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichidagi ulkan ijtimoiy voqealar, siyosiy

⁵⁹Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.63-bet.

⁶⁰Носиров А. Одил Ёкубов романлари поэтикаси. -Т.: Фан, 2012. 119-бет.

⁶¹Умuroв Х. Бадий психологизм ва ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. 96-бет.

evrilishlar emas, balki o'z mavjudligini ta'minlashga-da nochor, kunini ko'rishga zo'r berib urinayotgan, ammo shuni ham uddalay olmayotgan kishilarning ayanchli taqdiri tasvirlangan.

“Armon asirasi”da o'zligini saqlash, o'z qiyofasiga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmagan odam, uni hamisha turlanib-tuslanish, eshilishga majbur etadigan vaziyat va shu holatda tirikchilik o'tkazishga mahkum shaxslarning mavjudligidagi fojaviylik va ularning sezimlaridagi titrama jihatlar ulkan xayrixohlik bilan tasvirlangan. Ayni vaqtda, asarda har qanday battol sharoit ham chinakam odamning shaxsiyatidagi o'zak sifatlarni o'zgartira olmasligi aks etgan.

Ushbu romanda personajlarning tabiati ruhiyatlarining ekstremal holatlarida eng yashirin jihatlariga qadar teran aks ettirilgan. Asarda Zulfiya Qurolboy qizi milliy adabiyotimiz tajribasida qaror topgan romaniy tartiblarga unchalik rioya etavermaydi. Odatda, romanda hayotdagi voqealarning ijtimoiy salmoqqa ega, qahramon tabiatini ochishga xizmat qiladiganlarini saralab tasvirlash talab qilinadi. Zulfiya Qurolbiy qizi esavoqealarni muhim-nomuhimga ajratmaydi, qahramonlari xarakterini o'ta jo'n, mayda va hatto, tuban maishiy voqelik fonida ko'rsatishdan ham tap tortmaydi. Bu xil yondashuv, ko'p o'rinlarda, obrazlarning mihoyatini ochishda adibaga qo'l kelgan.

“Armon asirasi” asarida bosh qahramon degan atamaga har jihatdan mos keladigan obraz yo'q. Romandagi biror timsolni ham yirik shaxsiyat egasi deyish mumkin emasday. Na asardan eng ko'p joy olgan Nasiba, na umri fojialar girdobida o'tgan Donish, na prototipi muallifning o'zi deyish mumkin bo'lgan Hulkar Armon, na qismatga achchiqma-achchiq yashayotgan Behzod va na yovuzligi bilan hammaning ko'ngliga dahshat solib turguvchi Talgat nafaqat ijtimoiy hayotni o'zgartira oladi, balki o'z tirikchiliklarini tuzuk yo'lga qo'ya olishadi. Ularning birortasi ham qahramon darajasiga chiqolmagan kishilar. Shunchaki kun kechirish yashash bo'lmaganiday, tirikchilik o'p'qoniga yutilgan odam qahramon bo'lolmaydi. Ko'rayotgan kunidan yuksak bo'la turib, o'ziga munosib kun ko'rishni eplolmagan odam ham qahramon sanalmaydi.

Hozirgi ko'pchilik romanlarda yalang'och mafkuradan tashqarida turishga intilish ko'zga tashlanadi. Bugun romanchi hech kimni hech qanday g'oyaga da'vat qilmaydi, yo'l ko'rsatmaydi. U oldingidagiday tipik sharoit va umumlashma obrazlarni emas, istalgan bir holatdagi duch kelgan mayda va qiyofasiz kimsalarni ham tasvir fokusiga olaveradi. Adiblar turg'un xarakterlardan ko'ra, o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalashga ko'proq intilishadi. Zero, hozir o'zgarishlar tinimsizligidan boshqa turg'unlik yo'q.

Milliy romanchilikda ojiz, kuchsiz, azoblarga mahkum individlarni tasvirlash tamoyili kuchayib borayotganligi ularning kitobiylikdan qutulib, hayotga yaqinlashishiga sabab bo'lmoqda. Chunki kecha badiiy e'tibordan chetda bo'lgan "kichkina odam"ning ko'ngil olami aslida bepoyon ekani anglab yetildi. Insoniy taqdirlarning evrilishi tarixi ko'rsatmoqdaki, "katta" bilan "kichkina" odam o'rtasidagi oraliq, ko'pincha, bir qarich ham chiqmaydi.

"Armon asirasi" asarida favqulotda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari, shu asnoda ularning tabiatidagi ro'y bergan hissiy-ma'naviy evrilishlar mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan. Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgarmas va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifatlari hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi, yuksaladi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning moddiy holatidagina emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilgichlik bilan ko'rsatilgan.

Zulfiya Qurolboy qizi timsollar mohiyatini yorqin aks ettiradigan qirralarini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u Nasibaning ruhiyatidagi evrilishni birgina ovoz detali orqali to'liq ko'rsata olgan. Romanda soddagina Nasiba o'zini tekshiradigan, xatti-harakatlarini taftish qiladigan o'y kishisi sifatida tasvirlanadi. Nasiba timsolida adoqsiz mashaqqat, so'ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg'usidan ayirolmagan o'zbek ayoli tasvirlanadi. Oilasi tinchligi, bolalari sog'lig'i, erining xotirjamliginigina o'ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal etishni da'vo qilmaydi, shohona

hayotni orzu qilmaydi, odam qatori yashashnigina istaydi, xolos. U qahramon ham, donishmand ham, buyuk ham emas. Lekin u odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo'lishi mumkin emasligini biladi, odamlarga ishonadi va ezgu kunlar kelishiga chindan umid qiladi. Ana shu umidi uni ulug'laydi. Zero, shayton va uning yo'lidan ketayotganlarga umiddan mahrumdirlar.

Asar boshida Nasibaning kunlik hayoti bilan tanishamiz. U har qanday o'zbek ayoli sifatida eriga sadoqatli, mehrli inson sifatida gavdalanadi. Biroq asarda Nasibaning o'y-xayollari va kechinmalari, voqealarga bo'lgan ruhiy holatlari to'liq yoritilmaydi. Voqealarga bo'lgan munosabatini e'tiborga oladigan bo'lsak, Nasiba xarakteri ham to'liq ochib tashlanmaydi. Yozuvchi xulosa chiqarish va uning ruhiy holatini anglab yetishni kitobxonning o'ziga qoldiradi. Biz asarni o'qir ekanmiz, Nasiba yaqinda uch xonali uyni ikki xonali uyga almashtirib o'z qarzlarini to'lagan, biroq kelajagini yaratish uchun qo'lida qolgan puli yetarli emasligi ayonlasha boradi. Biz bu holatlarni Lola opa ismli ayolning Nasibaning uyiga kelishi va undan qarzini talab qilishi orqali bilib olamiz. Nasiba asar boshida o'z qarzlarini to'lashga astoydil kirishadi. Hatto ro'zg'orini tebratish uchun eski kiyimlar bozoriga chiqib savdo qilishga majbur bo'ladi. Turmush o'rtog'i bor bo'lsa-da, biroq Nasiba unga suyana olmaydi. Natijada uning ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Qachonlardir erini butun jahonda yagona suyanchiq tog' sifatida ko'rgan bo'lsa, asta-sekinlik bilan Donishga bo'lgan munosabati o'zgara boshlaydi. Uning har doim ichib kelishi, ro'zg'or tebratish uchun qarzga botishi, Nasiba bergan pulni o'g'irlatdim deb uyiga kelishi Nasibani butkul o'zgartiradi. U bozorga chiqa boshlagandan so'ng esa Donishga umuman ishonmay qo'yadi. Uni qo'lga pul berishni istamay qoladi. Keyinchalik bu ishidan pushaymon bo'ladi va qilgan ishining gunohi sifatida Talgat ismli begona erkakni boqishga o'zini majbur deb hisoblaydi.

Yozuvchi Nasibaning xatti-harakatlari orqali uning ruhiy holatini bera boshlaydi. “- *Pulni... yo'qotib... qo'ydingizmi?...*

Qorachiqlari kengayib ketgan Nasiba dahshat ichida pichirladi.

- *Oldirib... qo`ydim... - yerga qaragancha ming`irladi Donish, xayolida esa: “Chindanam kuppa-kunduzi tunab ketdi-ku, Jamshid!..” degan o`yni o`tkazdi.*

- *Sho`rim qursin...*

Yuzi qordek oqargan ayol devorga behol suyandi. Bir daqiqadan keyin peshonasida reza-reza ter tomchilari paydo bo`lib, lablari atrofi ko`karib tez-tez, qisqa-qisqa nafas ola boshladi.

- *Senga nima bo`ldi?*

- *Bilmadim... Bo`shashib ketyapman... - dedi Nasiba zo`rg`a.*

- *Bir pas yotib dam olsang, o`tib ketar. Yur-chi.*

Donish xotinini suyab yotoqxonasiga olib o`tdi. U Nasibaning ahvolini ko`rib qo`rqib ketgandi: “Bu mening yolg`on so`zlarimga o`rganib qolgan. Rost gapni ko`tara olmadi, bechora...”

Nasiba bir soatdan mo`lroq inqillab, oh urib yotdi. Keyin asta-sekin tinchlana boshladi. Yana biror soat o`tib ayol butkul tinchib qoldi. U shiftga tikilganicha tek qotib yotar, na vujudi, na vujudidagi biror tuk “qilt” etardi. Donish bu ahvoldan battar qo`rqdi.

- *Nasiba, tuzuk bo`lib qoldingmi yo do`xtir chaqiraymi? – deb so`radi u bir necha marta.*

Nasiba esa miq etmasdi. Ammo qo`rqinchli tush ko`rib uyg`ongan odamday ko`zlari olayib Donishga qarab qo`yardi”⁶².

Ushbu parchadan ko`rinib turibdiki, Nasiba oxirgi qolgan pullarini Donishga bergan, biroq Donish har safargidek Nasibani aldaydi. Nasibaga esa bu oxirgi tomchi bo`lib qo`yiladi va bu holatni boshqa ko`tara olmaydi. Shu sabab uning ahvoli o`zgaradi. Rangi oqarib tez-tez nafas ola boshlaydi. O`zini yomon his etadi. shu ahvolda ham Donishga hech qanday so`z aytmaydi. Tongga yaqin ahvoli biroz yaxshilanadi va ayol o`z ishlari bilan band bo`ladi. Adiba ayolning ahvolini ko`rsatish uchun ham mimikadan unumli foydalanadi. O`quvchi esa o`z navbatida Nasibaning ahvolini ko`z oldida jonlantira oladi.

⁶²Курулбой кизи З. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 55-бет.

Oldin asarlardagi adabiy timsollar o`z nomiga muvofiq tarzda timsol bo`lardi. Ya`ni badiiy asarda tasvirlangan personaj kimlarningdir umumlashtirilgan obrazi, qandaydir ijtimoiy qatlamning vakili sanalardi. Endilikda adabiy obraz faqat o`zining timsoli, faqat o`zining vakili xolos! Badiiy asarda odamni to`daning vakili emas, bitta va betakror shaxs sifatida aks ettirish, unda biror ijtimoiy qatlamga xos xususiyatni emas, balki yolg`iz ungagina tegishli yaxshi-yomon sifatlarni tasvirlash shu xil estetik natijaga olib keldi.

Bu jihatdan Donish timsoli juda xarakterlidir. Uni tushunish va yoqlash qanchalar qiyin bo`lsa, qoralash va rad etish ham shunchalar mushkul. Bu personaj tabiatini belgilashda yozuvchi pozitsiyasining noaniqligidan emas, balki asarda odam tabiatidagi o`zgaruvchanlik va barqarorlikning to`g`ri ko`zda tutilganidandir. Garchi, romanda Donishning o`tmishi bir qadar yorqin ranglarda eslansa-da, aslida tabiatidagi betayinlik, o`jizlik, qiyinchiliklarga betoqatlik uning har bir xatti-harakatida uch berib turadi. Adiba shu timsol misolida o`zgani tuymoq va tushunmoq bilan uning uchun birgina amaliy qadam qo`ymoq o`rtasida cheksiz masofa borligini ko`rsatadi. *“Nasiba xafa bo`ldi. Lekin erining gap ohangi, dadil gapirishi ko`nglida nedir umid uyg`otdi. Ayol erining fe`lini yaxshi bilib olgan, Donish qo`liga to`rt-besh so`m tushsa yo aytaylik uch-to`rt kundan keyin tushadigan bo`lsa, shunaqa, eshikdan g`o`ddayib kirib keladi, gap ohangi ham o`zgaradi. Go`yo ming qo`yli boyday atrofga, xotiniga tepadan qaraydi, o`zicha g`o`ddayadi. Bunaqa paytlari Nasiba erining bolalarcha qilig`iga e`tibor bermaslikka harakat qiladi, ammo ayni paytda ichi qizib, erining burnini ko`tarib qo`ygan pul miqdori qancha ekanligini bilib olishga jon-jahdi bilan urinadi. Aksincha, Donish cho`ntagida hemirisi qolmagan vaqtlarda esa u yo suvga bo`kkan mushukday shumshayib keladi, yo Nasibaning qosh-qovog`iga mo`ltirab qarab, xushomadlarga ko`mib tashlaydi, ba`zida esa*

o`zini anqovlikka solib shunaqangi ablahliklar ham qiladiki, bunday kezlarda Nasiba erini bo`g`ib tashlagisi keladi”⁶³.

Asarni o`qish jarayonida Donish oliy ma`lumoti bo`lsa-da, boshi berk ko`chaga kirib qolishiga sabab bo`lgan voqealar zamiriga anglay boshlaymiz. Donish qachonlardir injener bo`lib ishlagan, biroq zavodning bankrot holatiga kelishi sababli u ishini tashlab chiqib ketishga majbur bo`lgan bo`lsa, ikkinchi holatda o`g`li Farruxning oyog`I sinib shifoxonaga yotishi va uning sog`ligini tiklash uchun ancha qarzga botishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari uning og`ir ahvolda qolishiga buzuv mashinani olib kun ko`rish uchun harakat qilishida ham kuzatsa bo`ladi. Donish har doim og`ir ahvolga tushsa ham undan kerakli xulosa chiqara olmaydi. Natijada kundan kunga ahvoli og`irlashib hech qanday ishga yaramaydigan, biror so`m qo`liga tushsa pivoxo`rlikka chopadigan odamga aylanadi.

Donishning noto`g`ri ishlar qilishi va yolg`on va`dalar to`qishi natijasida uch xonali uy ikki xonali uyga aylanadi. Shunda ham ular ahvolini yaxshilay olishmaydi. Donishning har bir harakati oilasini halokat yoqasiga olib keladi. “*Donish kipriklarini pirpiratganicha xotiniga tikilib turdi-turdi-da, so`ng:*

- *Qaysi kuni jo`nashimiz samolyotga bilek olganimizdan keyin ma`lum bo`ladi, - deya to`ng`illadi.*
- *Oling biletni, qancha tez bo`lsa, shuncha...*

Nasibaning gapi chala qoldi.

Donish kutilmaganda porox to`ldirilgan bochkadek portladi. U avval irg`ib o`rnidan turdi, turayotib dasturxonni siltab tortib yubordi, choynak-piyola pastga ag`darildi. Shundan keyingina u:

- *Cho`ntagimda yo`l pulidan boshqa hemiri bo`lmasa, bitimga olamanmi! – deb baqirdi qo`llarini paxsa qilib, ko`zlari xonasidan chiqqudek bo`lib*”⁶⁴.

Donish shu ahvolga yetadiki oxir-oqibat o`zining yolg`oniga o`zi ham ishona boshlaydi. U Nasibaga ro`yi-rost, bor haqiqatni ayta olmaydi. Ya`ni, ishdan

⁶³Қуролбой қизи З. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 25-бет.

⁶⁴Қуролбой қизи З. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 25-бет.

ketganligi va boshqa ishga joylasha olmaganligi, bekorchi insonga aylanganligi kabilar. Bir yolg'on ikkinchi yolg'onni yetaklaydi. Natijada oxirgi pullaridan ham ayriladi.

Albatta, Nasiba bozorga chiqib savdo qila boshlaganidan so'ng Donish oilasining ahvoli biroz yaxshilanadi. Biroq, o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas deganlaridek Donish Nasibadan yashirib pul yig'a boshlaydi. Uning orzu-istaklariga keladigan bo'lsak, Hulkarning "Lotoreya" hikoyasidan so'ng lotoreya ishqiboziga aylangan va uning orzusi ham lotoreyada yutuqqa ega bo'lish edi. Bu orzu ortidan chopgan Donish o'zining boshiga yangi g'alvani orttiradi. U lotoreya sotib olib, uyiga olib keladi. Unga yutuq neksiya mashinasi chiqadi. Uning quvonchi cheksiz edi. Nasiba esa o'z navbatida oilasining ahvolini yaxshilash niyatida va uyini yana uch xonali qilib olish niyatida neksiyani olgandan so'ng uni sotishni talab qiladi. Donish har safargidek xotiniga va'da beradi, biroq va'dasining ustidan chiqa olmaydi. Albatta, buning sabablari bor. Lotoreyani tekshiradigan va uni sotuvga chiqaradigan idora qing'ir ishlarini boshlab yuboradi. Ular sovrin yutganlarning yutug'ini berishni xayollariga ham keltirmaydilar. Talab qilganlarni esa qo'rqitib, urib, zo'ravonlik bilan o'z fikrlaridan qaytishiga majbur qilishadi. Donish ham xuddi shunday holga tushadi. U ishonib, yutuqni olaman deydi, ammo idoradagilar uni urib lotoreyasini tortib olishadi. Bir ahvolda uyiga keladi va yana o'z fikridan qaytmaydi. Oxirgi marotaba o'sha idoraga borganida idoradagilarning birortasi ko'rinmaydi va u mana endi haqiqiy boshiga tushgan kulfatni seza boshlaydi. Adiba uning ruhiy holatini quyidagicha tasvirlaydi: *"Donish quloqlari shang'illayotganini payqab qo'rqib ketdi. Bundan shusiz ham dirillab turgan yuragi bezovtalanib, tez-tez ura boshladi. U har qancha o'zini bosishga urinmasin, hech uddasidan chiqolmasdi. Beixtiyor bilagini ushlab, tomir urishini sanashga kirishdi. Donish keksa qorovulni butkul unutgandi. U nimadir degan edi, javob bermadi, chunki qorovulning so'zlarini anglamagandi-da. Qorovul bir nimalarni g'o'ldiray-g'o'ldiray nari ketdi.*

Donish bir amallab o`rnidan turarkan, birdan boshi aylanib ketdi. Ko`zlarini chirt yumib oldi. Ikki-uch daqiqadan keyin ko`zlarini ochdi, endi boshi aylanmas, lekin ko`z oldida kumush tangachalar raqsi boshlangandi. Oyoqlarida jon yo`qday, boldirlari shu qadar kuchsiz ediki, qadam tashlashga majoli yetmasdi. “Yo tangrim, o`zing menga kuch-quvvat ber, hech bo`lmasa bozorga yetib olay. U yerdagilarning biri bo`lmasa, biri meni taniydi. Bu yerda men hech kimman...”

Donish holdan toygan vujudidagi qolgan-qutgan, oqova kuch-qudratini to`plab, qaddini rostladi, olg`a intildi. Daraxt soyalari bu vaqtda yo`lakni tark etgan, endi ular mashinalar karvoni g`izillab o`tayotgan katta yo`lga tushgandi. Miyasi qizib, boshining terisi allaqanday, g`alati, xuddi jonsizday karaxt bo`lib borayotganini his qilardi. Donish, soyaga o`tish kerak, degan o`y karaxt miyasida g`uvillar, ammo u yoqqa o`tmas, qaltirab-titragancha ketib borarkan, yo`l bilan yo`lakni bir-birdan ajratib turgan beton ariqchadan hatlab o`tishga yuragi dov bermasdi, xuddi ariqcha oddiygina, bir yutim suv jildirayotgan ariqcha emas, judayam ulkan anhordek, hatlab o`taman deb unga yiqilib tushadigandek tuyulardi.

Donish o`rnidan jildi. Bir amallab, ming hadik va vahima ichida ariqchadan hatladi. Oldinda keng-mo`l yo`l yastanib yotardi. Mashinalar tig`izligi-chi tag`in. Mashinalarning quyosh nurida yaltirayotgan oynalari Donishning ko`zlarini qamashtirdi. Beixtiyor ko`zlarini yumib oldi u. Keyin yana ochdi. Endi sal bir navi edi. Donish avaylanib qadam tashlagancha mashinalar izdihomiga yaqin keldi. Motorlarning gurillagan ovozlari, chiyillagan signallar bir zumda qulog`ini qomatga keltirdi. Yashil chiroq ancha narida edi, shu bois mashinalar harakati sal taysallagach, Donish qaltirayotgan oyoqlarini kuch bilan o`ziga bo`ysundirib olg`a intildi. Biroq ikki qadamni bazo`r tashladi, birdan boshi aylanib, ko`zi tindi, oyoqlaridan mador qochdi, tusmollab, taxminan yana yurmoqqa shaylandi, ammo muvozanatini yo`qotdi-

yu, gursillab yiqildi. Chap tarafdin shitob bilan kelayotgan mashina haydovchisi tormozni bosishga ulgura olmadi... ”⁶⁵.

Asarda Donish fojiali halok bo`ladi. Donish ruhiyatidagi har bir o`zgarishni adiba mana shu fojia tomon yetaklaydi. Boshqa personajlarga qaraganda Donish xarakterini va uning ruhiyati to`liqroq ochiladi. Yuqorida ta`kid etganimizdek Donishni qilgan ishlarini yomonlab ham bo`lmaydi yoki yaxshilab ham. Uni o`z fojiasi girdob bo`lib tortadi va Donish bu girdobdan chiqa olmaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodkor o`z davridan tashqarida, uning ta`siriga berilmay turolmasliginiHulkar misolida nozik ifoda etadi. Bunda u Hulkar Armon tabiatidagi o`ziga xosliklarni ko`rsatish yo`lidan boradi. Hayotning kundalik ikir-chikirlari shunchalar qudratliki, imoni butun bo`lmagan odam o`zi istamagani va bilmagani holda uning oqimiga tushib qolishi hech gap emasligi Hulkarning ijodi misolida ko`rsatiladi.

Hulkar personaji asarning boshidan oxirigacha o`z o`rniga ega bo`lgan obrazlardan biridir. Biz Hulkarni Nasibaning oilasiga yordam beruvchi inson sifatida taniy boshlaymiz. Hulkar o`zi qiynalib yashasa-da, biror marotaba ham Donishga ham yoki Nasibaga ham o`zining og`ir ahvolini ko`rsatmaydi. U har doim yordamga shoshiladi. Biroq Hulkarni boshiga ham og`ir sinovlar tushadi va uni umr yo`ldoshi tashlab ketadi. Mana endi Hulkar nafaqat o`zini balki oilasini boqishni ham zimmasiga olishi kerak edi. U oliy ma`lumotli bo`lsa-da, tahririyatdan ketishga va bozorga chiqishga majbur bo`ladi. Donishni, Nasibani bozorga kelib savdo ishlari bilan shug`ullanishida ham shu ayolning hissasi bor. Hulkarga bozor qanchalik begona bo`lsa Donishni tushunib yetish ham shu qadar mushkul. Biroq Donish olamdan o`tgandan so`ng uning o`limida o`zini ayblaydi. “Lotoreya” hikoyasi sabab Donish fojiasi sodir bo`ldi deya ich-etini yeya boshlaydi. Bu holat uzoqqa cho`zilmaydi. Hulkar yaxshi ijodkor bo`lganligi sabab uni ro`znomaga ishga taklif qilishadi. Hulkar Armon bu taklifga birdan rozi bo`lmaydi. Uning hikoyalariga yaxshi gonorar to`layotgan

⁶⁵Куrolбой кизи З. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 189-бет.

Ikrom pul bilan ro`znomasiga qiziqishi orttiradi. Tez orada ko`p pul topish mumkinligini tushungan Hulkar bozorni qoldirib, ro`znomaga ishga keladi. Uning hikoyalari ro`zmaning har sonida chiqa boshlaydi. Natijada esa Hulkar tez orada oilasining moddiy ahvolini yaxshilaydi.

Hulkar Armon tez orada Donish fojiasini ham unutadi. Biroq qilayotgan ishidan uning, umuman, ijodkor sifatida ko`ngli to`lmaydi. Chunki mana endi Hulkar Armon haqiqiy asar yozmayotgan, balki o`sha davr talabiga muvofiq hikoyalar yoza boshlagan edi. Bu kabi jarayon Hulkar armon ruhiyatiga ta`sir etmasdan qolmaydi. Uning ruhiyatini yemira boshlaydi. Bu holatni adiba quyidagicha tasvirleydi: *“Yozuvchilar xudoga yaqin odamlar bo`lishadi. Axir, xudo bandalarini yaratganiday, yozuvchilar ham kitoblarida har xil odamlarni yaratishadi...”* Bu gapni Donish aytgan edi. O`sha, har qadamda uchraydigan mayda odamlarning biri!.. Bu uning yozuvchilarga e`tiqod va ishonchi yuksakligini bildirardi. Ammo Hulkar shu ishonchni-da oqlolmadi. Aksincha, boridan ham judo bo`ldi. Hayot azob-uqubat to`la maskanga aylandi uning uchun, bunday yashagandan ko`ra...

Hulkar ancha vaqt hech narsani o`ylamasdan tek qotib o`tirdi. U ayni zamonda haqiqatan ham hech narsa haqida o`ylamayotgan edi. Vaqt ham o`z ahamiyatini yo`qotgandi. Yigirma daqiqalardan so`ng sekin xonasidan chiqdi. Oshxonaga o`tdi. Yaqindagina biror durustroq jihozi bo`lmagan, lekin hozirda bu yerni bezab turgan antiqa arab mebelining g`aladonlarini bir-bir tortib, ichidan nimanidir qidira boshladi. Uning butun fikri-zikri qidirayotgan narsasi bilan band bo`lganidan yon-veriga qaramasdi. *“Shu yerda bo`lishi kerak, -derdi u xayolan o`ziga. – shu yerga qo`yganim aniq esimda”*. U juda sekinlik va ehtiyotkorlik bilan harakat qilardi, ammo baribir qandaydir xatolikka yoki qo`pol harakatga yo`l qo`ydi, chog`i, bir mahal:

- Oyi, haliyam uxlamadingizmi? – degan ovoz eshitildi.

Hulkar qattiq seskanib tushgan holda, lekin juda ham parishonlik bilan ortiga o`girildi. Oshxona eshigi oldida Rashid turardi.

- *O`g`lim... - deya pichirladi u garangsiragan, esankiragan, dovdiragan bir alpozda.*

- *Uxlamadingizmi?..*

- *Chilvir bor edi... Ko`rmadingmi?.. – yana garangsiragan, esankiragan, dovdiragan bir alpozda so`radi Hulkar.*

U sira ham hushini yig`ib ololmayotgan edi. Mabodo o`g`li: “Mana o`sha chilvir!” deya qidirayotgan narsasini qo`liga tutganida bormi, u hech ikkilanmasdan, yigirma daqiqalik sukutdan keyin qo`qqisdan xayoliga kelgan bir ishni amalga oshirardi! Bunga shak-shubha yo`q edi. Shu yo`l bilan u barcha-barchasidan qutulmoqchi edi...

- *Ko`k chilvirmi? – so`radi o`g`li.*

- *Ha...*

- *Men uni o`qituvchimizga oborib berganman. Kerak ekan...*

Hulkar chuqur xo`rsindi.

- *Shunaqami?.. – dedi birozdan keyin butkul ruhsiz, aftoda holga tushib. O`g`li indamadi. Eshik kesakisiga suyanib turganicha onasiga tikilardi u.*

- *Bo`pti... Borib uxlayver...*

Rashid tag`in javob bermadi, o`rnidan jilmadi ham.

- *Boraver dedim-ku...*

- *Uyqum kelmayapti.*

Hulkar yana chuqur xo`rsindi. So`ng taburetkalardan biriga omonat o`tirdi. Rashid esa qimir etmay, qoqqan qoziqday turdi, turaverdi.

Biror soatlar o`tgach Hulkar yomon tush ko`rib uyg`ongan odamday birdan seskandi. Ko`zlari dahshatdan olayib ketdi ”⁶⁶.

Hulkar bunday ruhiy holatga faqat bir marotaba tushadi. Uning ko`ziga oilasi va bolalari ham ko`rinmaydi. Sevgan ishi azobga aylanadi. Bunday yashashni xohlamaydi. Biroq Rashid sabab tezda o`ziga keladi. Hulkar asarda Behzod, Hakimlar bilan yaqin do`stlarcha suhbatlashadi va ularni o`z tengi deb biladi. U o`z qismatiga ko`nishni istamaydi. Hayot unga yangi bir eshikni

⁶⁶Куролбой кизи З. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 255-бет.

ochgani kabi Hakim va Behzodga ham shunday eshikni ochadi. Hakim bunday hayot tuhfasi rozi bo'ladi. Biroq Behzod bunday tuhfani qabul qilishni istamaydi.

Qismat va inson munosabati haqidagi bahs romanning boshidan-oxirigacha davom etadi. Asardagi har bir qahramonning taqdiri o'sha munosabatlarning biror yo'sinda namoyon bo'lishidir. Roman qismatni kutib yotishini emas, balki uni munosibroq qilish uchun tinimsiz intilish, qiyinchiliklar og'ushida tozarish kerakligiga o'quvchini ishontira oladi.

“Armon asirasi”da milliy romanchilikka yangilik bo'lib qo'shiladigan jihatlar anchagina. Zuhra, Talgat, Nasiba, Hulkar va ayniqsa, Donish kabi personajlarni o'zbek adabiyotidagi yangilik deyish mumkin. Xuddi hayotdagi va qismatdagi kabi bu obrazlarning tutumlarini ham oldindan bashorat qilib bo'lmaydi.

Zulfiya Qurolboy qizining romani ijtimoiy roman emas, chunki u qatlamni emas, shaxsni tasvirlashni maqsad qilib qo'ygan. Odam alohida bir qadriyat emas, balki shunchaki ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi darajasiga tushgan sharoitda uning qiziqishu intilishlari ham maydalashib ketishi asarda ta'sirli aks ettirilgan. Odam haqida shafqatsizlik bilan aytilgan mehr qo'shig'i bo'lmish bu roman yetilgan yaraning yiringlarini sitib chiqarishi zaruriyati kabi majburiy ayovsizlik mahsuli bo'lgan bitikdir. Adoqsiz insoniy dardlar haqida shavq bilan yozilgan mazkur asar har bir o'quvchini o'z xatti-harakatlari haqida o'ylashga undaydi.

“Mashaqqatlar girdobi” asarining bosh qahramoni Davron. U oliy ma'lumotli bo'lsa-da, biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'ladi. O'z kasbini tashlab yaqin do'sti Safarali bilan Rossiya tomon yo'l oladi. Biroq Rossiya mehmonxonalaridan birida ko'p ichib qo'ygan Safarali va Davron bor budidan ajraladi. Hatto biror hujjati ham qolmaydi. Ana shu holda ular qo'lga tushadilar. Davron Safaralini qutqarish uchun chiqib ketadi va o'zi bilmagan holda asirlikka tushib qoladi. Asar Davronning asirlikka tushishi va shu yerda mehnat qilishi bilan boshlanadi. Biz bu voqealar makonini taxmin qilishimiz mumkin. U

Rossiyaning uzoq o`rmonlaridan birida yuz beradi. Na bosh qahramon, na adiba makonning nomini tilga oladilar. Biz aniq bilmagan holda asarni o`rmonda bo`lib o`tayotgan voqealar asosida sharhlaymiz.

Adiba Davronning portretini chizmaydi. Voqealar asosida uning xarakteri yorqinlasha boradi. U qullikka tushgan bo`lsa-da, o`z odamgarchiligini yo`qotmaydi. Ushbu fikrlarimizni Karimboy og`aning boshiga tushgan ko`rguliklar orqali isbotlashimiz mumkin. Asarning personajlaridan biri Karimboy og`a va uning o`g`li Alisher. Karimboy og`a o`g`lini yonidan jildirmaslikka harakat qiladi. Ular ikki smenada to`rt odamning mehnatini qilishadi. Biroq Alisher yuqori qavatdan qulab ketib oyog`i shikastlanadi. Uning og`rig`i kundan kunga zo`rayadi. Ahvoli yomonlasha boradi. Biroq ularga yordam beruvchi biror kimsa topilmaydi. Ish boshqaruvchi va nazorat boshqaruvchisi Alisherdan shikoyat qilib kelishgan odamlar so`ziga kirib Karimboy og`ani ishga chiqishini talab qila boshlaydi. Karimboy og`a esa o`g`lini shu ahvolda tashlab ketishi mumkin emas edi. Ana shunday og`ir vaziyatda Davron yordamga keladi. U nazorat boshqaruvchisiga Karimboy og`a va Alisherning o`rniga ishlashi mumkinligini aytadi. Bu ishni nega qilayotganini so`rashganlarida esa Davron quruqqina qilib pul uchun deydi. Aslida esa odamgarchilik yuzasidan o`zi bilmagan ishga borishini ta`kidlagan edi: *“Aksiga olganday, o`sha kunlari Hakim Nazarich negadir ko`rinmay qoldi. Kimdir shikoyat qilib borgan, shekilli bir kuni kechki vaqt hamma barakka to`plangan chog`i, Po`lat Damirovich kirib keldi.*

- *Nimalar bo`layapti bu yerda? Odamlarning tinchini buzayotgan to`palonchi qani? – dedi u xonaga ko`z yugurtirarkan.*

Hamma jim.

Karimboy aka gap nimadaligini fahmladi, shekilli, rangi bo`zday oqargan ko`yi asta o`rnidan turdi. Turdi-yu, yerga qaragancha indamay turaverdi.

- *Nima bo`ldi? – deb so`radi Po`lat Damirovich latta-putta bilan o`rab tashlangan Alisherga imo qilib.*
- *Yiqilib tushdi...*

- *Yiqilib tushishiga kim aybdor? Birov itarib yubordimi?*
- *Hech kim... o`zi...*
- *Demak, bu ishda hech kim aybdor emas. To`g`rimi? Yoki... - ikkilandi Po`lat Damirovich. – Yoki shubhangiz bormi?*
- *Shubha yo`q... Kimdan shubha qilamiz? – dedi Karimboy oka sarosimalanib.*
- *Baxtsiz hodisa. Ehtiyotsizlik tufayli yuz bergan baxtsiz hodisa, shundaymi?*

Karimboy aka allaqanday xavotirdan seskandi.

- *Shundaymi? – takrorladi Po`lat Damirovich.*

Karimboy aka bosh irg`adi.

- *Demak? Da`vo qilishga umuman haqqingiz yo`qligini ham bilasiz?*

Karimboy aka peshonasiga kaftini bosgancha indamay turaverdi.

- *Nega javob bermayapsiz? – Po`lat Damirovichning ovozi o`zgardi.*
- *Uka...*
- *Men sizga uka emasman!*
- *Kechirasiz... Po`lat Damirovich... bizning hech kimga da`vomiz yo`q. Faqat o`g`limni da`volatishga yordam bering, iltimos.*
- *Bu ish bilan Hakim Nazarichga murojaat qiling!*

Po`lat Damirovich burildi, lekin shu zahoti yana Karimboy akaga yuzlanarkan:

- *O`g`lingizni ogohlantirib qo`ying, agar yana dod-voy qilib, odamlarning tinchini buzadigan bo`lsa, shtab kazarmasiga oborib tashlaymiz! Tushundingizmi?! – dedi*

Karimboy akaning yuzi oqarib ketdi.

- *Siz nima uchun ishga chiqmayapsiz? – deb so`radi Po`lat Damirovich Karimboy akadan.*
- *O`g`lim...*
- *Nima o`g`lim?*
- *Unga qarayapman axir!*

- *Bunaqasi ketmaydi! Bilib qo`ying, barakda qolishga hech kimning haqqi yo`q! Faqat nogironlarnigina qolishi mumkin.*
- *Men ishga chiqsam bolamning ahvoli nima bo`ladi?*
- *Oshpazlar qarab turishadi. Gapni ko`paytirishdan foyda yo`q. Hamma darhol ishga!*

Karimboy aka yolvoruvchi nigoh bilan atrofdagilarga nazar tashladi. Safdagilardan sado chiqmadi.

- *Hakim Nazarich qachon keladilar? – deb so`rashga jur`at qildim men.*
- *Hakim Nazarich xizmat vazifasi bilan ketgan, qachon qaytishi noma`lum, - dedi Po`lat Damirovich meni birinchi marta ko`rayotgandek hayron bo`lib tikilarkan.*
- *Karimboy akaning o`rniga ishlab bermoqchimiz, u kishi o`g`lining yonida bo`la qolsin bir necha kun, - dedim yana biroz dadillanib.*

Po`lat Damirovich kibrli nigohi bilan meni boshdan-oyoq kuzatarkan, iztehzob bilan so`radi:

- *Shu jussangiz bilan ikki kishilik, yo`q, uch kishilik normani bajara olarmikinsiz?*
- *Puli to`lansa bo`ldi, har qanday ishni eplab ketaveramiz, - deya dangal javob berdim.*
- *Po`lat Damirovich meni pul uchun o`zini tomdan tashlaydigan chapanilardan deb o`yladi chog`i yo diliga boshqa bir niyatni tutdimi, har qalay:*
- *Bo`pti, biz rozi, - dedi biroz yumshab*⁶⁷.

Davron asarda Karimboy akani og`ir ahvoldan qutqaradi, keyinchalik esa Alisherning ahvolidan ham xabar olib turadi. Asarda Davron o`zi bilmagan kasbi bilan shug`ullanganligi sababli qo`li lat yeyishi berilgan. U o`z vaqtida muolaja olmaganligi sababli qo`li kundan kunga og`riy boshlaydi. Mana shunday voqealar asnosida asarga yana bir obraz qo`shiladi.

⁶⁷www.ziyouz.com. Mashaqqatlar girdobi. 27-28-betlar.

“Mashaqqatlar girdobi” romanida ayni shu girdobga tushib qolgan yurtdoshlarimizning odam aqli bovar qilmaydigan ko`rgiliklari, odam qiyofasini yo`qotgan maxluqlarning mislsiz shafqatsizliklari haqida hikoya qilinadi. Xuddi ertak sarguzashtlarini eslatadigan real hayotiy hodisa-voqealar o`quvchini larzaga soladi, chuqur alamli mushohadalarga toldiradi. Asarning eng muhim, benihoya ibratli, yorqin jihati shundaki, ana shu girdob zulmati iskanjasida ham o`zligini, asl insoniy fazilatlarini yo`qotmagan, zulmatni yoritishga, uning temir qafaslarini yorib chiqishga, yonib, tutqunlikazoblariga ko`nikkan g`aflat bandalarini uyg`otishga qodir asl insonlar ham bor. Asardagi Gulruh ana shunday kuchlarning oldingi safida turuvchi yorqin siymo tarzida gavdalanadi.

Yozuvchi bu ayolni personajlardan birining so`zlari bilan aytganda “ezgulik va yorug`lik farishtasi” deb ataydi. Darhaqiqat, bu farishta ayol paydo bo`lishi bilan zulm va zulmat maskanida bamisoli ziyo chaqnaydi, qatma-qat davom etgan mashaqqatlar, zo`ravonliklar silsilasiga darz ketadi, voqealar ijobiy o`zgarishlar tomon yuz o`giradi, qahramonning o`z so`zlari bilan aytganda uning yangidan-yangi xislatlari namoyon bo`la boradi. Bu hamshira ayolning nafaqat ninasi, balki tili ham o`tkir, sanchgan joyidan qon chiqarmasa, qo`ymaydi. Zulmat maskanidagi shikoyat qilish va ovqatlanishdan boshqasini bilmaydigan yig`loqi ayollar qarshisida u butunlay boshqacha, betakror go`zal, sodda va yoniga yo`lab bo`lmaydigan darajada mag`rur. Tutqunlar orasida o`zini ruhan tutqun hisoblamaydigan, tushkunlikka berilmaydigan birgina inson shu Gulruhning o`zi! Uni yo`ldan ozdirmoqchi bo`lgan, jamiki ezgu maqsadlariga qarshi turgan ashaddiy raqibi ham oxiri uning oldida ruhan taslim bo`ladi. Buning guvohi bo`lgan hikoyachi-qahramon beixtiyor “gul yaprog`idagi shudringday pokiza, bokira, oliy maqsad yo`lida hech qanday to`siqni pisand qilmaydigan bunday oqila ayolni uchratmagandim” deya hayajonini yashirolmaydi.

Gulruh obrazi va uning xarakterini Davron tili orqali tanisha boramiz. Asarda Gulruh portreti quyidagicha chiziladi: *“Xuddi shu vaqt oshxona eshigi sekin g`iyqillab ochildi. Va... va ostonada... Yo`q, eng avval oppoq manglay...*

har tolasidan uchqun sachrayotgandek qop-qora, silliq sochlar... kamon qoshlar ostida butun dunyoni o`zida mujassam etgan dengizdek sokin va tubsiz bir juft qora ko`z yangi paydo bo`lgan yulduz misol “yarq” etib ko`zga tashlandi. Keyin yoqasi ko`tarilgan odmi qora palto, uchi ingichka etik kiygan, benihoya sohibjamolligidan tashqari, nimasi bilandir bir qarashdayoq odamni o`ziga tortadigan navnihol ayol xonaga kirdi”⁶⁸.

Davron bu ayolni bir ko`rishda yoqtirib qoladi. Biroq uning xarakteri va fe`l-atvorini bilmaganligi sababli unga birdan o`z tuyg`ularini ayta olmaydi. Davronga hatto Gulruhning ovozi ham shu darajada mayin tuyuladiki, u uningovozini qayta-qayta eshitishni istaydi.

Yuqorida ta`kid etganimizdek, Davron qo`lini ko`rsatish va muolaja olish uchun medpunktga boradi va shu yerda Gulruh bilan tanishadi. Sevib qolganligi sabab unga tik qaray olmaydi. Keyinchalik Hakim Nazarich Davronni medpunktga qorovul qilib qo`yadi. Bu esa Davronni Gulruhga yanada yaqinlashtiradi. Davron Gulruhni tanigan chog`ida umuman tushunmaydi. Shu bilan bir qatorda uni Po`lat Damirovich hamda Hakim Nazarichlardan rashk qila boshlaydi. Hatto asarda Davron ayollarning sha`nini himoya qilib Asliddin degan yigit bilan mushtlashishgacha boradi. Gulruh uning hayotidan shu qadar chuqur joy oladiki, Davron, hatto, buni sezmay qoladi. Davron mana endi Gulruhni yaqindan bila boshlagandan so`ng unga nafaqat sevgisi ortadi balki hurmati ham osha boradi.

Gulruh ham o`z navbatida Davronga befarq emas edi. Bu ayolni asarda biz oddiy hamshira deb bilamiz. Keyinchalik esa u oddiy hamshira emas balki xirurgligi ayonlashadi. Xirurg (jarroh) bo`lganligi sabab u Alisherni o`lim yoqasidan olib qoladi. Biroq Husanni olib qolishga qurbi yetmaydi. Romanda hikoya qilinayotgan voqealar ma`lum bir qahramonlarning xarakterini yoritishga yordam beradi. Shu sabab biror voqeani asardan olib tashlab bo`lmaydi. Ayniqsa, Gulruh hayoti bilan bog`liq voqealar fikrimizga misol bo`la oladi. Adiba asarda bu ayolni shijoatli qilib tasvirlaydi.

⁶⁸www.ziyouz.com. Mashaqqatlar girdobi. 31-betlar.

Bu benazir mardona ayol shijoati tufayli ajal yoqasida ingrab yotgan bemorlar hayotga qaytadi (Alisher kabi), ashaddiy zolimlar (Po`lat Damirovich kabi), ustomon firibgarlar (Hakim Nazarish singari obrazlar) shashtidan tushadi, g`aflat bandalari hushyor tortadi, nihoyat, o`zi ham, yaqinlari ham qullik iskanjasidan xalos etiladi. Asar baxtli xotima bilan yakunlanadi. Ikki sevishtan yosh – hikoyachi qahramon Davron bilan unga taqdiridosh Gulruh ko`p ko`rgiliklar poyonida ona yurtiga qaytib, shu tabarruk zaminda chin baxtini topadilar.

Ehtimol, ayrim o`quvchilarga qahramonning shijoati bir oz oshirib yuborilgandek, baxtli xotima esa ertaklardagidek silliq kechgandek, oldinda hali yangi to`siqlar borligiga loaqal imo-ishoralar ham yo`qdek tuyular... Asarda goho favqulodda hodisalarga mahliyolik, voqeanavislik ustunlik qilib ketgan o`rinlar uchraydi. Nima bo`lganda ham, ayni shunday romantik ruhdagi yoshlar uchun ham ibrat, ham saboq bo`la oladigan qahramonlarga ehtiyoj, tashnalik nihoyatda katta edi.

“Mashaqqatlar girdobi”dagi Gulruh afsona, ertak qahramonlariga xos jo`mardlik, hodisalar talqini va yechimida esa ertaklarga xos baxtli xotimani ko`rib, talabchan kitobxon burun jiyirishi mumkin. Axir inson qalbidagi har qanday jo`mardlik ham osonlikcha ro`yobga chiqmasligi ayon. Ko`p hollarda zamonaviy badiiy ifoda darajasida turib qalam tebratayotgan adibamizdan sirli-sehrli hodisalar tasviri, ibratli qahramon talqinida, shaxs jumbog`i yechimi borasida ham yangi, salmoqdor badiiy ixtirolar kutishga haqlimiz.

“Armon asirasi” romanida o`tish davri talotumlari pallasida tirikchilik vajidan nafs ilinjida asl kasb-kori qolib, o`zini bozorga urgan bir guruh olomon qalamga olinadi. Bozor asarda asl ma`nosidan ko`ra bamisoli ramziy teatr sahnasini eslatadi. Bu sahnada roman personajlar sinovdan o`tadilar. Boshida ular bir-biridan unchalik farq qilmaydi. O`tayotgan kunlar ham, personajlarning yumush, tashvishlari ham deyarli bir xil, bir xil, bir xil... Shunchaki tirikchilik, nafs ilinji ularni qiyofasiz olomonga aylantirib qo`ygan. Bu zerikarli, shunchaki kun o`tkazish mavsumining oxiri bormi o`zi? Donish, Nasiba, Hulkar, Behzod,

Talgat, Zuhra kabi millatning asl farzandlari bo'lishga loyiq zotlar shahar chekkasidagi tashlandiq, badbo'y, diqqinafas makonda nima qilib yuribdi, degan alamli savol o'quvchi qalbini iztirobga soladi. Bora-bora bu maskan ko'z oldingizda zulmatga aylanadi. "Mashaqqatlar girdobi" dabo'lgani kabi bu romanida ham sekin-asta zulmatni yorituvchi ziyo yolqinlari bo'y ko'rsata boshlaydi. Asar boshida bir qadar mushtipar, sodda, ishonuvchan-laqma ayol tariqasida namoyon bo'lgan Nasibaning qalbi tubida pinhon yotgan tabiiy ezgu tuyg'u, fazilatlar yuzaga qalqib chiqib, u haqidagi avvalgi tasavvurlaringizni o'zgartira boshlaydi. Asar personajlari orasida hayot sinovlaridan, turmush chorrahalaridan eson-omon o'tib olgan zot – ayni shu Nasibaning o'zidir. Eng muhimi, g'oyat chigal, tahlikali damlarda ham u o'zligiga sodiq qoladi, ayollik sha'ni, or-nomusi, latofatiga gard yuqtirmaydi. Bu alomat ayol jamiki qiyinchiliklarni, ro'zg'or "yuk"ini bo'yniga olib, turmush chorrahaları komiga tushib qolgan umr yo'ldoshi Donishni halokatdan xalos etishga urinadi. Afsus, bu farishta ayol tabiatidagi bebaho fazilatlarini, qalb tubidagi ezgu tuyg'ularni boshda ko'plar, hattoki umr yo'ldoshi ham payqamaydi, qadriga yetmaydi.

Roman mutolaasi chog'ida mana shu hol bir armon bo'lib o'quvchi qalbini tirnaydi. Nihoyat, asar oxiriga borib, kutilmaganda, yana bir g'aroyib tabiat odam – Talgat ayoldagi ana shu pinhona jozibani o'zicha kashf etadi. Aslida esa ayolning nozik-nafis, sezgir ko'ngli sirtdan qaraganda tund, tushuniksiz bu kimsaning qalbi tubida cho'kib yotgan, boshqalar sezmagan noyob insoniy xislatlarni birinchi bo'lib ilg'agan, uni vujudiga ilashgan g'uborlardan poklab, asl holiga qaytarishga ahd qilgan. Bu ezgu niyat yo'lida qat'iyat, qalbdagi cheksiz mehr-muruvvat o'z kuchini ko'rsatadi. Boshda iste'dodli olim, asl inson, vafodor sanalgan bu kimsa suyukli umr yo'ldoshini xiyonat ustida ko'rib, chavaqlab tashlagan, buning uchun munosib jazo ham olgan. Shundan keyin inson, xususan, ayol zotiga ishonchini yo'qotib nochor, tund, tushkun, ruhan xasta qasoskorga aylangan. Ana shunday kimsa Nasibaning qalb saxovati tufayli, avvalo, o'lim to'shagidan oyoqqa turadi, sekin-asta ayol zotiga bo'lgan qarashida ham o'zgarish yuz beradi. Ruhiyatida butunlay

boshqacha, avvalgilariga sira ham o`xshamaydigan yangi, kuchli, har qanday g`azab-u nafratdan xoli bir tuyg`u hukmronlik qila boshlaydi. Bu o`zgarish nafaqat uning qiyofasida, balki ongi-shuurida, ongining zim-ziyo tubida ham yuz beradi. Qandaydir ko`rinmas kuch – go`yo qalbida ulug` kimyogar nafratni muhabbatga, yovuzlikni ezgulikka, xudbinlikni mehribonlikka aylantirayotganday...

Ana shu jarayonda uning Nasibaga munosabati ham o`zgacha tus oladi. Avvallari Nasibani xushlamagan, ichida unga kek saqlab yurgan odam nazarida Nasiba “o`z qadrini bilmaydigan” noshud-notavon emas, balki “qadri-yu sha`nini juda yuqori qo`yadigan fahm-farosatli”, “o`ta aqlli va sabr-toqatli” ayolga aylanadi. Nasiba boshlagan ishini “oxirgi chiziqqa dovur yetib borishini kutib yashaydigan” jasur inson. To`g`ri, tirik inson, ayol sifatida goho “qo`rqadi, vahimadan yuragi yorilgudek bo`ladi, lekin, baribir, shu qo`rquv sari bostirib boraveradi. Uning hatto qayg`usida ham kuchli allanima borday...”

Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi qahramonlar hayotimizda, yonimizda yurganday go`yo. Biroq ularning ruhiyatini yaxshi bilmaganimiz sabab, ularning xayol og`ushiga kirib bora olmaymiz. Ular o`zlari uchun to`g`ri bo`lgan yo`lni tanlashadi va bu y o`lga olg`a qarab borishadi. Shu sabab asarda ifoda etilganidek o`zlarining niyatlariga yetisha oladilar.

Nasibaning qalb saxovati tufayli faqat Talgat emas, bozor girdobiga tushib qolgan, turmushda ham, ijodda ham “bozor odami”ga aylana boshlagan noyob iste`dod sohibasi Hulkar ham o`zligiga qaytadi, yana bir yorqin iste`dod Behzod vasliga erishadi. Muhimi, bularning barchasi romanda quruq hikoya qilingan emas, personajlar ruhiyatidagi evrilishlar hosilasi tarzida berilgan. Shu jihatdan “Armon asrasi”da adiba ilk romaniga nisbatan ancha oldin ketgan.

Shu tariqa armon asirasi Nasibaning qalb saxovati, ezgulik yo`lidagi fidoiyligi va bu noyob xislatlarining hayotbaxsh yog`dulari asarning asosiy pafosini belgilaydi. Shunisi ham borki, romanda bu umidbaxsh ruh hech qanaqa dabdabasiz, osoyishta, tabiiy bir yo`sinda namoyon bo`ladi.

Xullas, “Mashaqqatlar girdobi” va “Armon asirasi” romanlari mazmun jihatidan o‘zbek adabiyotida yangilik bo‘ldi. Bu asarlarda adiba ijtimoiy hayotni aks ettirish emas, balki shaxsning ruhiy holati hamda hayotdagi o‘rnini tasvirlashni bosh maqsad qilib olgan.

“Armon asirasi” romanida hayotda o‘z o‘rnini topa olmagan, tirikchilik, kun o‘tkazish singari holatlarga tushib qolgan obrazlar ruhiyati yoritilgan. Asardagi Nasiba, Donish, Hulkar, Talgat, Zuhra singari obrazlarning barchasi ham xarakter sifatida gavdalana olmaydi. Bu timsollar hayot zarbalari oldida ojiz qolgan shaxslardir. Asarda biron-bir obraz boshqa bir obrazga to‘liq qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Kuchli konfliktni kuzatib bo‘lmaydi, ko‘proq taqdiriga bosh eguvchi qahramonlar tasvirlangan.

“Mashaqqatlar girdobi” romanida o‘z yurtini va kasbini tashlab nafs ilinjida va oson pul topish maqsadida chet elga ketgan shaxslar hayoti haqida hikoya qilinadi. Romanda o‘ziga xos o‘rin tutgan va asar konfliktni yaratgan obrazlar Gulrux hamda Husan hisoblanadi. Gulruhni tom ma’noda ijobiy obraz sifatida talqin etadigan bo‘lsak, Husan murakkab obrazlardan biridir. Har ikki obraz ham asarda yovuz kuchlarga qarshi kurashadi. Oxirda Gulrux g‘olib chiqqan bo‘lsa, Husan bu kurashda halok bo‘ladi.

Har ikki asarda ham Zulfiya Qurolboy qizi o‘z obrazlarini hech bir qahramonlarga o‘xshamagan holatlarda namoyon qiladi. Ularning ruhiyatiga chuqur kirib borib, xarakterini yoritishga harakat qilgan. Shu sabab asarni o‘qigan o‘quvchi bu obrazlarning qalb tug‘yonlariga befarq qaray olmaydi.

XULOSA

Bugungi kunda badiiy asar turli rakurslardan turib talqin etilmoqda. Shu jihatdan poetika tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Poetika qadimgi atamalardan bo'lib, u, dastlab, umuman adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan ma'nosida tushunilgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib badiiy nutqni bezash vositalari va usullarini o'rganuvchi sohani anglatgan. Umuman, poetika bugungi kunda adabiyotshunoslik haqidagi fan tushunchasiga (to'liq anglatmasada) to'g'ri keladi. Poetika istilohi Aristotel nomi bilan bog'lanadi. Uning “Poetika” asari bu istilohni anglashga yordam beradi. Unda poeziya san'ati xususiyatlari – tasvirlash predmetining xilma-xilligi, aks ettirishning turli usullari, badiiy xarakter, til va fikr, turlar kabi nazariy muammolar izchil tekshiriladi. Uning adabiyot haqida ishlab chiqilgan dastlabki qoidalari yetuk ta'limot sifatida XVIII asrning oxirigacha estetik tushunchaga nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Yozuvchi badiiy asar yaratar ekan, uning yuksak g'oya tashishi, xalqchilligi, obrazlilik, estetik xarakteri, yaxlitligi, badiiyligi, badiiy pafosi kabi jihatlarga e'tibor qaratmog'i lozim. Shu jihatdan Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan asarlar muhim ahamiyatga ega. Zulfiya Qurolboy qizi “Turmush”, “Yovuzlik farishtasi”, “O'lim hech narsa emas” hikoyalar to'plami hamda “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” romanlar muallifidir. Hikoyalari asosida O'zbek davlat drama teatrida “Ayol” spektakli sahnalashtirilgan. Biroq adiba ijodi xususida yozilgan ilmiy maqolalar sanoqligina. Adibaning hikoyalari xususida Umarali Normatov, Qozoqboy Yo'ldoshev singari munaqqidlar fikr bildirishgan. Biroq bu maqolalar ham adiba ijodini to'liq qamrab olmaydi.

Zulfiya Qurolboy qizining qator hikoyalari o'zbek adabiyotining shakl va mazmun jihatidan jiddiy yangilanishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Adibaning “Tafakkur”, “Hilola”, “O, hayot” hikoyalari hayotning bir parchasini aniq aks ettirgan kabi tasavvur beradi. Yozuvchining ushbu hikoyalari hajmining ixchamligi, keng mazmunni qamrab olganligi, voqealarining hayotiyligi, qahramonlar xarakteri ta'sirchanligi bilan o'zbek adabiyotida o'ziga xos

yangilik edi. O`zbek adabiyotining shakl va mazmun jihatidan yangilanganligini namoyon etgan mazkur hikoyalar hech bir o`quvchini befarq qoldirmaydi. Ular hayot voqeligining haqqoniy manzarasi sifatida taassurot uyg`otadi.

Adiba voqealar kechayotgan makon va zamon, manzara ko`rinishini eng xarakterli detallar asosida gavdalantirishi uning xalq hayotini chuqur bilgani, nochor odamlar ahvolini yaqindan his qilganidan dalolat beradi. Adibaning hikoyalari ham davr va uning muammolari to`g`risida batafsil tushuncha berish barobarida, insoniy munosabatlarning murakkabligi, inson qismatining chigalliklari, kishining taqdiri, istasa-istamasa, boshqalarga bevosita bog`liqligi haqida aniq tasavvur beradi.

Zulfiya Qurolboy qizi qahramonlar psixologik portretini yaratishga alohida e`tibor qaratadigan ijodkorlar sirasiga kiradi. Yozuvchi “Hilola” hikoyasida Hilola, “Tafakkur”da Dovul Tegirmonchi, Tangriberdi, “Quyosh men tomonda”da Go`zal kabi obrazlarning psixologik portreti shunchalik mukammal beradiki, bu satrlarni o`qigan kitobxon obrazlarni aniq tasavvur qila oladi.

Zulfiya Qurolboy qizi, asosan, anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurishmagan, nochor, taqdirning noravon yo`llarida sarsonu sargardon kishilar obrazini yaratadi. U bunday holatlarning qanday qilib vujudga kelish sabablarini izlamaydi, o`sha holatni aynan tasvirlash va o`quvchining ko`ziga ko`rsatish bilan kifoyalanadi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari zamirida qandaydir sir-sinoat yashiringan bo`ladi, anglash, tushunib yetish qiyin bo`lgan tasvirlar uchramaydi. Adiba hikoyalarida ixcham tasvirlar qo`llaydi, so`zlarni topib ishlatadi. Bu esa obrazlarning ruhiyatiga kirib borishiga yordam beradi hamda adibaning mahoratini ko`rsatuvchi omilga aylanadi.

Zulfiya Qurolboy qizining har ikki romani ijtimoiy roman emas, chunki u qatlamni emas, shaxsni tasvirlashni maqsad qilib qo`ygan. Odam alohida bir qadriyat emas, balki shunchaki ishlab chiqaruvchi yoki iste`molchi darajasiga tushgan sharoitda uning qiziqishu intilishlari ham maydalashib ketishi asarda

ta'sirli aks ettirilgan. Odam haqida shafqatsizlik bilan aytilgan mehr qo'shig'i bo'lmish bu roman yetilgan yaraning yiringlarini sitib chiqarishi zaruriyati kabi majburiy ayovsizlik mahsuli bo'lgan bitikdir. Adoqsiz insoniy dardlar haqida shavq bilan yozilgan mazkur asarlar har bir o'quvchini o'z xatti-harakatlari haqida o'ylashga undaydi.

“Armon asirasi” asarida favqulotda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari, shu asnoda ularning tabiatidagi ro'y bergan hissiy-ma'naviy evrilishlar mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan.

“Mashaqqatlar girdobi” romanida ayni shu girdobga tushib qolgan yurtdoshlarimizning odam aqli bovar qilmaydigan ko'rgiliklari, odam qiyofasini yo'qotgan maxluqlarning mislsiz shafqatsizliklari haqida hikoya qilinadi. Xuddi ertak sarguzashtlarini eslatadigan real hayotiy hodisa-voqealar o'quvchini larzaga soladi, chuqur alamli mushohadalarga toldiradi. Asarning eng muhim, benihoya ibratli, yorqin jihati shundaki, ana shu girdob zulmati iskanjasida ham o'zligini, asl insoniy fazilatlarini yo'qotmagan, zulmatni yoritishga, uning temir qafaslarini yorib chiqishga, yonib, tutqunlikazoblariga ko'nikkan g'aflat bandalarini uyg'otishga qodir asl insonlar ham bor. Asardagi Gulruh ana shunday kuchlarning oldingi safida turuvchi yorqin siymo tarzida gavdalanadi.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi qahramonlar hayotimizda, yonimizda yurganday go'yo. Biroq ularning ruhiyatini yaxshi bilmaganimiz sabab, ularning xayol og'ushiga kirib bora olmaymiz. Ular o'zlari uchun to'g'ri bo'lgan yo'lni tanlashadi va bu yo'lda olg'a qarab borishadi. Shu sabab asarda ifoda etilganidek o'zlarining niyatlariga yetisha oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 143.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., 2000. – Б. 211.

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR:

3. Авазова О. Психологик таҳлил қирралари // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1981 йил, № 1. 61-62-бетлар.
4. Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир// “Шарқ юлдузи”, 1947 йил, № 2-3. 115-137-бетлар.
5. Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 120.
6. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная литература, 1975. С. 10.
7. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. – Т.: Баёз нашриёти, 2014.– Б. 118.
8. Бобохонов М. Руҳий ҳолат тасвирида қаҳрамон портретининг ўрни// “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2010 йил, 3 сон. 53-бет.
9. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 9-бет.
10. Владимирова Н. Ўзбек ҳикояларининг ғоя ва образлари. –Т.: Фан, 1969. –Б. 136.
11. Дониёрова Ш. Давр ва қаҳрамон муаммосига доир// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1999. №3.46-48-бетлар.
12. Жаббор Эшонқул. Руҳий таҳлил методи хусусида. // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1997. №2.42-47-бетлар.
13. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Т.: Маънавият, 2010. 127-бет.

- 14.Имомова Г. Руҳий изтироблар. –Т.: Ёзувчи, 1992. 22-б.
- 15.Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. -Т.: Янги аср авлоди, 2006 й. 130-131-бетлар.
- 16.Каримов Х. Давр қаҳрамон тақдирида. –Т.: Фан, 1987. – 64 б.
- 17.Каримов Х. Наср бахшиси. – Т.; Янги аср авлоди, 2003. - Б.11.
- 18.Маҳмудова З. Ижод психологияси ҳақида// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2004. №3. 61-63-бетлар.
- 19.Матёкубов С. Бадиий психологизм қирралари// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2006. №4.72-74-бетлар.
- 20.Носиров А. Одил Ёкубов романлари поэтикаси. -Т.: Фан, 2012.– Б. 119.
- 21.Омон Мухтор. Кўзгу руҳ поклиги (Аҳмад Отабой билан суҳбат) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1995. 10 февраль.
- 22.Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. М.: Советский писатель, 1986. С. 130.
- 23.Раҳимов И. Руҳий таҳлил ва ижод // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1993, 16 июль.
- 24.Саллаев Ф, Қурбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изохли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010 йил. 186-бет.
- 25.Саримсоқов Б.И. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т.: Фан, 2004. 3-бет.
- 26.Султон И. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи,1986. 163-бет.
- 27.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O'qituvchi, 2005. 168-bet.
- 28.Тўраев Д. Ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Т.: Университет,2001. 28-бет.
- 29.Умуров Х. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983. – 148 б.
- 30.Умуров Х. Адабиёт қоидалари. –Т.: Ўқитувчи, 2002. 241-бет.
- 31.Фридлендер Г.М. Литература в движении времени. М.: Современник, 1983. С. 256.
- 32.Фридлендер Г.М. Поэтика русского реализма. Л.: Наука, 1971. С.63.

- 33.Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. М.: Наука,1970. С. 122.
- 34.Чичерин А.В. Возникновение романа-эпопеи. М.: Советский писатель, 1975. С.5.
- 35.Шермухаммедов П. Рухий дунё кўзгуси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1971. – 167 б.
- 36.ХХ аср ўзбек ҳикоялари антологияси. –Т.:”Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2009. – Б. 623.

III. BADIY ADABIYOTLAR:

- 37.Қуролбой қизи З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 260.
- 38.Қуролбой қизи З. Армон асираси. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2009. – Б. 301.
- 39.Қуролбой қизи З. Қадимий кўшиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 358.
- 40.Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. 301 бет.
- 41.www.ziyouz.com. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girdobi.

IV. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR:

- 42.Абдурахмонова М. Абдулла Қодирийнинг психологик тасвир маҳорати: филол.фан.номз... дисс. –Т., 1977. -141 б.
- 43.Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида одам образи: Филол. Фан.номз...дисс. –Т., 1948. -151 б.
- 44.Владимирова Н. Развитие жанра рассказа в узбекской литературе. Дисс... д-ра наук. –Т., 1980. – 340б.
- 45.Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий услубий ўзига хослиги: филол.фан.номз... дисс. –Т.,2000. – 120 б.
- 46.Дўсмұхамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-

- йиллар аввалидаги ҳикоялар мисолида): филол.фан.номз... дисс. –Т., 1985. -149 б.
- 47.Жўраев Т. Онг оқими ва тавсирийлик (М.М.Дўст, Ғ.Ҳотамов, О.Отахон асарлари асосида): филол.фан.номз... дисс. –Т., 1994. – 162 б.
- 48.Йўлдошев Қ. Ўзбек совет сатирик ҳикоячилигида характер тасвири эволюцияси. филол.фан.номз... дисс. –Т., 1985. -161 б.
- 49.Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80 йиллар): филол.фан.д-ри... дисс. –Т., 1994.–320 б.
- 50.Норматов У. Основные тенденции развития современного узбекского рассказа (1956-1961): Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Т., 1963. -20с.
- 51.Одилов Ш. Кейинги йиллар ўзбек ҳикояларида замондошимиз образи (70-80 йиллар).фил.фан.номз... дисс. автореф. –Т., 1989. -21 б.
- 52.Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: филол.фан.номз... дисс. –Т., 2002. – 136 б.
- 53.Сопиева Ш. Хайриддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати. филол.фан.номз... дисс. –Т., 2006. -147 б.
- 54.Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида бадиий идрок этиш принциплари: филол.фан.номз... дисс. –Т., 2001. -158 б.
- 55.Турдиев Ш. 20-йиллар ўзбек ҳикояси: филол.фан.номз... дисс. –Т., 1968. -141 б.
- 56.Файзуллаев А. Формирование системно-уровневой организации мотивизационной сферы личности (психологический аспект): Автореф. дисс... канд. психлог. наук. –Т., 1984. – 18 с.
- 57.Холмуродов А. Одил Ёкубов романларида психологизм: филол.фан.номз... дисс. –Т., 1991. – 153 б.
- 58.Шодиев Н. Абдулла Қаҳҳорнинг психологик таҳлил маҳорати (“Сароб” ва “Синчалак” асарлари мисолида): филол.фан.номз... дисс. –Т., 1973. – 196 б.

59.Қўшжонов М. Санъаткор ва ҳаёт. (Абдулла Қаҳҳор ижодини қиёсий ўрганиш).фил.фан.д-ри ...дисс. –Т., 1970. -477 б.